O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

***Qo’l yozma huquqida***

**BOLTABOYEV G’AYBULLO**

# O'quvchilarda milliy g'ururni shakillantirish orqali vatanparvarlikni tarbiyalash.

**5A 110901- MUTAXASSISLIGI**
**Bo`yicha magistr darajasini olish**

**PEDAGOGIKA**

# MAGISTRLIK DISSERTATSIYA

**Ilmiy rahbar: p.f.n., dotsent O`.M. Asqarova.**

**Namangan 2014**

# M U N D A R I J A

**Kirish ..........................................................................................................3**

**I.Bob O'quvchilarda milliy g'ururni shakillantirish orqali vatanparvarlikni tarbiyalash ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida ..........................................11**

1.1. O'quvchilarda milliy g'ururni shakillantirish orqali vatanparvarlikni tarbiyalashning o`ziga xos xususiyatlari...............................................................11

1.2. O'quvchilarda milliy g'ururni shakillantirish orqali vatanparvarlikni tarbiyalash tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlari..........................................20

1.3. O'quvchilarda milliy g'ururni shakillantirish orqali vatanparvarlikni tarbiyalash qo'yiladigan psixologik- pedagogik talablar.......................................33

1-Bobga xulosa.............................................................................................34

**II Bob. O'quvchilarda milliy g'ururni shakillantirish orqali vatanparvarlikni tarbiyalashning pedagogik shart – sharoitlari................................................35**

2.1. O’zbek xalq pedagogikasida Vatan ravnaqi g’oyasining ifodalanishi............35

2.2. O’quvchilarda Vatan ravnaqi g’oyasini shakkllantirish tamoyillari va mazmuni ...........................................................................................................59

2.3. O'quvchilarda milliy g'ururni shakillantirish orqali vatanparvarlikni tarbiyalash milliy an’ana, urf odatlar va qadriyatlar tahlili

2-Bobga xulosa.........................................................................................67

**III BOB O'quvchilarda milliy g'ururni shakillantirish orqali vatanparvarlikni tarbiyalashga oid tajriba – sinov ishlarining umumiy mohiyat**........................68

3.1. Tajriba – sinov ishlari metodikasining mazmuni va mexanizmi.....................75

3.2. Tajriba – sinov ishlarining yakuni va samaradorlik ko’rsatgichlar.........................................................................................78

UMUMIY XULOSA VA TAVSIYALAR........................................................80

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR............................................................ 83

ILOVALAR.........................................................................................................85

KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi** O`zbekiston buyuk kelajagini yaratish, uni jahonning rivojlangan mamlakatlaO`zbek xalqiga xos, tarixan qaror topgan umuminsoniy va milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an`analar, axloqiy sifat va fazilatlarni bolalarda tarbiyalash bugungi kunning kechiktirib bo`lmaydigan vazifalaridandir.

Ma`naviyatni yuksaltirish borasidagi davlat g`amho`rligi ma`naviy- ahloqiy tarbiyaga e`tiborning yuksak cho`qqisidir. Chunki ma`naviyatsiz tarbiyani, tarbiyasiz ma`naviyatni zuhur etish qiyin.

Mustaqil mamlaakatimiznig yanada gullab yashnashi kelajagimiz egalari bo'lgan yosh avlodning har jihatdan yetuk, barkamol bo'lib tarbiyalanishiga bog'liq ekanligi yurtboshimiz I.A.Karimov tomonidan alohida ta'kidlanmoqda. Bu yilning "Sog'lom bola yili" deb e'lon qilinishi, mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash va har tomonlama rivojlangan shaxslar etib tarbiyalash uchun zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida "Sog'lom bola yili" Davlat dasturining[1] amalga oshirilishi Prezidentimiz tomonidan yosh avlod tarbiyasi va kelajagiga g'amxo'rlikning yorqin dalilidir.

"Sog'lom bola yili" Davlat dasturi davlatimiz va jamiyatimizning barkamol avlodni tarbiyalash va mamlakatimizda fuqarolik jamiyatining mustahhkam zaminini yaratish borasidagi manfaatlari mushtarak ekanini ko'rsatadi"[2].

Olib borilayotgan kehg kolamli ishlarrning amalga oshirilishi mamlakatimizda har tomonlama munosib yoshlarni, Vatanimiz kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan, jismoniy va ma'naviy sog'lom, barkamol avlodni tarbiyalash uchun zarur bo'lgan barcha sharoitlarni yaratish bo'yicha keng ko'lamli chora tadbirlarni amalga oshirish imkonini tug'dirdi[3].

Shunday ekan, biz ta'lim sohasida ishlayotgan o'qituvchilar oldida bugungi yosh avlodni, farzandlarimizni ertangi murakkab hayotga tayyorlash vazifasi

[1] Karimov I.A. Sog'lom bola yili Davlat dasteri. Toshkent. 2014- yil.

[2] Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. – Toshkent: O'zbekiston, 2010 y.

[3] Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimaz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Xalq so'zi. 2001. 22 yanvar. 16-son

ko'ndalang bo'lib turibdi. Yurtboshimiz "bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohat va yangilanishlar jarayoni butun jamiyatimiz sahovatli zaminiimzda yashayotgan har bir insonni amaliy ishlarga safarbar etadigan umumiy maqsadga aylanishi uchun barcha imkoniyatlarni ishga solaylik" deya jamiyatimiz rivoji uchun asos bo'ladigan ta'lim sohasi murabbiylariga ham murojaat qilar ekan, boshlang'ich ta'limni ham nazarda tutadi.

Prezidentimiz I.A. Karimov "Barkamol avlod" yili munosabati bilan yosh avlod tarbiyasining ahamiyati xususida so`z yuritib.. "Biz farzandlarimizni nafaqat jismoniy, ma`naviy sog`lom o`sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo`lgan uyg`un rivojlangan insonlar bo`lib, XXI asr talablariga to`liq javob beradigan barkamol avlod bo`lib voyaga etishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o`z oldimizga maqsad qalib qo`yganmiz"[4]deb ta`kidlaydi.

Inson ahloqi shunchaki salom-alik, xushmuomaladangina iborat emas. Ahloq – bu avvalo insof va adolat tuyg`usi, imon, halollik degani"dir.[5]

Ma`naviy-ahloqiy tarbiya - bu millat va jamiyat tomonidan yaratilgan barcha ruhiy va aqliy ne`matlarni shaxs tomonidan o`zlashtirilib, undan foydalangan xolda o`z ahloqini barkamollashtirishga erisha olganlik darajasini ko`rsatuvchi mezondir.

Mazmun mohiyatiga ko`ra, sotsial-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy islohotlarni, biz tanlagan davlat va jamiyat qurilishi modelini tatbiq etish jarayonida fuqorolarning mamlakat boshqaruvidagi rolini oshirib borishni asosiy o`ringa qo`yadigan "Kuchli davlatdan-kuchli fuqarolik jamiyati sari" dasturini amalga oshirish bo`yicha ishlarni yanada faollashtirish masalasini bugun hayotning o`zi kun tartibiga tobora qat`iy qilib qo`ymoqda.

Bu amalda fuqarolik jamiyati institutlarining butun tizimini rivojlantirishni, uning mamlakatni, ma`muriy-xududiy tuzilmalarni boshqarish jarayoniga uyg`un ravishda integratsiyalashuvini anglatadi.[6]

---

[4] I. A. Karimov "Asosiy vazifamiz-Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir" mavzusidagi ma'ruzasidan. T. "Xalq so'zi" 2010 yil.30 yanvar. 3 –bet.

[5] I. A. Karimov.O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining tamoyillari. T. "O'zbekiston, 1995.53-bet.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov; “Men Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidur”, degan fikrini ko`p mushohada qilaman. Buyuk ma`rifatparvarning bu so`zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo`lgan bo`lsa, hozirgi kunda biz uchun ham shunchalik, balki undan ham ko`ra muhim va dolzarbdir”,7 deganida, jamiyat taraqqiyoti uchun milliy tarbiyaning naqadar katta ahamiyatga ega ekanligini ta`kidlagan edi.

Tarbiya hech kechiktirib bo`lmaydigan, bir daqiqa ham surilmaydigan psixologik-pedagogik jihatdan uzluksiz, davomiy jarayondir. Bu jarayonda insonning kelgusi taqdiri, shuningdek inson bilan bevosita bog`liq jamiyat va tuzum taqdiri hal bo`lishi mumkin. Xususan, tarbiyalanganlik bizning mustaqil mamlakatimiz uchun nihoyatda zarur.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov o`zbek halqi ma`naviy me`rosining yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyati xususida so`z yurtib.. “Ulug` bobokalonlarimiz ruhiga bashariyat tarixi va madaniyati xazinasiga katta xissa qo`shgan ulug` ajdodlarimizga, ular qoldirgan ulkan merosga munosib bo`lish istagi jamiyatimiz a`zolari orasida keng yoyilishi, har bir fuqaroning ongida mustahkam joy olishi – bu yangi zamonning yangi xususiyatidir”8 deb uqtiradi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta`lim-tarbiya tizimlari faoliyatini tubdan isloh qilish dolzarb masala ekanligi haqida shunday yozadi: “...Bog`chalardan tortib oliy o`quv yurtlarigacha o`qitishga muhim siyosiy vazifa sifatida qaralmog`i lozim. Bu esa, o`z navbatida darsliklar va o`quv qo`llanmalarni milliy ma`naviyat nuqtai nazaridan yangitdan qarab chiqishni taqozo etadi.” Bu dono fikrni tub mohiyatini tarbiya ishlari maktabgacha ta`lim muassasasidan boshlab rivojlantirilmog`i kerak, degan yo`llanmani tashkil etadi. Zotan, xalqimizda “Sut bilan kirgan jon bilan chiqadi” degan hikmat bor. Prezidentimizning yukoridagi so`zlari mag`zida xuddi shu falsafiy hikmat borki,

---

[6] I. A. Karimov “Mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqorolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir”mavzusidagi ma’ruzasidan. “T. “Xalq so’zi” 2010 yil. 28 yanvar. 3 –bet.

1

7 Barkamol avlod orzusi.T.:SHarq nashriyoti. 1999 y, 3-bet.

8 I.A.Karimov. Ijobiy ishlarimizni oxirigacha etkazaylik, T.: "O’zbekiston" 1994, 8-9 betlar

maktabgacha ta`lim muassasalarini, ayniqsa, ularning tarbiya yo`nalishlarini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tubdan isloh qilish kerak, yangicha, mustaqillik ruxiga monand, milliy tarbiya an`analari asosiga qurilgan yangi pedagogik metodlarni ishlab chiqish kechiktirib bo`lmaydigan dolzarb muammodir. Shu muammolarni fan sohalari buyicha ajratib olib, bir ilmiy tizim va tartibga solish va ularni alohida-alohida tadqiq etish nihoyatda zarurdir. Shuningdek, bu ishlarning ommaviy nashrlarini chop etish, ularni respublikamiz maktabgacha ta`lim muassasalarini tarbiyachi xodimlariga yo`llanma va qo`llanma sifatida o`sha muassasadagi tarbiya jarayonini faollashtirishga samarali xissa qo`shishga yordam beradi. Bu esa tanlangan mavzuni dolzarbligini belgilaydi.

”...hayotimizni yanada sog‘lom va obod qilish, avvalo ayol zotining jamiyatimizdagi o‘rni va nufuzini, ijtimoiy faolligini yanada oshirish, xotin-qizlarning turli jabha va yo‘nalishlarda qilayotgan ishlarini munosib baholash, har qaysi xonadonda uy bekasi bo‘lmish opa-singillarimizning og‘irini yengil qilish asnosida turmushimizni farovon etish bilan uzviy va chambarchas bog‘liqdir. Ana shu haqiqatni amalda qaror toptirish uchun bizning hali qiladigan ko‘p ishlarimiz borligini unutmasligimizni istardim”, - - deydi yurtboshimiz I. A. Karimov.[9]

**Tadqiqotning o’rganilganlik darajasi** Adabiyotlar tahlili, amalga oshirilgan tajriba eksperimental tadqiqot o'quvchilarda milliy g'ururni shakillantirish tarbiyalash bag’ishlangan P.R.Atutov, SL.Bat’nnev, V.P.Bespal’ko, YU.K.Vasil’ev, V.ALolyakov, K.N.Katxanov, YU.S.Tyunnikov, shuningdek, vatandosh olimlar K.D.Davlatov, R.G.Isyanov, O.Magdiev, U.Nishonaliev, A.R.Xodjaboev, YA.Haydarov, N.Sayidahmedov, O’.QLolipov, N.SHSHodiev, O.Hayitov va boshqalarning ishlari muhim ahamiyatga ega.

(X.A. Abduqudusov, P.N. Andriyanov, A.A. Voronin, A.F. Kryuchkov, YU.I. Razdimalin, A.E. Stavrovskiy, N.I. Stetsenko, S.B. Umarov, V.A. CHichkovlarning ilmiy tadqiqot ishlari maktab o’quvchilarining mehnat ta`limi

---

[9] Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta’minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo‘lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir. Xalq so’zi 2012 y/ 8 dek

hamda tarbiyaviy ishlari mazmunini ishlab chiqishga bag’ishlangan. SHuningdek, mehnat ta`limining mazmuni, shakl va metodlari A.I. Vorob’ev, B.Insapov, N.A.Muslimov, e.T.CHoriev, NJSHodiev, K.YUldashev va boshqalarning ishlarida yoritilgan.

Mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi muammolari O.A. Abdulina, N.V. Aleksandrov, I.A. Allayorov, S.I. Arxangel’skiy, YU.K. Babanskiy, S.P.Belozertsov, V.P. Bespal’ko, N.I. Boldireva, K.A. Duysenbaev, T.I.Il’ina, J.G’.Yo’ldoshev, N.V.Kuz’mina, M.Ochilov, F.YUzlikaev, V.K.Rozov, V.A.Slastenin, N.A.Sorokin, A.F.Spirkin, N.F.Talshina, T.To’laganov, A.R.Xodjaboev, A.I.SHerbakov, D.U.Ergashev va boshqalarning ishlarida o’z aksini topgan.

Mutaxassislarni tayyorlash muammolari O.I.Avazboev, P.E.Dzyuba, MV.Zinatulov, P.TMagzumov B.Muranov, SH.S.SHaripov kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

SHuni ta`kidlab o’tish kerakki, pedagogika sohasidagi so’nggi tadqiqotlarda o’qituvchi shaxsini shakllantirishga bag’ishlangan izlanishlar etakchi o’rin tutmoqda. Jumladan, N.A.Muslimov, U.Nishonaliev, O’.Q.Tolipov, SH.S.SHaripovlarlarning ishlarida mehnat va kasb ta`limi o’qituvchilari kasbiy tayyorgarligi masalalari o’rganilgan bo’lsa, N.Azizxo’jaeva, J.G’.Yo’ldoshev, M.Ochilov, T.To’laganovlarning ishlarida bo’lajak o’qituvchining umumpedagogik tayyorgarligi tadqiq etilib, o’qituvchining ma`naviy va metodik tayyorgarligi, kasbiy faoliyatga moslashuvnyng asosiy tarkibiy qismlari sifatida qaralgan. YUqorida zikr etilgan mualliflarning ishlarida ko’p jihatdan kasb-hunarga yo’naltirish muammolarni hal etishni yorqin ifoda etadi.

Bugungi kunda pedagogik kollejlarda ta`lim Kadrlar tayyorlash milliy modelining eng,muhim bo’g’ini sifatida e`tirof etilayotganligi bo’lajak o’qituvchilarni kasb-hunarga yo’naltirishni ta`minlovchi omillarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Ushbu muammoning dolzarbligi, nazariy va amaliy jihatdan etarli darajada ishlab chiqilmaganligi referat mavzuimizni « O'quvchilarda milliy g'ururni  shakillantirish orqali vatanparvarlikni  tarbiyalash» deb nomlashga asos bo’ldi.

**Tadqiqotning maqsadi:** O'quvchilarda milliy g'ururni shakillantirish orqali vatanparvarlikni tarbiyalash ijtimoiy – pedagogik, ma`naviy mohiyati va uni xal etishning tegishli shart-sharoitlarini asoslab berishdan iborat.

**Tadqiqotning ob`ekti:** O'quvchilarda milliy g'ururni shakillantirish orqali vatanparvarlikni tarbiyalash shakllantirish jarayoni.

**Tadqiqotning predmeti:** O'quvchilarda milliy g'ururni shakillantirish orqali vatanparvarlikni tarbiyalashning mazmuni, shakllari, metodlari, vositalari

**Tadqiqotning vazifalari:**

1.O'quvchilarda milliy g'ururni shakillantirish orqali vatanparvarlikni tarbiyalash ning nazariy - metodologik va ijtimoiy moxiyatini asoslash.

2.O'quvchilarda milliy g'ururni shakillantirish orqali vatanparvarlikni tarbiyalash ning yaxlit tizimini ishlab chiqish.

3. Tajriba-sinov asosida O'quvchilarda milliy g'ururni shakillantirish orqali vatanparvarlikni tarbiyalashning samarali yo'llarini aniqlash.

4. O'quvchilarda milliy g'ururni shakillantirish orqali vatanparvarlikni tarbiyalash ning takomillashuviga oid ilmiy - amaliy tavsiyalar ishlab chiqish, uslubiy qo'llanmalar yaratish.

**Tadqiqotning metodlari:**

mavzuga oid adabiyotlarni o'rganish, tahlil etish va umumlashtirish; o'smirlarning shaxsiy hujjatlarini o'rganish; kuzatish; anketa; test; eksperiment; matematik statistika.

**Tadqiqotning metodologik asoslari**:

Milliy g'urur ,vatanparvarlik, milliy g'oya va milliy mafkura asosida ta`limning insonparvar, demokratik tamoyillari negizida shaxs ma`naviyatini erkinlashtirish hamda uning ustivor yo'nalishlarini amalga tatbiq etishga oid nazariy yondashuvlar; O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi; O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning barkamol avlod kamoloti to'g'risidagi ilmiy - nazariy qarashlari; "Ta`lim to'g'risida"gi Qonun; Kadrlar tayyorlash milliy dasturi; Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan dahldor qonunlar; buyuk allomalarning ilmiy - nazariy ta`limotlari.

**Tadqiqotining ilmiy farazi agar:**

-O'quvchilarda milliy g'ururni shakillantirish orqali vatanparvarlikni tarbiyalash ning nazariy - metodologik asosiga ega bo'lsa;

- O'quvchilarda milliy g'ururni shakillantirish orqali vatanparvarlikni tarbiyalashning kasbiy - sharqona ma`naviy - tarbiyaviy asosga ega bulsa;

- O'quvchilarda milliy g'ururni shakillantirish orqali vatanparvarlikni tarbiyalashning ilmiy - amaliy ifodasini topgan bo'lsa;

- O'quvchilarda milliy g'ururni shakillantirish orqali vatanparvarlikni tarbiyalashning axloqiy va kasbiy o'z - o'zini tarbiyalash negizida qurilgan bo'lsa;

- O'quvchilarda milliy g'ururni shakillantirish orqali vatanparvarlikni tarbiyalashning yangicha tafakkur va pedagogik texnologiyalar mohiyatidan kelib chiqqan bo'lsa, o'z samarasini beradi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

- pedagogika fanida ijtimoiy hayot va bozor iqtisodiyoti sharoitida O'quvchilarda milliy g'ururni shakillantirish orqali vatanparvarlikni tarbiyalash ning o'rni aniqlandi;

- O'quvchilarda milliy g'ururni shakillantirish orqali vatanparvarlikni tarbiyalashning ahamiyati va mavqei belgilandi;

- O'quvchilarda milliy g'ururni shakillantirish orqali vatanparvarlikni tarbiyalashning yaxtsht tizimi ishlab chiqildi;

- O'quvchilarda milliy g'ururni shakillantirish orqali vatanparvarlikni tarbiyalashning ijtimoiy mohiyati asoslab berildi.

**Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati:**

- O'quvchilarda milliy g'ururni shakillantirish orqali vatanparvarlikni tarbiyalashning nazariy asoslari tadqiq etildi;

- O'quvchilarda milliy g'ururni shakillantirish orqali vatanparvarlikni tarbiyalashning nazariy mohiyati asoslab berildi;

- jarayonning bosh maqsadi komil inson tarbiyasi ekanligiga asoslangan xolda O'quvchilarda milliy g'ururni shakillantirish orqali vatanparvarlikni tarbiyalash ning samarali mezonlari ahloqiy barkamollik, kasbiy o'z-o'zini tarbiyalash va

zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ijodkorlikni rivojlantirish ekanligi tadqiq etildi.

-muammoga doir metodik tavsiyalar va uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqildi.

**Tadqiqot bosqichlari**. Ilmiy izlanish 2012-2013 yilarlda quydagi uch bosqichda amalga oshirildi:

**1. Asoslovchi tajriba bosqichi (2011-2012 yillarl)**da mavjud holatni o'rlganish, tadqiqot uchun psixologik muammo tanlandi; tadqiqotning maqsadi, vazifalari va ilmiy farazi belgilandi; ishlab chiqiladigan maxsus metodikani sinovdan o'tkazish uchun tajriba maydonlari belgilandi;, nazorat va tajriba guruhlari shakllantirildi.

**2. SHakllantiruvchi tajriba bosqichi (2011-2012 yillar)**da olib borilayotgan amaliy harlakatlar mazmuni, shuningdek, mavjud holati o'rganildi; Bo'lajak pedagoglarda kasbiy o'zlikni anglashni shakillantirishga oid maxsus metodika ishlab chiqildi va amaliyotda sinovdan o'tkazildi.

**3. Tasdiqlovchi tajriba bosqichi (2013-2014 yillar)**da tajriba-sinov etishlarining natijalari o'rganildi va tahlil qilindi; amaliyot uchun tavsiya etilayotgan metodikaning samaradorligi va olingan natijalarlning haqqoniyligini baholash maqsadida matematik-statistik tahlil amalga oshirildi; tadqiqot muammosi bo'yicha to'plangan nazariy ma'lumotlar va tajrliba-sinov ishlarining amaliy natijalari muayyan tizimga solinib, dissertasiya shaklida rasmiylashtirildi.

**Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi**. Ish kirish, asosiy mazmunni yorituvchi uchta bob, umumiy xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar rlo'yxati va ilovalardan tashkil topgan.

# I.BOB O'QUVCHILARDA MILLIY G'URURNI SHAKILLANTIRISH ORQALI VATANPARVARLIKNI TARBIYALASH IJTIMOIY-PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

## 1.1. O'quvchilarda milliy g'ururni shakillantirish orqali vatanparvarlikni tarbiyalashning o`ziga xos xususiyatlari.

Mustaqillik mafkurasi ruhida tarbiyalangan, ma`naviyati yuksak, odobli barkamol insonni tarbiyalash har bir ota-ona, tarbiyachi va jamoatchilikning muqaddas burchidir. Qolaversa pedagogika fani oldida turgan muhim va dolzarb vazifadir. Shu muborak burch va vazifalarni amalga oshirish uchun ko`maklashuvchi bolalarda vatanparvarlikni tarbiyalashni o`ziga xos xususiyatlarini, omillarni izlash, ulardan samarali va o`rinli foydalanish zarur.

Xalqimizda bolaning vatanparvar bo`lishi qadimiy tarbiya an`analariga ko`ra dastlab oilada beriladigan tarbiyada muhim o`rin egallagan. Ilgari ota-onalar buvi va buvalar, mahalla kattalari qolaversa turli tarbiya sohalari bo`yicha mahsus yollangan tarbiyachilar faoliyati asosiy rol` o`ynagan. O’zbekiston Respublikasining rivojlanib borishi mustaqil hayotga qadam tashlayotgan yoshlarning faoliyatida, maqsad sari intilishlarida cheksiz mehnatsevarlik va tirishqoqlik talab etmoqda. Jamiyat xech qachon yoshlarning intilishlariga, hayotda ularning ideallari, qiziqishlari va kelajakdagi orzu-umidlari hamda ularni amalga oshirish yo’llariga befarq qaray olmaydi. Mustaqillik yillarida yoshlarga nisbatan “o’tish davri yoshlari” degan atama ishlatila boshlandi. Xususan, bu davrda yoshlarga nisbatan o’ta talabchanlik bilan qarash va baho berish, yoshlar jismoniy qiyofasidagi ijobiy va salbiy jihatlarni o’tish davri bilan bog’lab tushunish, yoshlar xatti-xarakatidagi xususiyatlarni kattalar (keksa avlod( bilan bog’lash xollari mavjud. O’zbekistonda bozor munosabatlariga o’tish davrida davlat va jamiyat qurilishida, yoshlarning bilimi, ularning jamiyatdagi o’rni, muammolaini o’rganish hamda tahlil etish muhimdir. Tadqiqot davomidagi ilmiy-qiyosiy tahlillar natijalariga ko’ra, o’tish davrida yoshlar ijtimoiy hayotida sodir bo’layotgan o’zgarishlar quyidagilardan iborat:

1. eskicha fikrlash va faoliyat olib borish yukidan xoli bo’lgan yangi yoshlarning voyaga etayotganligi;

2. Ta`lim tizimining barcha bosqichlarida yoshlarga bilim berishning, ma`naviy, axloqiy va kasb malakasi bo’yicha tarbiyalashning mutlaqo yangi tizimi ishlab chiqilayotganligi;

3. Mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotini yanada mustahkamlashda jaxon tajribasining konstruktiv jihatlarini o’zlashtirilayotligi;

4. Yoshlarni ish bilan bandlik va ular mehnatidan unumli foydalanish masalasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish natijasida yoshlarga yangi ish o’rinlarini tashkil etish;

5. Voyaga etib kelayotgan yoshlar to’g’risida o’ylash, ularning ijtimoiy-siyosiy, xuquqiy faolligini oshirish bo’yicha xukumat jiddiy bosh qotirayotganligi va boshqalarni ta`kidlash o’rinlidir.

Yoshlarning hayot tarzi milliy mintalitetga asoslangan va bu oiladagi ijtimoiy munosabatlar ta`sirida yuzaga keladi. Yoshlarning ijtimoiy hayotga bo’lgan qarashlari insonlar bilan o’zaro muloqot ta`sirida yuzaga keladi. Mana shu vaqtda yoshlar ongida siyosiy qarashlar professional qiziqish, ong rivojlanishi va o’zining xulq-atvorida o’zgarishlar ro’y beradi. Bu jarayonlarning negizida yoshlarning jamiyatdagi o’rnining o’zgarishi, ular xuquq va majburiyatlarining ortishi yotadi. Shu bilan birga, bolaning yoshligidan qolgan ayrim qiliqlari uning xarakterida yangi elementlarni keltirib chiqaradi. Hatto ota-ona bolaga qattiq gapirishi, tanbeh berishi yoki yosh bola doim nohaq, kattalar esa doim haq degan g’oyani singdirib qo’yishi ham yoshlar ijtimoiy hayotida o’zgarishlarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham yoshlavrdagi ijtimoiy rivojlanish har doim silliq kechavermaydi. Rivojlanish natijasida yoshlarning kuchi ko’payadi, hayotga qiziqishi ortishi, energiya paydo bo’lishi kuzatiladi[10].

Yoshlarning hayotga intilishilari qanchalik mustaqil va erkin bo’lmasin, baribir ko’p xollarda ular o’sha vaqtning o’zida o’z tengdoshlari va atrofidagi insonlarning fikriga tobe bo’ladi. Yoshlik davrining o’ziga xos xuchuchiyatlari

---

[10] Abdullaeva M. O’tish davri saboqlari. Jamiyat va boshqaruv. Toshkent. 2001 y.

mavjud bo'lib, u yoshlarning o'qishi, bilim olishi, ma`lum kasb tanlash va uni egallash, fuqarolik xuquqlariga ega bo'lish, o'z dunyoqarashini shakllantirib, mustaqillikka erishish, oila qurish va xokozolar bilan tavsiflanadi. Ammo bu maqsadlarga osonlik bilan erishib bo'lmaydi. Sababi, jamiyatni boshqarib turgan katta va o'rta avlod vakillari hayotga kirib kelayotgan yosh avlodni darrov tan olgisi kelmaydi. Bu muammo aslida yoshlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi, ularning tajribasizligi, ijtimoiy-siyosiy jihatdan chiniqmaganligi, nazariy bilim bilan amaliyotning nomutanosibligi, shuningdek, yoshlarga xos sabrsizlik, kalta o'ylash, qiziqqonlik va boshqa belgilar muammoni chigallashtiradi.

Yuqoridagi metodologik tahlillardan kelib chiqib, yoshlarning kayfiyati va xulqi masalalarini o'rganishda ularni tarkibiy qismga ajratish muhim axamiyatga ega.

Yoshlarni ijtimoiy tarkibga ko'ra quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Ziyoli yoshlar (Oliy ta`lim muassasalariva o'rta maxsus kasb-xunar ta`limi talabalari, ijodkor yoshlar va boshqalar);

2. Tadbirkor yoshlar (ishlab chiqaruvchilar, savdogarlar, mayda tadbirkorlar va boshqalar);

3. Davlat boshqaruvi tizimida faoliyat ko'rsatuvchi yoshlar (xarbiylar, davlat organlaridagi xizmatchilar);

4. Ishsiz yoshlar;

5. Kriminallar;

Bu turdagi yoshlar orqali ularning hayot tarzi, ijtimoiy xolatini, ijtimoiy hayotidagi o'zgarishlarning o'ziga xos xususiyatlarini va ijtimoiy muammolarini har tomonlama ochib berish mumkin. Yoshlar – katta avloddan jamiyatni ma`naviy-madaniy ijtimoiy qabul qilib oluvchi, vorisiylik qonuniyatlarini oshiruvchi meros sohibidir. Yoshlar ta`lim, kasb-xunar, mutaxassislik, madaniyat, san`at va boshqa ijtimoiy funktsiyalarni egallashni o'ziga maqsad qilib oladi.

Yoshlar masalasi barcha davrlarda dolzarb mazmun kasb etib kelgan. SHuning uchun, barcha tarixiy davrlarda "zamonaviy yoshlar qiyofasi" ni o'rganish, tahlil qilish va rivojlantirib borish barcha jamiyatlarning oldidagi

dolzarb masalalardan sanalgan. Yoshlar muammolari o'rganilar ekan, yosh avlodning ijtimoiy hayotga kirib kelishi va katta avlod bilim, tajribalariga nisbatan vorislik, kasbiy malaka va aqliy salohiyat, o'zining hayotiy rejalarini shakllantirish, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lish kabi omillar tahlil etiladi.1991 yildan mamlakatda boshlangan yangi iqtisodiy sharoitga o'tish yoshlardan mehnatning yangicha shakllariga o'tishni va katta miqdordagi kuchni talab qilmoqda. SHunday sharoitda iqtisodiy o'sish yoshlavrdan yanada tejamkor, xushyor, sergak, har tomonlama o'ylab fikr yuritishni talab etmoqda.

1991-2008 yillar davomida respublika oliy ta`lim muassasalari va o'rta maxsus kasb-xunar ta`limida taxsil olayotgan yoshlar ijtimoiy hayotida keskin sifatiy o'zgarishlar ro'y berdi. Buning natijasida oliy ta`lim muassasalari va o'rta maxsus kasb-xunar ta`limi talabalari, ijodkor yoshlar o'z kuch va bilimlariga suyanib jamiyatda o'z o'rinlariga ega bo'lib bormoqdalar. Yoshlarni tarbiyalash birinchi oiladagi vazifa bo'lsa, keyingi o'rinda mahallada, maktabda, oliy va o'rta maxsus ta`lim tizimida, jamoada, jamiyatda keng jamoatchilikning ham yuksak burchi sanaladi.

Respublika miqyosida iqtidorli, iste`dodli yoshlarga ijod namunalarini chop etish, ko'rgazmalarini tashkil etish, turli tanlov va musobaqalarda qatnashishda tashkiliy hamda moliyaviy yordamlar ko'rsatildi. Jumladan, 1991-2000 yillarda turli tanlov va musobaqalarda qatnashgan yoshlarga davlat tomonidan tashkiliy hamda moliyaviy yordamlar ko'rsatildi.

Ishsiz, bekorchi yoshlar jamiyatdagi eng og'riqli nuqta bo'lib, o'tish davrida ulardagi muammoli xolat dolzarb masala hisoblanadi. Ayniqsa, 1991-200 yillar orasida beparvo, loqayd yoshlar, bilim olishga va xunar egallashga e`tiborsiz bo'lib vaqtlarini bekorga o'tkazib, turli xil jinoyat yo'llariga kirib ketdilar. Buni kuyidagi sabablar bilan izoxlash mumkin:

Sobiq tuzumdan mustaqil taraqqiyot va yangi jamiyatga o'tish jarayonida tabiiy bir qator sohalarda qiyinchiliklarga duch kelindi. Natijada sabr-qanoati etarli bo'lmagan, engil yo'l bilan katta yutuqlarga erishgan, farovon yashab, ma`lum qiyinchiliklarga duch kelgan ayrim kishilar o'z turmush shaklini yangilash uchun

yo’l axtarib noto’g’ri yo’lga kirib qoldilar. Ayrim nopok kimsalar o’sib kelayotgan yoshlarni ham o’zlarining atroflariga to’plab, noto’g’ri yo’llarga ya`ni, narkobiznes, foxishabozlik va boshqa salbiy xarakatlarga kirishlariga imkoniyat yaratdilar. Buning ustiga ijtimoiy foydali mehnat bilan shug’ullanish o’rniga bir necha irodasi bo’sh va ma`naviyati past yoshlar yakka tartibdagi mehnat bilan shug’ullanish o’rniga engil yo’l bilan boyishni xohlab jinoiy yo’llarga kirib ketdilar;

Ayrim yoshlarning ham ish bilan ta`minlanishi muammo bo’lib, diplomi, ma`lumoti bo’lsa ham, ko’ngildagi ishni topa olmadi yoki kam ish xaqi oladigan joyda ishlashni xohlamadi. Yana engil yo’l axtarib noto’g’ri, yomon, salbiy xaraktlarga qo’shilib qoldi;

Islomga oid bilimlarni yaxshi bilmagan yoshlarning ayrim qismi, islom niqobidagi vaxxobiylik, xizbut-taxrir, akromiylik kabi diniy ekstremistik guruhlar ta`siriga tushib qoldilar. Ma`lum ma`noda daxriylikdan qutuldik deb, dinning eng yaxshi tomonlari bilan, dinni niqob qilib kiygan ekstremistik xarakatlarni ayrim yoshlar ajrata olmay qolib salbiy, yot, begona, zararli g’oyalar va qarashlarga qo’shilib qoldilar;

Oiladagi tarbiyada ayrim yoshlar qarovsiz bo’lib, ota-ona faqat pul topish ilinjida farzandlariga beparvo bo’ladi. Natijada qarovsiz qolgan yoshlar yana o’zi to’g’ri deb bilgan va ko’ngiliga kelgan ishlarni qilib turli ijtimoiy muammolarga duch keldilar.

Ishchi va xizmatchi yoshlar deganda, yoshlarning bandlik xolati respublika mehnat birjalari tomonidan rasmiy ravishda ro’yxatga olingan aholining 16-30 yoshidagi qatlami haqidagi ma`lumotlar asosida tahlil qilinadi. O’zbekistonda 1991-1996 yillar orasida ishsizlar soni 5 foizni tashkil qildi. Buning natijasida mamlakatdagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy tarkibiy o’zgarishlar yoshlardan yangicha “ma`naviy axborot salohiyatini” talab etayotganiga e`tibor qaratiladi. Bu xozirgi tarkibiy va texnologik o’zgarishlarga mos tarzda yoshlarni qayta o’qitish, kasbga tayyorlash, yangi ixtisoslik, kvalifikatsiyalar berishni anglatib, qishloqqa sanoatni

olib kirish, qayta ishlab chiqarish, sanoatini yo’lga qo’yish, xizmat ko’rsatish sohalarini rivojlantirish, qo’shma korxonalar qurishni tokozo etdi.

Shu bilan birga yoshlarni ish bilan ta`minlash muammosini xal etish avvalo ishlab chiqarishning rivojlanishi va yoshlarning yangi ishlab chiqarish jarayonlariga tayyorgarlik xolati kabi omillar bilan bevosita bog’liqdir.

O’zbekistonda voyaga etmaganlar va yoshlarning xuquqlarini ximoya qilish maqsadida tegishli tashkiliy-xuquqiy asoslar, qonuniy negizlar to’la shakllantirildi. Jumladan, O’zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 45-moddasida voyaga etmaganlarning xuquqlari davlat ximoyasida ekanligi mustahkamlangan bo’lsa, uning 64-moddasida, ota-onalar o’z farzandlarini voyaga etgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga aajbur ekanliklari, davlat va jamiyat etim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan maxrum bo’lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o’qitishni ta`minlashi, bolalarga bag’ishlangan xayriya faoliyatlarini rag’batlantirishi belgilangan[11].

Bundan ko’rish mumkinki, yoshlar hayotidagi muammolarning xal etishning turli yo’llari keng jamoatchilik uchun nixoyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Yoshlar ijtimoiy hayotidagi muammolarni xal etishda quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1. Respublika, viloyat, shahar, tuman, korxona, xo’jalik, o’quv yurtlarida tashkil etilgan ma`naviyat-ma`rifat markazlari ishini yanada faollashtirish;

2. Ma`naviyat va ma`rifat sohasida faoliyat ko’rsatadigan xodimlarni tanlash, qayta tarbiyalash ishiga aloxida e`tibor berish;

3. Mehnat birjalari va bandlikka ko’maklashuvchi markazlar ish faoliyatini yanada kuchaytirish;

4. Oila, maktab, mahalla va keng jamoatchilik faoliyatiga alohida e`tibor qaratish, ularni hamkorlikda ish yuritishini ta`minlash zarur;

5. Yoshlarni bo’sh vaqtlarini samarali tashkil etish uchun turli sport to’garaklariga e`tibor qaratish kerak;

---

[11] O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent.: O’zbekiston, 2010 y.

6. Yoshlar xuquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish hamda xuquqbuzarlikni oldini olish uchun turli xil davra suxbatlari, seminar treninglar, ko'rsatuvlarga loxida e`tiborni yanada kuchaytirish kerak.

O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati, birinchidan, millati, irqi, tili, dini, ijtimoiy mavqei, jinsi, ma`lumoti va e`tiqodidan qat`iy nazar yoshlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish; ikkinchidan, yoshlarni xuquqiy va ijtimoiy jihatdan ximoya qilish; uchunchidan, yoshlar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ularning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari doirasida o'z manfaatlarini amalga oshirish yo'llarini erkin tanlab olishlariga kafolat berish; to'rtinchidan, jamiyatni rivojlantirishga, ayniqsa, respublika yoshlari hayotiga oid ijtimoiy siyosat va dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda yoshlarning bevosita ishtirok etishini ta`minlashdan iborat.

O'zbekistonning yangilanishi va rivojlanishida ijtimoiy-siyosiy jarayonlar islohotlar uchun muhim asos bo'lmoqda. O'zbekistonda yangicha dunyoqarashga asoslangan yoshlarning ijtimoiy hayotda zamonaviy bilim va tajribaga ega bo'lishi, mehnat va ma`naviy muhitga xolisona yondoshishi, har bir sohada olib borilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini teran anglab etishga alohida e`tibor berilmoqda. Bu o'rinda O'zbekiston yoshlarining ijtimoiy hayotiga keng sur`atda tezlik bilan kirib kelgan uyali aloqa vositalari, komp'yuter, intenet kabilar "zamonaviy yoshlar" qiyofasini shakllanishiga muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Mamlakat ijtimoiy hayotidagi o'zgarishlar yoshlar dunyoqarashida ham katta o'zgarishlar qilishni talab qiladi. O'zbekistonda barkamol avlodni tarbiyalashda shaxsga mos sifatlarni yoshlarda qaror toptirish asosiy vazifa sifatida turibdi. Prezident I. A. Karimov tomonidan 2000 yilni "Sog'lom avlod yili", 2008 yilni "Yoshlar yili", 2010 yilni "Barkamol avlod yili" deb e`lon qilinishi va davlat dasturi[12]ning qabul qilinishi yosh barkamol avlodga bo'lgan g'amxo'rlikdan nishonadir. Davlat tomonidan bunday e`tiborni qaratilishi yosh barkamol avlodning ijtimoiy muammolarini hal etishga yanada keng imkoniyatlar berdi. Buning natijasida quyidagi vazifalar belgilab olindi:

[12] Barkamol avlod yili Davlat dasturi. 2010 yil 27 yanvar. Toshkent; O'zbekiston, 2010 y

-bolalar va yoshlarning xuquq, manfaatlarini himoya qilishga, ularni barkamol rivojlantirishning xuquqiy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan me`yoriy-xuquqiy bazani takomillashtirish, amaldagi qonunchilik hamda me`yoriy xujjatlarga zamon talablariga mos o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

- yosh avlodni jismonan barkamol etib tarbiyalash, bolalar sportini rivojlantirish sohasida, yoshlarni, ayniqsa, qishloq qizlarini sport bilan muentazam shug'ullanishga keng jalb etish, yangi zamonaviy sport anjomlari va jihozlari bilan ta`minlash, yuqori malakali ustoz va murabbiylar bilan mustahkamlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni izchil kuchaytirish;

- ilm-fanni yanada rivojlantirish, iqtidorli va qobiliyatli yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ularning o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun sharoit yaratishga doir kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish; yosh oilalarga g'amxo'rlik qilish ishlarini kuchaytirish, ularni xuquqiy va ijtimoiy muhofaza qilishni ta`minlash, jismonan hamda har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash borasida jamiyatning muhim bo'g'ini bo'lgan sog'lom va mustahkam oilani shakllantirish uchun zarur shart-o'aroitlarni yaratish;

- yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ularni ichkilikbozlik va giyoxvandlik illatlaridan, boshqa turli halokatli tahdid lar hamda biz uchun yot bo'lgan idiniy-ekstremistik ta`sirlardan, tuban "ommaviy madaniyat" xurujlaridan himoya qilish;

Xulosa qilib ta`kidlaydigan bo'linsa, O'zbekiston Respublikasining yoshlar xuquq va erkinliklarini ta`minlashga qaratilgan qonunchilik tizimi xalqaro xuquqning demokratik tamoyillariga mos kelishi bilan birga, rivojlangan demokratik davlatlarning xuquqni qo'llash amaliyotining ijobiy jihatlarini ham o'zida to'liq ifodalaydi. Respublikada "Kamolot" YOIH yoshlarning manfaatlarini himoya qilish, turli muammolarini echishda ko'maklashish borasida hamkor tashkilotlar bilan bir qator samarali ishlarni amalga oshirmoqda. Jumladan, "Yoshlar va bandlik", "Yoshlar va ishbilarmonlik", "Yoshlar va ma`naviy, ma`rifiy ishlar", "Yoshlar va ekologiya" dasturlari ishlab chiqildi. Ana shu

dasturlar bo'yicha xarakatning viloyat, shahar va tuman bo'limlari hamkor tashkilotlar ko'magidan unumli foydjalangan tarzda bir qator ishlarni amalga oshirdi.

Demak, O'zbekistonda bugun erkin fikrlaydigan, mamlakat taraqqiyotiga o'ziga xos munosib hissa qo'shayotgan yangi barkamol yosh avlod vakillarining ijtimoiy hayotga kirib kelishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonda yoshlarning mavjud muammolari davlat tomonidan amalga oshirilayotgan amaliy ishlarda o'z echimini topib bormoqda. Yoshlar masalasi doimiy e`tiborda bo'lib ular ijtimoiy hayotidagi o'zgarishlarning o'ziga xos xususiyatlari davlat, jamiyat, mahalla, maktab, oila hamkorligida tartibga solib kelinmoqda. Yoshlar iqtidorini rivojlantirish va qobiliyatlarini shakllantirish uchun davlat tomonidan turli xil ko'rik tanlovlar o'tkazilib kelinmoqda. Yoshlarning o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun sharoit yaratishga doir kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqilishi ularga g'amxo'rlik qilish ishlarini kuchaytirish, xuquqiy va ijtimoiy muxofaza qilishni ta`minlash, jismonan va har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalash uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda.

**Vatanparvarlik**

↓

- ota-bobolarimizning muborak nomlariga dog' tushirmaslik,
- vatanga, xalqiga muhabbatli bo'lish,
- vatan tarixi, ma'naviyatini bilib olishga qiziqish, avaylab asrash va boyitish,
- milliy ona tilini boyitish,
- vatan qadriyati va yutuqlarini o'z bilimi va mehnati bilan mustahkamlash.

↓

Vatanparvar – o'z vatani va xalqini cheksiz sevgan, vatan manfaati uchun fidoiylik ko'rsatgan inson

Vatanimizdagi tarixiy yodgorliklar aks ettirilgan minatyuralar, rangli rasmlar va al`bomlar bilan tanishtirish; Vatanni tanish va o`lkashunoslikka oid quyidagi o`yinlarni o`ynashga tavsiya etiladi: “SHahar, shahar”, “SHahar bo`ylab sayohat”, “Bu kimning bayrog`i”, “Toshkentdan mehmon”, “Nima qaerda o`sadi”, “Oila”, “Qovuningni poyla”[13].

Bolalarda mehnatsevarlik, mustaqillik, mehnati natijasidan qoniqish sifatlarini shakllantirish; Bolalarni muntazam ravishda uy-ro`zg`or ishlariga jalb qilish; Qiladigan ishlarini rejalashtirishga, o`z faoliyatini nazorat qilishga, topshirilgan ishlarni sidqidildan va sifatli bajarishga o`rgatiladi.Ajdodlarning bola tarbiyasi xaqidagi mumtoz fikrlari, qonun-qoidari, sharqona tarbiya an`analari, udumlari va tajribalarini o`rganish va ularni amalda tadbiq etish.

## 1.2. O'quvchilarda milliy g'ururni shakillantirish orqali vatanparvarlikni tarbiyalash tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlari

O’zbekistonda demokratik davlat qurish yo’lida yoshlar faoliyatini jonlantirish, yoshlarning siyosiy faolliginit oshirish hamda, xarakatlarini muvofiqlashtirish dolzarb ahamiyatga ega. Chunki, yoshlar jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma`naviy yangilanishning muhim sub`ektlaridan bo’lib, ijtimoiy hayotda ro’y berayotgan rivojlanish va o’zgarishlarga o’zlarining ijobiy ta`sirlarini o’tkazmoqdalar. Yoshlar ijtimoiy taraqqiyotni xarakatga keltirishda muhim rol’ o’ynamoqda. O’zbekistoninng porloq kelajagi qanday bo’lishi yoshlarning ma`naviy-mafkuraviy dunyoqarashiga, ijtimoiy siyosiy, demokratik jarayonlardagi faolligiga bog’liqdir. Prezident I.A. Karimov ta`kidlaganidek, “Bugungi kunda bir oddiy haqiqat barchamiz uchun ayon bo’lishi kerak, oldimizda turgan eng ezgu va farovon hayot ham, O’zbekistonning XXI asrda jahon hamjamiyatidan qanday o’rin egallashi ham, avvalambor, yangi avlod o’nib-o’sib kelayotgan farzandlarimiz qanday insonolar bo’lib etishishiga bog’liqdir”.

[13] Uchinchi mingyillikning bolasi. Tayanch dastur. Me’yoriy xujjat.T.: “Ma’rifat-Madadkor”. 2001y.120-bet

Bu ezgu maqsad yo'lida amalga oshirilayotgan ishlarni izchil va qat`iylik bilan davom ettirish ijtimoiy, siyosiy, demokratik jarayonlarga alohida e`tibor qaratishni toqozo etadi. 1991-2008 yillar davomida milliy davlatchilikni shakllantirish, yangi iqtisodiy munosabatlar hamda xuquqiy tizimning shakllanishida, yoshlar taraqqiyotning hal qiluvchi kuchiga aylandi. O'zbekiston oldiga qo'ygan maqsadlarni amalga oshirishi uchun yoshlarga xos bo'lgan ijtimoiy xususiyatlar, ularning dunyoqarashi, bilim doirasi, mutaxassislik darajasi, ma`naviyati, insoniy fazilatlari jamiyatning umumiy darajasi va taraqqiyotiga o'z ta`sirini o'tkazishi shubxasiz. SHuning uchun ham 1991 yilda "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi Qonun, 1992 yilda "O'zbekiston yoshlarini chet mamlakatlarga o'qishga yuborish to'g'risida"gi Qaror, 1993 yilda "O'zbekistonda ta`lim olayotgan yoshlarni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda, "O'zbekiston Respublikasining yosh mualliflariga eng yaxshi asarlari va ilmiy ishlari uchun Davlat mukofotini topshirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, 1993 yil "O'zbekiston o'quvchi yoshlarini taqdirlash va moddiy rag'batlantirish to'g'risida" hamda "Ijodkor yoshlarning uy-joy sharoitlarini yaxshilash to'g'risida" gi qarorlar, 1995 yilda "Bozor isloxotlari talablarini hisobga olgan holda qishloq yoshlari kasb-xunar ta`limining yo'nalishini o'zgartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori, 1996 yil O'zbekiston Respublikasi yoshlarining "Kamolot" jamg'armasi to'g'risidagi Farmon, 1997 yilda O'zbekiston Respublikasining "Ta`lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", 1997 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining iqtidorli yoshlarning chet elda ta`lim olishlarini qo'llab-quvvatlash "Umid" jamg'armasini tuzish to'g'risida Farmon, 1999 yil Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini hamda 2000 yilda "Nihol" mukofotini ta`sis etilishi, 2000 yilni "Sog'lom avlod yili" deb e`lon qilinishi va Davlat dasturini qabul qilinishi, 2001 yilda O'zbekiston Respublikasi "Kamolot" yoshlar ijtimoiy xarakatinining tashkil etilishi, 2003 yil "O'quvchi va talaba yoshlarni sportga jalb qilishga qaratilgan uzluksiz sport musobaqalari tizimini

tashkil etish to'g'risida" gi Qaror, 2004 yil O'zbekiston Respublikasi Prezidentining istiqbolli yosh pedagogik va ilmiy kadrlar malakasini oshirish "Iste`dod" jamg'armasi Boshqaruvining yangi tarkibini tasdiqlash to'g'risda"gi farmoni, 2007 yil "Yosh oilalarni moddiy va ma`naviy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni, 2008 yilni "Yoshlar yili", 2010 yilni "Barkamol avlod yili" deb e`lon qilinishi va Davlat dasturlarining qabul qilinishi[14] yoshlar siyosatining amal qilish bosqichlarida yoshlar kayfiyatlari, hayotiy maqsadlari, orzu—umidlari, intilishlari va qanday yashashga qiziqishlarini ilmiy o'rganish, ulardan to'g'ri xulosa qilish, yoshlar intilishlarini ijobiy va bunyodkorlik ishlariga yo'naltirishga erishishda muhim ahamiyat kasb etdi.

1991-2000 yillar davomida mamlakatda yoshlarga oid qonunchilik va yoshlar tashkilotlarini shakllantirishga alohida e`tibor berildi. Siyosiy partiyalarning yoshlar bilan ish olib boruvchi yoshlar qanotlari shakllandi. Mamlakatda 2001 yildan boshlab mustaqil yoshlar ijtimoiy xarakati jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida yoshlarning ishtirokini takomillashtirish yo'nalishlariga alohida e`tiborni qaratdi.

1991-2005 yillar davomida mamlakatdagi yoshlar kayfiyatlari va ularning islohotlar jarayonlariga nechog'li tortilganligi, yoshlarning jamiyatdagi o'z o'rnini belgilashga qaratilgan xoxish istaklari nuqtai-nazaridan o'ziga xos ikki turdagi qarama-qarshi vaziyat va xususiyat o'zini yorqin namoyon etdi:

Birinchidan, yangilik va modernizatsiya qilish jarayonlariga kamarbastalik, ular mohiyatini chuqur anglash, isloxotlar maqsad va mazmunini qo'llash, yangi munosabatlarga intilish, izlanish, o'z ijtimoiy ovoziga ega bo'lish uchun xarakat, o'ziga ishonch, o'z salohiyatini jamiyat taraqqiyoti uchun sarflashga tayyorlik, shaxs sifatidagi komillikka intilish, o'z taraqqiyotini jamiyat rivoji bilan bog'lash, bunyodkorlik ishlariga tayyorlik, ochiq nazar bilan qarash va sofko'ngillilik;

Ikkinchidan, yoshlar o'rtasida boqimandalik, befarqlik, boshqaruv tizimlariga ishonchsizlik, barcha narsani men uchun davlat yaratib berishi lozim

---

[14] Rajabov Q., Xasanov F., SHoymardonov I., Tojiboev B. O'zbekiston tarixining muxim sanalari. Toshkent: O'zbekiston, 2010 y.

degan asosga qurilgan kayfiyat, yot g'oyalarga nisbatan subutsizlik, ziddiyatlarga moyillik, o'z ijtimoiy xolatidan norozilik, biron ishga yaroqsizlik, o'z kelajagiga ishonchsizlik, konfliktli vaziyat va xolatlardan chiqib keta olmaslik, mana shunday xolatlarni o'zi yaratish, qonunlarni bilmaslik, bilimsizlik, tushkunlik.

Shu bilan birga, yoshlar o'rtasida ta`lim, mehnat, madaniyat, qonunlarga bo'ysunish, yangi demokratik jamiyat muvozanatiga nisbatan turlicha munosabat hamda qarashlar mavjud bo'ldi. Mazkur vaziyatning murakkabligi ayniqsa, uning qarama-qarshi tomonlari, yoshlar o'rtasida targ'ibot va tashviqot faoliyatini yanada kuchaytirish, uning omma ongiga ta`sirchanligini oshirish lozimligini ko'rsatdi. Buning natijasida yangi metodik texnologiyalarning joriy etilishi, yoshlar ichiga kirib borish usullarining kengaytirili kabi masalalarga alohida e`tibor berildi. Bu o'rinda davlat va nodavlat tashkilotlarining o'rni ham muhim ahamiyat kasb etdi.

1991-2008 yillar davomida yoshlarning ijtimoiy-siyosiy xolatini kuzatish, ayrim yoshlarning siyosiy va xuquqiy ongi pastligini ko'rsatmoqda. Bu o'rinda jamiyatda xuquqiy demokratik davlat qurish uchun avvalo yoshlarning xuquqiy ongini oshirish va siyosiy madaniyatini yuksaltirish kerak. Chunki, ular ham xokimiyat qarorlari qanday qabul qilinishini, ularning ijrosi qanday nazorat qilinayotganini bilishlari, bu qarorlarni tayyorlash va amalga oshirishda faol ishtirok etishlari zarur. Bundan ko'rinadiki, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish vazifalarini hal qilishga yoshlar bevosita yo'naltirilmoqda. Jamiyat yoshlarning siyosiy, xuquqiy ongini yuksaltirish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish bugungi kunda demokratik taraqqiyotning bosh mezoniga aylandi. Bu o'rinda amalga oshirilgan vazifalar asosi barcha yoshlar tafakkurida xuquqiy davlat hamda faol fuqarolik jamiyati g'oyalarini anglash bilan bog'liq. Shuning uchun ham jamiyatdagi demokratik jarayonlar va yoshlar faolligi bir-biri bilan uzviy bog'liq. Bunda yoshlarning ta`lim-tarbiyasi ongi, dunyoqarashi, tafakkuri hal qiluvchi vosita sifatida xizmat qiladi.

1991-2008 yillar davomida O'zbekistonda amalga oshirilgan islohotlarning ijobiy natijasi ko'p jihatdan davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning

tamomila yangicha pog'onaga ko'tarilishi bilan bog'liq bo'lib qoldi[15]. Ushbu vazifa amalga oshirilishining asosida esa, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish yotadi. Ular siyosiy-xuquqiy ong darajasining yuksalib borishi esa Konstitutsiya va boshqa qonunlarni hurmat qilish, jamiyat barqarorligi uchun mas`uliyatni doimo his qilib turish kabi jihatlar bilan izohlanadi. Yoshlarning siyosiy-xuquqiy ongi yuksalgan sari ular ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga tobora yaqin kirib boradilar va jamiyat boshqaruvida ishtirok etadilar. Hozirda O'zbekiston oldida turgan asosiy dolzarb vazifa yoshlarning jamiyat boshqaruvida faol ishtirokini ta`minlashdir. Shuning uchun ham Prezident I.A.Karimov "Bir narsani yaxshilab anglab olish kerakki, umumiy va maxsus bilimga ega, ongli, zamonaviy dunyoqarash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga voris bo'lgan insonlargina fuqarolik jamiyatini barpo etishga va uni yanada takomillashtirishga qodir bo'ladi[16]"-deb ta`kidlaydi.

Demak, yoshlarga katta ishonch bildirib, ularni rag'batlantirish, ruhlantirish ham katta samara beradi. O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotida yoshlar ishtirokini takomillashtirish va ijtimoiy faolligini oshirishda ommaviy axborot vositalarining roli ham juda kattadir. Bu o'rinda radio, televideniya, internet, telefon, ilmiy-ommabop jurnal va gazetalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. 1991-2008 yillar davomida yoshlar ijtimoiy hayotiga tezlik bilan kirib kelgan uyali aloqa telefonlari, internet kabilar yosh avlod dunyoqarashini yanada kengaytiradi. SHu o'rinda O'zbekiston televideniyasi va radiosida tashkil etilgan "Yoshlar" kanali bu yo'nalishdagi ishlarning eng yuqori bosqichi hisoblanadi. Bu kanalda yoshlarni o'qishlari, ijodiy izlanishlari, dam olishlari va butun faoliyatlari haqida baxs yuritiladi. Jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotiga taaluqli taklif va istaklar o'rtaga tashlanib, muhokama qilinadi.

Shuningdek, aholining asosiy qismini tashkil etadigan yoshlarning xali to'la echilmagan muammolariga e`tiborni jalb etish, ularni hayotda xaqiqatdan ham xal qiluvchi kuchga aylantirish masalasi jamoatchilikning diqqat markazida turishi

---

[15] O'zR "Kamolot" YoIH JA. "Kamolot" YoIHning 2008 yil davomidagi faoliyati to'g'risidagi hisoboti
[16] Karimov. I.A. Umidli yoshlar. Toshkent: Akademiya, 1999 y

shart. Demak, yoshlarning jamoat ishlarida qatnashishi asosiga qurilgan ijtimoiy faolligi, ularni teng xuquqli sub`ekt bo'la olish qobiliyati va istagini rivojlantiradi. Ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda yoshlarning ishtiroki jamiyatning boshqa qatlamlari, guruhlari bilan birgalikda amalga oshib boradi. Yoshlarni asosiy vazifalaridan biri, siyosiy-xuquqiy ongni shakllanishida muhim o'rin tutgan Konstitutsiya va qonunlarni yaxshi bilishdir. Qonun va qoidalarni bilish, ularga rioya qilish yoshlarning ijtimoiy ong darajasini ko'rsatadi. Yoshlar shunday mas`uliyatli vazifalarni bajarish uchun asosan tarix, siyosatshunoslik, sotsiologiya, psixologiya, xuquq sohasidagi bilimlarni puxta egallashlari va yangiliklardan bohabar bo'lishlari kerak.

O'zbekistonda 1991-2008 yillar davomida qabul qilingan amaldagi qonun xujjatlarida yoshlar xuquqlari, manfaatlari va erkinliklari tizimi to'la shakllantirildi. Har biri qonun, farmon va qarorlar olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar, yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari va dasturlarining mazmun-mohiyatiga mosligi nuqtai-nazaridan 2008 yilda tanqidiy tahlil qilindi[17]. Bunda qaysi qonun xujatlari takomillashtirishni taqozo etadi va yana qanday yangi xuquqiy xujjatlar qabul qilinishi lozimligiga alohida e`tibor qaratildi. Ayniqsa, yoshlarning dolzarb zamonaviy extiyoj va manfaatlarini hisobga olgan holda sog'liqni saqlash, mehnat, ijtimoiy ta`minot, ta`lim sohalariga oid qonun xujjatlarini yanada takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Mamlakatda 1991-2008 yillar davomida yoshlar manfaatlari va xuquqlariga daxldor bo'lgan 130 dan ortiq normativ-xuquqiy xujjatlar ishlab chiqildi[18].

Yoshlar manfaatlari va xuquqlariga daxldor bo'lgan xalqaro-xuquqiy xujjatlar va xorijiy mamlakatlar qonunchiligi qiyosiy tahlil qilinib, amaldagi qonun xujjatlarini takomillashtirish bo'yicha xujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflarda yoshlarning ijtimoiy ta`minoti va mehnat qilish xuquqini ta`minlash masalalariga jiddiy e`tibor qaratildi.

---

[17] O'zR "Kamolot" YOIH JA. "Kamolot" YOIHning 2008 yil davomidagi faoliyati to'g'risidagi hisoboti
[18] O'zR "Kamolot" YOIH JA. "Kamolot" YOIHning 2008 yil davomidagi faoliyati to'g'risidagi hisoboti

Fikrimizcha, bu takliflar yoshlarning olgan bilimi va kasbini amaliy hayotda namoyon etishi, o’quv yurtini bitirib chiqayotgan yoshlarning hayotda mustahkam o’rin egallashi uchun yanada keng imkoniyatlar yaratadi. Shuningdek, ularning bilim olish xuquqi, kasb malakasini oshirish, sport turlari bilan shug’ullanish va boshqa bir qator xuquq-erkinliklarini ta`minlashga hamda qonuniy manfaatlarini ximoya qilishga qaratilgan tegishli qonun xujjatlarini takomillashtirish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yoshlarning siyosiy xuquqiy bilim va dunyoqarashini kengaytirish, chetdan bo’layotgan turli mafkuraviy tahdidlarga munosib javob bera oladigan ma`naviy barkamol avlodni tarbiyalash dolzarb ahamiyatga ega.

Jamiyatda tub o’zgarishlar ro’y berayotgan xozirgi sharoitda O’zbekiston yoshlari ijtimoiy-siyosiy hayotida ularning ishtirokini takomillashtirish yo’nalishlari va istiqbollariga alohida e`tibor berilmoqda. Jumladan, “Ijtimoiy fikr” jamoatchilik fikrini o’rganish markazi 2008 yil “Yoshlar yili” yakunlari bo’yicha sotsiologik so’rov o’tkazdi. So’rov natijalariga ko’ra, yoshlar Prezident I.A. Karimov tomonidan o’zlariga ko’rsatilayotgan g’amxo’rlikni va yosh avlodning barkamol bo’lib voyaga etishi, o’z iste`dodini namoyon etishi, Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiya topishi uchun qulay shart-sharoit yaratishga qaratilgan chora-tadbirlarni yuksak qadrlaydilar. O’zbekiston yoshlarining faol hayotiy qarashlari yuqori darajada ekani, o’z mamlakatiga foyda keltirish uchun munosib bilim va kasb egallashga intilayotgani aniqlandi. Yigit-qizlarning 73,3 foizi uchun bu hayotiy qadriyat ekanini ta`kidlagan. Ayniqsa, ularning yarmidan ko’pini egallagan kasbi, ish xaqi va mehnat sharoitlari qanoatlantiradi. Har ikki nafardan biri o’z ishida xizmat pillapoyalaridan ko’tarilishga intiladi.

Umuman olganda, ijtimoiy so’rov O’zbekistonning shahar va qishloqlaridagi barcha yoshlarning ijtimoiy faollik darajasi yuqoriligi hamda ruhi ko’tarinki ekanidan dalolat beradi. Yoshlar davlat tomonidan o’zlariga berilgan imkoniyatni yuqori baholashi va undan O’zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy islohotlar jarayonida yanada faol ishtirok etish uchun foydalanish niyatida

ekanini ko'rsatdi. Bu o'rinda o'z oldimizga qo'ygan yuksak maqsadlarni, barcha ezgu orzu-niyatlarni amalga oshirishda avvalambor, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan, mamlakatni modernizatsiya qilish va zamonaviy demokratik jamiyat qurish yo'lida murakkab vazifalarni hal etishga qodir bo'lgan yangi avlod kadrlarni tayyorlash masalasi muhim hal qiluvchi darajada turibdi. Mana shu o'ta muhim vazifalarni amalga oshirish, bu masalaga davlat va jamiyat, keng jamoatchilik e`tiborini jalb etish maqsadida O'zbekistonda yoshlar extiyojlari va manfaatlarini har tomonlama ijtimoiy-xuquqiy kafolatlariga qaratilgan Davlat dasturlari ishlab chiqildi.

1991-2008 yillar davomida O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotida yoshlar ishtirokini takomillashtirish uchun o'ziga xos bo'lgan yoshlar jamoat tashkilotlari tizimi yaratildi. Bu davrda yoshlar jamoat tashkilotlari tizimi respublika viloyatlarida ham faol ish olib bordi. Jumladan, "Umid", "Fidoyi yoshlar klubi", "Bunyodkor yoshlar" teleklubi, "Iste`dod", "Ilxom" yoshlar jamoatchilik markazlari, Yoshlarning ijod markazlari, "Kelajak bunyodkorlari", "Istiqlol kelajagi", "Yosh vatanparvarlar" kabi tashkilotlar mustaqillik yillarida yoshlar bilan ishlashni o'z maqsadiga aylantirdi.

Modernizatsiya va liberallashtirish jarayonlaridan kelib chiqqan holda, O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotida yoshlar ishtirokini takomillashtirish uchun o'ziga xos bo'lgan quyidagi istiqbolli rivojlanish yo'nalishlarini belgilab berish mumkin:

-ijtimoiy himoyaga muxtoj yoshlar qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, bu vazifani davlatning ustuvor vazifalaridan biri sifatida qabul qilish, Davlat tomonidan birlamchi yordamga muxtoj qatlam sifatida bolalar, yoshlar va talabalarni alohida ta`minlash;

-yoshlarning jamiyat taraqqiyotidagi faoliyatlariga yo'l ochish va uni ta`minlash uchun ularning o'zlaridagi faollik, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy isloxotlar jarayonlariga qamarbastalik, islohotlarga ishonch fazilatlarini tarbiyalash;

-yoshlardagi faollik, kuch va qudrat, yoshlik salohiyatining islohotlarjarayoniga tortilishini ta`minlash uchun “byurokratiya, korruptsiya, maxalliychilik, urug’-aymoqchilik” kayfiyatlaridan jamiyatni muntazam tozalab borish;

-yoshlarning yangilikka intilishi, tashabbuskorligi, erkin bozor iqtisodiyotiga tez ko’nikishi, yangi yo’nalishlarni qo’llab-quvvatlash, yoshlar tashabbuslarining “cho’kib” qolishiga yo’l qo’ymaslik;

-yoshlarni o’z vatani va oilasining vatanparvarlariga aylantirish, insonparvarlikni hayot tamoyiliga, mamlakat rivoji uchun qayg’urishni fuqarolik mezoniga aylantirishga erishish, sog’lom avlod tarbiyalash faoliyatini qo’llab-quvvatlash va barcha zarur imkoniyatlarni yaratish;

-mamlakat milliy tiklanish va taraqqiyotidan eng birinchi naf oluvchi ijtimoiy qatlam sifatida yoshlarni tan olish, modernizatsiya va liberallashtirish jarayonida islohotlarni amalga oshiruvchilar sifatida ulardan keng foydalanish, yoshlar tadbirkorligiga yanada keng imkoniyatlar yaratish:

-yoshlar intellektual salohiyatini dunyo mamlakatlari darajasida muntazam bo’lishiga erishish, mamlakat iqtisodiyoti rivojini yoshlar intelektual zahiralari bilan uzviy bog’lash va foydalanishga erishish;

-yoshlar o’rtasida siyosiy-xuquqiy ong va tafakkur tamoyillarini keng singdirish, ularning o’z tarixini bilishi bilim va ko’nikmalarga ega bo’lishlari uchun tabiiy rivojlanish tizimlarini yaratish hamda unumli foydalanish.

Demak, mustaqillik yoshlarga tashabbuskorlik imkoniyatlarini keng yaratib berdi. Yosh avlodni boshlangan ezgu ishlarining davomchisi sifatida har tomonlama qo’llab-quvvatlash va ularga hayotda to’g’ri yo’l ko’rsatishdan iborat. Inson-demokratik jamiyatning oliy qadriyati bo’lsa, yoshlar uning istiqbolli zahira boyligi hisoblanadi. O’zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotida yoshlarning ishtirokini takomillashtirish yo’nalishlari va istiqbollari ularning jamiyatdagi o’rni, mavqei, doim yangilikka intilishi va xarakatda ekanligi bilan ajralib turadi. Jamiyat hayotiga kirib kelayotgan har bir yangilikni yoshlar tezda o’zlashtirib oladilar. Chunki, yoshlar qiziquvchan, turli yangi loyixalar va takliflarga boy bo’lib, bu

loyihalarni barchasi jamiyat hayoti bilan bog’liq. Bu loyixa va tashabbuslarni amalga oshirish jamiyat hamda davlat oldidagi mas`uliyatli vazifa hisoblanadi. O’zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotida yoshlarning ishtirokini takomillashtirishda yoshlar tashkilotlarini nufuzini yanada oshirish talab etiladi. Qolaversa, mahalliy davlat organlari, fuqarolarni o’zini o’zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, nodavlat-notijorat tashkilotlar, mahalla, maktab, oila hamkorligini yanada kuchaytirish lozim.

Shu bilan birga O’zbekistonda har bir yosh fuqaro birinchidan, o’z haq-xuquqini taniydigan bo’lishi va buning uchun kurashadigan faol bo’lishi kerak;

ikkinchidan, o’z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan bo’lsin hamda imkoniyatlarini ishga solib, samarasini ko’rsin;

uchinchidan, atrofida sodir bo’layotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat va fikr bildira olsin;

to’rtinchidan, shaxsiy manfaatini mamlakat va xalq manfaati bilan uyg’un holda ko’rib, faoliyat yuritsin.

Demak, O’zbekistonda bugun yangicha fikrlaydigan, o’z kelajagini o’zi yaratishga xarakat qilayotgan jamiyatda demokratik qadriyatlarni mustahkamlash bilan, davlatning taraqqiyotiga o’ziga xos munosib hissa qo’shayotgan yangi avlod vakillarining ijtimoiy hayotga kirib kelishimuhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida ham yoshlar asosiy etakchi kuch bo’lib, ular iqtisodiy-madaniy taraqqiyotda muhim rol’ o’ynamoqda.

## 1.3. O'quvchilarda milliy g'ururni shakillantirish orqali va tanparvarlikni tarbiyalash tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlari

Mamlakatimiz maktab, litsey, kollej o’quvchilari, oliy ta`lim muassasalarining axborotga bo’lgan extiyojlarini har tomonlama qondirish, shuningdek, milliy segmentdagi Internet tarmog’ida yoshlarning ta`lim va ilmiy ma`lumotlar zaxirasini rivojlantirish maqsadida ularni virtual makonda birlashtiradigan “Ziyo.Net” tarmog’i yaratildi. “Ziyo.Net” tarmog’ining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Yoshlarda Vatan ravnaqi g’oyasini shakllantirish;
- Yoshlarda vatan tarbiyasini yanada takomillashtirishga qaratilgan milliy axborot zahiralarini shakllantirish va rivojlantirish;
- O’sib kelayotgan avlodda O’zbekistonning boy tarixi, milliy urf-odatlari va xalqning ma`naviy qadriyatlari asosida Vatanga bo’lgan muhabbatni, yuksak ma`naviy-ma`rifiy xususiyatlarni mustahkamlash;
- Faol hayotiy pozitsiyaga ega bo’lgan komil insonni shakllantirish;
- O’zbekistonning milliy qiziqishlarini e`tiborga olgan holda foydalanuvchilarning keg ommasiga yoshlarni ma`naviy va intellektual rivojlanishiga o’z hissasini qo’shuvchi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, tahliliy, ma`naviy, ma`rifiy, ilmiy va boshqa axborotlarga kirishini ta`minlash;
- Yoshlar o’rtasida sog’lom hayot tarzini targ’ib qilish va sportning turli xil turlarini ommalashtirish;
- Respublikasi yoshlari va o’quvchilarini uchun boshqa axborot-kommunikatsion xizmatlarning keng jamlanmasini, ta`lim tizimiga masofaviy o’qitish uslublarini kiritishda ko’maklashish.

Oliy va o’rta maxsus ta`lim vazirligi tomonidan “Ziyo.Net” tarmog’iga ulanish, uni axborot-ta`lim resurslari bilan boyitish va rivojlantirish bo’yicha maxsus dastur

ishlab chiqildi. Barcha Oliy ta`lim muassasalarning veb-saytlarini, elektron zahiralarini yaratish va ularni joylashtirish bo’yicha muhim vazifalar belgilandi. Demak, yoshlar-aholining ijtimoiy jihatdan eng faol qatlami bo’lib, ta`lim jarayonidan chetda qolsalar “ishlov”ga oson beriladilar va ulardan siyosiy maqsadlarda foydalanish imkoniyati yuzaga kelishi tabiiy. ekstremistik va turli diniy sektalar qurbonlari asosan ma`naviyati past yoshlar ekani barchaga ma`lum. Ta`lim va ilmiy izlanishlarning taraqqiy ettirilishi kelajakda ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatish (moliya tizimi, logistika, konsalting)ning ortib borishi natijasida o’zini to’la oqlaydi. Chunki aholining katta qismi yoshlar bo’lgani, mamlakatda ulkan mehnat resurslari mavjudligini ko’rsatadi. Ularning ish bilan ta`minlanishi iqtisodiyot taraqqiyotiga ijobiy ta`sir qiladi, aks holda ishsizlikdan kelib chiqadigan ijtimoiy muammolardan qochib qutulish amri maholdir.

Prezident I.A. Karimov “Yuksak ma`naviyat-engilmas kuch” nomli asarida “Ta`limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta`limdan ajratib bo’lmadi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi”[19]-deb, demokratik o’zgarishlarni millat hayotiga samarali tatbiq etish uchun ta`lim tizimini isloh qilish ustuvor vazifalardan biri ekanligini ko’rsatib berdi. Shu sababli ta`limning sifatini oshirishga intilish, integratsiyalashayotgan mintaqalar uchun ta`lim dasturlari va andozalarini bir xillashtirish, “butun umr mobaynida uzluksiz ta`lim” tizimini amalga oshirish muhim omilga aylanmoqda.

Mustaqillik yillarida O’zbekistonda ta`lim-tarbiyaga davlat tomonidan alohida e`tibor qaratilib, uzluksiz ta`limni yo’lga qo’yish, soha rivojini ta`minlaydigan isloxotlarni amalga oshirish yuzasidan qator tadbirlar ishlab chiqildi. O’zbekiston Respublikasida ta`lim sifatini oshirish, rivojlantirish va isloh etishga yo’naltirilayotgan yillik xarajatlar yalpi ichki mahsulotning 10-12 foizini tashkil etayotgani va bu tizimning Davlat byujeti xarajatlaridaga ulushi 35 foizdan ortiqni tashkil etishi o’z-o’zidan mazkur sohaga qaratilayotgan ulkan e`tiborning yaqqol tasdig’idir. Mamlakatda kadrlar tayyorlash sohasida hamkorlikning xalqaro-xuquqiy bazasi takomillashtirilmoqda, qo’shma ta`lim tuzilmalari rivojlantirilib

[19] Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat-engilmas kuch. Toshkent. Ma`naviyat, 2008 y.

kadrlar almashish keng tus olmoqda. Xususan so'nggi yillarda Buyuk Britaniyaning Xalqaro Vesminstr universiteti, I.M. Gubkin nomidagi politexnika universiteti, V. Lomonosov nomidagi Moskva Davlat universiteti, V.G. Plexanov nomidagi Rosiiya iqtisodiyot akademiyasi, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, Italiyaning Turin politexnika institutining Toshkentdagi filiallarini tashkil qilinishi, ta`lim davlatlar o'rtasida o'zaro aloqa  va hamkorlikni mustahkamlashning muhim omillaridan biri ekanligini anglatdi.

Demak, ta`lim sohasida milliy siyosatning belgilangan vazifalari va maqsadlarga erishishining asosiy vositasi 1997-2009 yillarda kadrlar tayyorlash Milliy dasturi va 2004-2009 yillarda maktab ta`limini rivojlantirish Milliy dasturini amalga oshirish ishlari bilan yakunlandi. Ta`lim tizimini modernizatsiyalash, demokratiyalash, komp'yuterlashtirish toboro kuchayib bormoqda. Ta`limni fundamentallashtirish, ma`naviy mas`ul shaxsni shakllantirish, bilishni emas, balki fikrlashni o'rgatish zarurligi yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

Ushbu bobda o'quvchilarda Vatan ravnaqi g'oyasini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari, amaliy, amaliy ish tajribalari, uning natijalari ko'rsatilgan, o'rta maxsus kasb-xunar ta`limi muassasalarining o'quvchilari uchun tuzilgan so'rovnoma savollariga olingan javoblar nazariy jixatdan tahlil etilgan. Bundan tashqari, bitiruv malakaviy ishning natijalari asosida o'rta maxsus kasb-xunar ta`limimuassasalari o'quvchilarida Vatan ravnaqi g'oyasini shakillantirishda "Vatan ravnaqi g'oyasi –millat taraqqiyoti" dasturi yaratilgan. Dasturda "Vatan ravnaqi g'oyasi-millat taraqqiyoti", "O'zekiston istiqloli va istiqboli", "Vatan ravnaqi  g'oyasi-xalqnang, millatning byuk kelajagidir", "Ma'naviy va axloqiy qadriyatlar-Vatan ravnaqi g'oyasining asosi", "Yoshlar va Vatan ravnaqi g'oyasi", "Islom ta'limoti asosida Vatan ravnaqi g'oyasini rivojlantirish", "Milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida Vatan ravnaqi g'oyasini shakllantirish", "Vatan ravnaqi g'oyasi asosida ta'lim mazmunini takomillashtirish", "O'rta maxsus kasb-xunar ta`limimuassasalari, oila, mahalla hamkorligi asosida talaba- yoshlarda Vatan ravnaqi g'oyasini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari" kabi mavzular o'z ifodasini topgan.

Ushbu bobda o’rta maxsus kasb-xunar ta`limi muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayonida o’quvchilarda Vatan ravnaqi g’oyasini shakllantirish tizimini amalga oshirish omillari ko’rsatilib, uning mezonlari belgilangan. Mezonlarni belgilashda O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning mustaqillik yillaridagi Vatan ravnaqi g’ayalari, milliy istiqlol g’oyasi,“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, mustaqil O’zbekistonni rivojlantirishning ma’naviy-axloqiy negizlari va uning ma’naviy yo’nalishlari, o’quvchilarning aqliy imkoniyatlari, ularga qo’yiladigan ta’lim- tarbiyaviy o’quvchilar hisobga olindi. “Davlat va jamiyat istiqboli uchun kurashga tayyor bo’lish”, “Komil insonni voyaga etkazish”, “Ma’naviy merosga xurmat bilan munosabatda bo’lish”, “Vatan tarixini o’rganishga muhabbat”, “Vatanga sadoqat”, “Vatanning ijtimoiy va madaniy yutuqlari bilan g’ururlanish”, “Jamiyat quvonchi va tashvishlarini his etish”, “O’z turar joyiga(qishloq, shaxar, viloyat, respublika) muxabbat”, “Yurt tinchligi va farovonligi uchun mexnat qilish”, “Millatlararo totuvlikni mustaxkamlashga hissa qo’shish”, “Ijtimoiy-siyosiy faoliyatda faol ishtirok eish” kabi mezonlar asosida o’quvchilarda Vatan ravnaqi g’oyasini shakllantirish yuzasidan o’quvchilarning bilim darajalari aniqlandi.
Vatan ravnaqi, Vatan, vatanparvarlik, mustaqillik, istiqlol mavzulariga bag’ishlangan ma’ruzalar, suxbatlar uyushtirish xamda “Men Vatan uchun nima qildim ?”, “Vatan”, “Vatan ostonadan boshlanadi” kabi mavzularda tarbiyaviy tadbirlar metodikasi ishlab chiqildi va ular amaliyotga joriy etildi. Ishlab chiqilgan mezonlar mezonlar asosida o’quvchilarda Vatan ravnaqiga oid ijtimoiy voqea-xodisalarni bilishga bo’lgan etiyoj xar qanday vaziyatda Vatanni ximoya qilishga tayyor bo’lish, Vatan va jamiyat taraqqiyoti uchun kurashish; kuch g’ayratini Vatan ravnaqini uchun safarbar etish, Vatanni anglashga xarakat qilish va uning natijalari bilan qiziqish; Vatanning gullab yashnashi uchun chin vijdon, yuksak burj va mas’uliyat kabi xis-tuyg’ularni shakllantirish kabi xususiyatlar kamol topgan.
O’tkazilgan tajribalar taxlili shuni ko’rsatadiki, o’rta maxsus kasb-xunar ta`limimuassasalari o’quvchilarida Vatan ravnaqi g’oyasini shakllantirish

natijasida ularning adolatli, insonparvar, huquqiy demokratik davlatning moxiyatini chuqur tushunib etishlari isbotlangan. O'quvchilarda bilim olishga bo'lgan ishtiyoq kuchayib, mustaqil ishlarga intilish ortgan.

## Birinchi bob bo'yicha xulosalar

O'quvchilarda Vatan ravnaqi g'ayasini shakllantirishda milliy tariximiz, xalq an'analari va urf-odatlardan keng foydalanish orqali ularning tadbirlarda faol ishtirok etishiga erishildi.

Vatan ravnaqi g'oyasi mazmun-moxiyati targ'iboti bo'yicha tashkil qilingan maxsus kurslarda buyuk allomalarning Vatan ravnaqi bilan bog'liq asarlari mazmunida ilgari surilgan g'oyalar asosida “Kamolot” YO.I.H bilan tadbirlar amalga oshirilib, “Balli, yigitlar” ko'rik tanlovi, she'riyat mulkining sultoni Alisher Navoiyning 566 yilligiga bag'ishlangan navoiyxonlik kechasi, “Universiada-2007” sport musobaqalari, “Sanamlar sarvari”, “Navro'z –umumxalq bayrami” tadbirlari o'tkazilgan; o'quvchilarda Vatan ravnaqi g'oyasining shakllanganlik darajasi aniqlangan va ilg'or ish tajribalari ommalashtirilgan; Vatan ravnaqi g'oyasini shakllantirish tajribasini takomillashtirishning nazariy, uslubiy, amaliy yo'nalishlari tavsiya qilingan.

# II Bob. O'quvchilarda milliy g'ururni shakillantirish orqali vatanparvarlikni tarbiyalashning pedagogik shart – sharoitlari

## 1.1. O’zbek xalq pedagogikasida Vatan ravnaqi g’oyasining ifodalanishi

Ildizlari uzoq kechmishga borib taqaluvchi ma`no-mantiqi asosli, qamrovi keng va boy o’zbek xalq pedagogikasi Mustaqillik mafkurasini shakllantirish va hayotga joriy qilishda muhim manbalardan biri bo’lib hizmat qiladi.

O’zbek xalq pedagogikasi an`analari-bevosita ijtimoiy hayot, insonlarning o’zaro aloqa va munosabatlari shuningdek boy xalq og’zaki ijodiyoti, xalq tafakkuri, shuuri va dunyoqarashi ila bog’liqligi bilan milliy va umumbashariy ahamiyatga molikdir.

O’zbek xalq pedagogikasining yashovchanligi avloddan-avlodga o’tib kelishining boisi uning hayotiyligi uzoq davrlar va kishilar axloqiy, ma`naviy, ma`rifiy, madaniy, ruhiy talab extiyojlariga javob bo’lishidir. Ayni chog’da uning milliy xususiyatlari kuchli bo’lishi bilan bir qatorda umumbashariy fazilatlariga bog’liqligidir. Shu bois o’zbek xalq pedagogikasining qirralari-Vatanimizning yurtsevarlik, bolajonlik, to’rt unsur-er, suv, olov, havoga bo’lgan o’ta mehr-muhabbat, ixlos-e`tiqod, shuningdek boshqa rang-barang insoniy fazilatlarda ko’zga tashlanadi. Bu hol axloqiy, ma`naviy va jismoniy tarbiyada o’z ta`sir kuchini yo’qotmay kelmoqda. Birgina yurt va yurtsevarlik odobini olaylik:

- Xalqimizdagi Vatan ravnaqi g’oyasi juda kuchli bo’lib, u millatimizning o’ziga xos fe`l-atvori, dunyoqarashi bilan bevosita bog’liqdir.
- Xalq tasavvurida har bir inson uchun yurtga mehr-muhabbat, sadoqat va fidoyilik nihoyatda ustivordir.
- Vatanni sevish, unga sadoqat o’zbek xalqida kindik qoni to’kilgan muqaddas erdan boshlanadi. Demak, Vatanni sevish, uni qadrlash, e`zozlash shu go’shaga o’z uyi, qo’ni-qo’shnisi, mahalla-ko’yi, qishloq ovuli, xududga chambarchas bog’liqdir.

– Yurtsevarlik o’zbek xalqi chuqur e`tiqodiga aylangan. Bu tuyg’u or-nomus, vijdon, e`tiqod bilan chambarchas bog’liqdir. O’zbek xalq og’zaki ijodidagi:

“O’zga yurtda podsho bo’lguncha, o’z yurtingda gado bo’lganing yaxshi”

“Bulbul chamanni sevadi, Odam Vatanni” kabi maqollar, xikmatlarda shuningdek, o’zbek xalq an`anaviy pedagogikasida yurtga bo’lgan muhabbat, xalq og’zaki ijodi bilan bog’liq ravishda talqin etiluvchi xalq ertak, doston, rivoyatlarida” “Alpomish”, “Go’ro’g’li”, “Rustamxon” va boshqa o’zbek turkumiy an`anaviy dostonlarga mehr singdirilgan.

O’zbek xalq pedagogikasida o’zgalarga ibrat bo’larli Vatan ravnaqi g’oyasi hayotning har qadamida, kishilarimizning har kunida ko’rish mumkin. Masalan, O’zbek toshda gul undirishi bilan, cho’lni bog’u-bo’stonga aylantirishi bilan, olamni qolaversa Vatanni bezash bilan ham dunyoga namuna bo’lishi mumkin. O’zbek fe`li oatvoriga bog’liq xususiyatlaridan yana biri tarbiya masalalariga katta e`tibor berishida: go’daklar ongiga o’z go’shasi, vataniga muhabbat singdirishda ham ko’zga yaqqol tashlanadi. Bunda islom dining, hadislardagi “Vatanni sevmoq-iymondandir” dasturi muhim o’rin tutadi. Hozirgi kunda o’zbek xalq pedagogikasida Vatan ravnaqi g’oyasini ifodalanishi alohida bitiruv malakaviy ishninglar qilinishini taqozo etadi.

Mustaqillikka erishishimiz tufayli Vatan ravnaqi g’oyasining qaror topishi, Prezidentimiz asarlarida ushbu masalaning chuqur ifoda etilishi, davlatimiz rivoji, taraqqiyotiga katta axamiyatga ega ekanligi dalillangan. Vatan ravnaqi g’oyasining milliy o’zlikni anglash, milliy qadryatlarimizni tiklash, ma’naviy merosimizni mustaxkamlashdagi axamiyati falsafiy, tarixiy, siyosiy, ma’naviy, pedagogik jixatdan marifiy adabiyotlarga asoslangan xolda, “Vatan” va “ravnaq” so’z Vatanga nisbatan sadoqat, unga xizmat qilish, yurt tinchligini asrash, Vatan ravnaqi uchun faol bo’lishga undaydigan ijtimoiy ma`naviy-ahloqiy fazilat. Uning mazmuni Vatanga mehr-muhabbatli va sodiq bo’lishdan, yurtning o’tmishi va hoziri uchun fahrlanishdan, mamlakat manfaatlarini himoya qilishga intilishdan iborat. Vatanparvarlik ota bobolardan me`ros qolgan zaminni sevish, xilq urf-odatlarini, qadriyatlarini asrash va rivojlantirish, o’z ona Vatanini dushmanlardan,

yot va begona g’oyalardan himoya qilish, uning ozodligi va mustaqilligi uchun jonini ham ayamaslikni nazarda tutadi.

Vatanparvarlik aniq bir hayotiy muhitda, ijtimoiy zaminda va mavjud ma`naviy-axloqiy qadriyatlar asosida shakllanadi. Uning to’la va o’tg’ri shakllanishi, yuksak namunalarni ko’rsatish uchun ham xalq va Vatan mustaqil bo’lishi lozim. Ana shu sababdan, mustaqillikni e`zozlashimiz, qadriyaga etishimiz, uni qadam-baqadam mustahkamlab borishimiz zarur. Shu yo’ldagi oliyjanob fazilat va ezgu intilishlar bugungi kunda haqiqiy vatanparvarlik namunasidir.

Vatanparvarlik g’oyalarini yoshlarimiz ongiga singdirish, avvalombor oiladan boshlanadi. Ona Vatan, Vatanga muhabbat, Vatan tuyg’usi kabi ilk tushunchalar ham avvalo, oila muhitida shakllanadi. Bu jarayon bobolar o’giti, ota ibrati va mehri orqali amalga oshadi. Inson o’zligini anglashi, nasl-nasabini bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg’usi ildiz otib, yuksala boradi. Bu ildiz qancha chuqur bo’lsa, tug’ilib o’sgan yurtga muhabbat ham shu qadar ortadi. Vatanparvarlik g’oyalarni yoshlar qalbi va ongiga singdirishda ta`lim va tarbiyaning turli shakllari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ota-bobolarimizdan qolgan me`rosiy an`analardan tiri o’zi tug’ilib o’sgan vatanga, xonadoniga, el usuliga cheksiz izzat-ehtirom tuyg’usidir. «O’zga yurtining sultoni bo’lgandan ko’ra , o’z yurtingni gadosi bo’l» degan gaplar ham donolardan qolgan. ajdodlarimiz o’z el-yurtining chinakam fidoiylari, o’z vatandoshlarining mehribonlari bo’lganlar. Kindik qonlari tomgan tuproqning bir siqimini o’zga brtning olam-olam boyligi-yu behisob zarlariga almashtirmaganlar. Bu odat o’zbek xalqining qon-qoniga singib ketganki, u o’z qo’shnisi hech qachon o’zgalarning qasru-koshonalarga almashtirishni ravo ko’rmaydi. «Ona yurting-oltin beshiging», deya bir mehru-muhabbatini o’z yurti, vatani, uyi, xonadoni axliga ulashib, goh to’qlik bo’lsin, goh yo’qlik bo’lsin, shukur qilib yashayveradi.

Mana bu fazilatlarni vatanni sevsh, vatanparvarlik deyiladi.

O’zbek xalq dostonlarida ona diyorning bebaho timsoli yaratilganligi ularning g’oyaviy mazmunini yanada guruhlashtirgan. Doston qahramonlari uchun

ona diyordan ortiq muqaddas joy yo'q, ular o'z yurtlari ishtiyoqida yonadilar, aziz yurtning bir qarich eri, bir siqim tuprog'i uchun jon olib, jon beradilar. Bu hususiyat ayniqsa, «Go'ro'g'li» dostonlarila juda kuchli namoyon bo'ladi. Xalq bahodir Go'ro'g'li tilidan shunday deyiladi:

Yurtga dushman ko'z aylantirsa,
Qarab turmas yigit mardi.

yoki

Yurtning qo'rida dushman ellardan,
Yovlar kelsa tayyor edi Go'ro'g'li.
Xalqqa dushman Go'ro'g'lining dushmani,
Ularning qiyratar edi Go'ro'g'li.
O'z vaqtida man-man degan shohlarni,
Ushlagandan etar edi Go'ro'g'li.
Elga g'anim qo'shin tortib kelganda,
Shunda jonin tikkan edi Go'ro'g'li.

Bu termadagi g'oya «Go'ro'g'li» turkumidagi dostonlarning butun mohiyatini belgilaydi, deyish mumkiin. Ular yaratilgan afsonaviy CHambil eli timsolida keng ma`nodagi diyor – yurt obrazi har tomonlama mukammal yaratiladi. Shu ona yurt obrazi orqali baxshilar kishilarda vatanparvarlik, yurtni chuqur seva olish tuyg'ularini shakllantirib, ularni tabora rivojlantirganlar.

Xalq maqollarida ham bu g'oya o'z aksini topganligining guvohi bo'lamiz:

Bulbul chamanni sevar,
Odam Vatanni.
Ona yurting omon bo'lsa,
Rangu-ro'ying somon bo'lmas.

Xalq og'zaki ijodi asarlarida eng ta`sirli, eng shirin so'zlar Vatanni sevuvchi, uning tashvishini, uning quvonchini, o'zining sevinchi deb biluvchi, ona diyor sha`ni uchun kurashuvchi kishilar sharaflanadi, eng yomon so'zlar va qora bo'yoqlar salbiy obrazlarga nisbatan qo'llanadi.

Xalq nazarida har qanday gunohni kechirish mumkin-u, ammo, vatan xoini kechirib bo’lmaydi.

Bobolar aytadilarki:

-O’z vatanini sevmagan odam yomon odam .

-yomon odam.

Kimda kim o’z ona diyorini, o’z ona diyorining zamini-yu, oqar suvlarini, kimsasiz cho’llari-yu, dala-dashtlarini qalbdan seva olsa, unday odam kam bo’lmaydi, zavol ko’rmay kalom topadi. Vatan xoini esa xalq qahr-g’azabiga uchragan kishidir. Vaqti kelib unga hatto bir qarich er ham, kafan ham buyurmaydi. «Bir siqim ona er tuprog’i, bir hovuch oltindan qimmat» deb bejiz aytmagan.

O’z vataningni, millatingni sevo olsang, uni qadrlay olsang, o’zgalar yurtini ham seva olasan. O’z uying, o’z ona diyoring fidoyisi bo’la olsang, qarindoshing vatani uchun ham jonkuyar bo’la olasan.

Kishilarimizdagi ona vatanni sevish, uning yo’lida fidoyilik ko’rsatish tuyg’usi ayniqsa, fashizmga qarshi urush davrida butun dunyoni qoyil qoldirdi. Vatan tuyg’usi har kimning qoniga ona allasi, bolalikda eshitgan she`r, qo’shiqlari bilan kiradi. Vatanparvarlik tuyg’usi go’zallikdan boshlab shakllansa u so’nggi nafasgacha boqiy bo’ladi. Vatan va vatanparvarlik xissini millat tuyg’usini har bir o’zbek fuqarosi chuqur anglashi, ayniqsa O’zbeksitonlikbo’lganidan, shu yurtga daxldorligidan faxrlanishi lozim.

Vatanparvarlik-bu Vatanimiz xalqiga, uning an`analariga, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmat bilan qarash hamda uni rivojlantirishga o’z xissasini qo’shish, uning haqiqiy jonkuyari bo’lishdir.

Vatanparvarlik-bu Vatan oldidagi mas`uliyatli, millat manfaati bilan yashash, vatan taraqqiyoti, millat obro’siga obro’ qo’shish, xalqning shon-shuhrati va manfaatini o’ylash, insonparvar bo’lish demakdir.

Vatan mehri, vatan ishqi shu qadar buyuk. Unga bo’lgan mehr inson qalbiga shu qadar muhim o’rnashganki, xech qanday kuch bu tuyg’uni zo’rlik bilan siqib chiqara olmaydi. Hususan, bizning ajdodlarimizda bu tuyg’u ko’ngil tubida juda

chuqur tomir yoygan. Ularning avlodlari hisoblanmish bizlarga ham bu tuyg'u teran singib ketgan.

Vatanga muhabbat-eng chuqur ijtimoiy hislardan biridir. Bizning davlatimizda vatanga muhabbat hissi baynalminalchilik hissi bilan uyg'unlashib ketadi. Vatanga muhabbat hissi maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda kattalar tomonidan bolalarning ruhiy tomonidan bolalarning ruhiy taraqqiyotini va ularni tafakkurining aniq va obrazliligini e`tiborga olgan xolda ma`lum izchillik bilan tarbiyalab boriladi. Shuning uchun bu yoshdagi bolalarni vatanga muhabbat hissini ularga yaqin va tanish bo'lgan aniq, faktlar, misollar orqali tarbiyalab boriladi. Tarbiyachilar bolalarda o'z oilasiga, uyiga, bolalar bog'chasiga va bolalarni o'rab turgan tevarak-atrofga mehr-muhabbatni va ularga sodiq bo'lishni tarbiyalayotib, eng muhim ijtimoiy his bo'lgan vatanga muhabbatni tarbiyalab boradi.

Kichik bog'cha yoshidagi bolalar tevarak atrofdagi voqea-hodisalarni faqat tashqi belgilarini anglab oladilar. Ular Hayit, navro'z bayramini hamma kishilar shodiyonalik bilan kutib olishlarini ko'radilar, bundan juda zavqlanadilar, ammo buning sabablari, natijalari bilan qiziqmaydilar. Ammo bu yoshdagi bolalar tevarak atrofdagi kishilar mehnati, ularning bolalarga ko'rsatayotgan g'amxo'rliklari bilan kattalar tanishtirib borsalar, aniq misollar orqali tushuntirsalar, ayni muddao bo'ladi.

Tarbiyachi «Vatan», «Bizning shahar», «O'zbekistonnig poytaxti Toshkent», «qishlog'imizning eng yaxshi kishilari» va shunga o'xshash mavzular bo'yicha kitob va rasmlar tanlaydi, turli al'bomlar, papkalar tayyorlab, bolalar bilan olib boradigan ta`lim-tarbiya ishida foydalanadi.

Har bir davrda yuz beradigan voqea-hodisalar bolalarga bevosita ta`sir etadi. Bunday voqea-hodisalar to'g'risidan tarbiyachining bolalarga mohirona hikoya qilib berishi vatanparvarlikni tarbiyalashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Baynalminal tarbiya.

Bizning respublikamiz o'z mohiyati bilan baynalminaldir. Shuning uchun maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda baynalminalchilik xalqlar do'stligi hislarini tarbiyalab borish muhim ahamiyatga egadir.

larining tushunchasi va moxiyati ilmiy-pedagogik jixatdan ishlab chiqilgan.

"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"da ko'rsatilishicha, "Vatan-kishilarning tug'ilib o'sgan joyi, yurti,mamlakati; tarixan muayyan xalqqa tegishli xudud xamda uning tabiati, axolisi, o'ziga xos taraqqiyoti, tili, madaniyati,turmushi va urf-odatlari majmui. Vatan-ona kabi yagona, muqaddas. Vatan oldidagi qarzdorlik tuyg'usi mas'uliyatli xar bir etuk insonga xos xususiyatdir. Vatanni sevish vatanparvarlikda namoyon bo'ladi; Vatanparvarlik esa kishilarning ona yurtiga,o'z vataniga muxabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha. Vatanparvarlik barcha kishilar,xalq, millatlar uchun umumiy bo'lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg'u, ma'naviy qadriyatlardan biri. Tarixiy jixatdan vatanparvarlik kishilarning o'z vatanlari taqdiri bilan bog'liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o'zlari yashayotgan xududning daxlsizligi va mustaqilligiyo'lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan xis tuyg'ular jamlanmasi xamdir. Bu vatanning o'tmishi va xoziri bilan faxrlanishda, uning manfaatlarini ximoya qilishda namoyon bo'ladi".

"O'zbek tilining izoxli lug'ati"da berilishicha, "Ravnaq" so'zi "porlash; yaltiroqlik; xusn, ko'rk. Misilsiz taraqqiyot, rivoj, barq urish, gullab yashnash" degan ma'nolarni anglatadi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da, oliy ta'limning Davlat ta'lim standardlarida, xukumatimiz tomonidan yoshlar tarbiyasiga oid chiqarilgan qonun va qarorlarida Vatan ravnaqi g'oyasi o'zining chuqur ifodasini topganligi o'rganilgan va shu soxaga doir adabiyotlar taxlil etilib, munosabatlar bildirilgan. Shuningdek,mustaqillik yillarida ushbu yo'nalishda olib borilayotgan ishlar, o'zbek mutaffakkirlari va ma'rifatparvarlarining vatanparvarlik xaqidagi g'oyalari, qarashlari jamiyatimiz rivoji, millatimz ravnaqi, yosh avlodni tarbiyalashda muxim axamiyatga ega ekanligi ko'rsatilib, respublikamiz faylasuf va pedagok

olimlarining asarlari nazariy jixattan taxlil etilgan. Ular olib borgan bitiruv malakaviy ishninglar o'rganilib, fikr- muloxazalar bildirilgan. Davlatimiz siyosatining asosiy vazifalaridan biri Vatan ravnaqi g'oyasini xayotga tadbiq etishdir. Chunki Vatan ravnaq topsa taraqqiyot rivojlanishi yuqori bo'lsa, xalq farovon yashaydi. Shu munosabat bilan ushbu bobda talaba yoshlarda vatan ravnaqi g'oyasini shakllantirish asosida uning tarixini mukammal o'rganish, ma'naviy, milliy va umuminsoniy qadryatlarni xurmat qolosh, madaniy merosimimizni asrash,jaxon standarlariga mos xolda bilim olish,intizomli, ongli inson bo'lib kamol topish kabi masalalar unli-pedagogik jixattan ishlab chiqilgan.

Ushbu bobda uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchi yoshlarda Vatan ravnaqi g'oyasini shakllantirishning mushtarakligi va ularni namoyon bo'lish, rivojlanish xolatlari ifodalangan. Vatalln xaqidagi tushunchani shakllantirish maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilaridan boshlanadi. Bu borada "O'zbekiston-mustaqil davlat", milliy marosimlar, Navro'z bayrami, "O'zbekiston-mening Vatanim", "Ona shaxrim Toshkentim", "Samarqand-qadimiy shaxar" mavzulari asosida suxbatlar o'tkazish, o'zlari yashayotgan shaxar, ko'cha nomlari bilan tanishtirish, Buxoro, Xiva kabi qadimiy shaxarlar, Abu Rayxon Beruniy, Amir Temur, Yunus Rajabiy kabi buyuk siymolar xaqida xikoya qilish muxim o'rin tutadi.

1-4-siniflarda o'quvchilar mamlakatimiz mustaqilligi, ramizlari va bayramlari xaqida dastlabki tushunchalarga xamda O'zbekiston Respublikasining poytaxti, viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi, o'zi yashaydigan qishloq (shaxar) haqida muayyan tasavvurga ega bo'ladilar. 5-9-sinf o'quvchilari adabiyoti, tarix, davlat va huquq asoslari darslarida Prezident asarlarida ilgari surilgan g'oyalar asosida mushohada yuritish, mamlakatimiz mustaqilligi bayramlari haqida, ona-Vatanga, uning tarixiga, xuquqiy asoslariga muxabbat uyg'otuvchi mazmundagi g'oyalarni anglagan holda so'zlab berish bilan bog'liq bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari umumta'lim fanlari asosida milliy va umumbashariy qadryatlarni ulug'lashda badiiy adabiyotning

ijtimoiy vazifasini anglash, asar qaxramonlarini umuminsoniy va milliy qadriyatlar nuqtai nazaridan mustaqil baxolash, O'zbekiston va uning boyliklari, tabiati to'g'risida savol- javob qilish, demokratik, xuqukiy davlat va fuqorolik jamiyatning shakllanish qonuniyatlari va turli mafkuralar kurashi,jaxon tarixida O'zbekistonning o'ziga xos o'rni xaqidagi bilimlar, ko'nikma va malakalarni o'zlashtiradilar.

O'rta maxsus kasb-xunar ta`limijarayonida o'quvchilarda Vatan ravnaqi g'oyasini shakllantirish gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlarning axamiyati beqiyosdir. Shu jixatdan ushbu bobda ijtimoiy-gumanitar fanlar mashg'ulotlarida o'quvchilarda milliy g'oya va demokratiya, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ilmiy dunyoqarash, yuksak ma'navaiyat va madaniyat, iqtisodiy, huquqiy va ijodiy tafakkur, e'tiqod va ijtimoiy-siyosiy faollik tarbiyasi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan yo'nalishlarning pedagogik shar-sharoitlari ishlab chiqilgan. Talim jarayonida milliy ananalar, urf-odatlar, madaniy merosdan foydalanish asosida tarix va madaniyatga xurmat bilan munosabatta bo'lish, insonparvarlik, vatanparvarlik va baynalmillalik ruxini qaror toptirish, ta'lim va tarbiya jarayonida mustaqil fikrlaydigan, xar qanday vaziyatda to'g'ri qaror qabul qilishga qodir, xar tomonlama rivojlangan barkamol shaxsni shakllantirishga oid bilimlarning bevosita Vatan ravnaqi g'oyasi bilan bog'liqligi va ushbu pedagogik yo'nalishlarda amalga oshiriladigan ishlari mazmuni tavsiya etilgan. SHarq mutaffakkirlari qoldirgan boy madaniy-ma'rifiy meros talablarning Vatan ravnaqi haqidagi bilimini boyitishda muxam manba bo'lib xizmat qilishi nazariy jixatdan asoslangan.

## 2.2. O'quvchilarda milliy g'ururni shakillantirish orqali vatanparvarlikni tarbiyalash qo'yiladigan psixologik- pedagogik talablar

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikdan keyin hukumatning barcha ichki va tashqi siyosati, islohotlarning birinchi bosqichida olib borgan olamshumul siyosati va ikkinchi bosqichda amalga oshirayotgan tarixiy-umumbashariy ishlari tufayli butun dunyoga tanildi va tan olindi. Bu o'zbek xalqining milliy g'ururidir.

Milliy g'urur haqida fikr yuritar ekanmiz, avvalo, g'urur nima?, so'ngra milliy g'urur mazmuni qanday? degan savollarga to'xtalish zarur. Chunki, milliy g'ururni tarkib toptirish va tarbiyalash kabi pedagogik-psixologik muammoni hal qilish zikr qilingan so'z va so'z birikmalari ma`nosi bilan bevosita bog'liqdir.

G'urur so'zi faxr, iftixor, faxrlanish, mag'rur, quvonch, quvonish kabi ma`nolarni anglatadi. Mumtoz she`riyat va nasrlarda, faxriya, ballada va dostonlarda, xalq og'zaki ijodida ham yuqoridagi so'zlar ma`nodosh (sinonim)laridan foydalanilgan. Ba`zan g'urur so'zi kibrlanish, kibru havo, gerdayish, o'ziga bino qo'yish, manmanlik singari ma`nolarni ham tashiydi. Biz ijobiy ma`nodagi g'urur haqida fikr yuritamiz.

Milliy g'urur muayyan millatning tarixiy o'tmishidan, milliy qadriyatlaridan, jahon miqyosida asrlar osha tan olinib kelinayotgan fan, din, adabiyot, san`at va madaniyat yutuqlari va ularni yaratgan daholardan, tarixiy obida va yodgorliklaridan, milliy urf-odatlariyu, an`analaridan, ota-Vatanidan, dono xalqidan, Vatanining go'zal o'tmishi va bugunidan, milliy xalq qahramonlaridan faxrlanish va iftixor qilish tuyg'usidir.

Darhaqiqat, „Milliy g'ururfigsiz hech bir millat millat sifatida ravnaq topolmaydi".

Kimningki g'ururi yo'q, Onikim shuuri yo'q.

G'urur o'zini o'zi anglash, milliy g'urur esa milliy o'z-o'zini anglash bilan bevosita bog'liqdir. Tilini, dini, tarixini, ajdodlarining mazmunli hayotini, olam-shumul kashfiyotlarini yaxshi bilgan, o'rgangan kishigina o'zining kimligini anglashi mumkin va uning qalbida, vujudida va ruhida faxrlanish tuyg'usi vujudga keladi. Shuningdek, unda ajdodlariga sodiq qolib, „... o'zini kamol toptirishga bo'lgan intilish insonning g'ururini, uning haqiqiy fazilatlarini yuksaltiradi"[2].

Darhaqiqat, agar yuragida g’urur bo’lsa, inson o’zidagi bor imkoniyat-larni ishga solib, irodasini raso ushlab, barcha xislat va fazilatlarini yuzaga chiqarishga intiladi.

Yurtboshimiz milliy g’urur to’g’risida shunday yozadi: „O’zbek xalqining yuksak milliy qadr-qimmati, or-nomusi va shon-sharafi uning o’ta mehribonligi va sof vijdonligiga asoslangandir. Biz bundan keyin ham o’zbek-larning milliy g’ururini ma`naviy yuksaltiramiz, shu bilan birga, umumiy Vatanimizda biz bilan birga yashovchi va O’zbekiston Respublikasiga sadoqatli bo’lgan boshqa barcha xalqlar bilan birodarlikka intilamiz"[3]. Zotan, milliy g’urur millat-ning qadr-qimmatini, or-nomusini, shon-sharafini tushunib yetgan, anglagan insondagina bo’ladi.

Demak, har bir ziyoli, har bir pedagog oldida yosh avlod qalbida milliy g’ururni tarkib toptirish, shakllantirish va takomillashtirish vazifasi turibdi.

O’quvchi  shaxsining tarkib topishida axloq, o’ziga xos ong va tafakkur alohida ahamiyat kasb etadi. Umuminsoniy xislatlarni shakllantirish jarayoni o’quvchidagi ishonch, aqida, nuqtai nazarning qarama-qarshiliklariga, uning atrof-muhitdagi hodisalarga va kishilarga munosabatini hisobga olish lozim.

Psixologlar o’tkazgan tadqiqotlardan ko’rinadiki, o’quvchilarning ko’pchiligi qat`iyatlilik, kamtarlik, mag’rurlik, samimiylik, mehribonlik, dilkashlik, adolatlilik kabi ma`naviy-axloqiy tushunchalarni to’g’ri anglaydilar.

O’quvchilarda  milliy g’ururni tarbiyalash aqliy, axloqiy, siyosiy, iqtisodiy, xuquqiy, ekologik, estetik, badiiy, diniy tarbiyaning tarkibiy qismlariga yaxlit jarayon sifatida qarashni taqozo etadi. Bu omillar o’quvchilarni tarbiyalash jarayonida uning ongiga ta`lim-tarbiya davomida o’zaro birlik va aloqadorlikda ta`sir etishi va ular mazmun-mohiyati bilan bir-biriga bog’liq bo’lishi lozim. Umumbashariy madaniy merosdan baxramand bo’lish, o’z tarixi, san`ati, ma`naviy-ruhiy qadriyatlari, diniy bilimi asosida o’zligini anglash, Vatan, xalq va millat manfaatlariga mas`ullik sezish va boshqalar milliy g’ururini shakllantirishning asosiy mezoni hisoblanadi. Demak, o’quvchilarning ma`naviy kamolotida axloqiy fazilatlarning o’rni benihoya kattadir. O’quvchilarning axloqiy sifatlaridagi insonparvarlik, halollik, tashabbuskorlik, vatanparvarlik,

mehnatsevarlik, erksevarlik, faollik, haqiqatgo'ylik, mas`uliyatlilik, saxiylik, kamtarlik, poklik kabi axloqiy tushunchalar milliy g'ururni shakl-lantirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilarning axloqiy ongi, ularning xulq-atvori mehnatsevarlik, adolatparvarlik va boshqa yuksak ma`naviy-axloqiy sifatlarning negizi hisoblanadi. Axloqiy ong vijdon, burch, mas`uliyat, hayo, g'urur kabi tuyg'ular insonning ichki ruhiy hissiyotiga asoslanadi.

O'quvchilarning axloqiy ongi va tafakkuri estetik his-tuyg'ulari bilan o'zaro aloqada shakllanadi. Ularda milliy g'ururni shakllantirish jarayonida estetik g'oya, estetik did, go'zallikdan zavqlanish qobiliyati ham o'sadi.

Psixologlarning ta`kidlashicha, estetik did, hissiyot va aqliy turmush tarzini uzviy bog'lab turuvchi shaxsning qobiliyati o'quvchilarning estetik didi, uning o'rtoqlari, jamoasi, oila a`zolari, jamoatchilikning xulq-atvori, xatti-harakati, muloqot madaniyati, milliy g'ururi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, urf-odat va an`analarga, xalq donishmandligiga munosabatlarida namoyon bo'ladi.

O'quvchilarning milliy g'ururini tarbiyalash quyidagi pedagogik-psixologik omillar orqali amalga oshiriladi:

- darslar jarayonida fanlarning maqsadli bog'likligi;
- Vatan tarixi va buguni haqida suhbat hamda munozaralar;
- tarbiyaviy ishlar: milliy qahramonlar va davlat arboblari Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur va shukabilar) faoliyatiga bag'ishlangan kechalar uyushtirish;
- milliy qadriyatlarga bag'ishlangan kechalar tashkil qilish (Navro'z, Ramazon hayiti, Qurbon hayiti, Xalqaro xotin-qizlar kuni, Mustaqillik kuni, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni va shu singarilar);
- ommaviy hasharlarda qatnashish;
- mumtoz fan, adabiyot va san`at arboblari tavallud kunlarini nishonlashni tashkil qilish;
- sport musobaqalari;
- qadimiy obidalarga, tarixiy shaharlar (Xiva, Samarqand, Buxoro)ga sayohatlar uyushtirish va shu mavzuda munozara, suhbatlar tashkil qilish;

- mashhur adabiyot, fan va san`at namoyandalari bilan uchrashuv kechalari uyushtirish;

— tarbiyalanuvchilarning kasb-hunar to'garaklarida tayyorlagan mahsulotlari qo'rgazmasini tashkil qilish va shu kabilar.

Bu tarbiyaviy tadbirlarning deyarli barchasi o'quvchilarning fikrlashiga, mulohazalar yuritishiga, o'zini o'zi boshqarishiga, o'zini o'zi baholashiga, o'zini boshqalar bilan qiyoslashiga, ajdodlari haqida muayyan tasavvur hosil qilishiga, e`tiqodini shakllantirishiga, o'zining kimligini va kimlarning avlodi ekanligini anglashiga yordam beradi. Bu milliy faxr-iftixor va milliy g'ururning shakllanib hamda rivojlanib borishini taqozo etadi. Darhaqiqat, milliy g'urur shunday pedagogik-psixologik qudratga egaki, shu samarali mo``jiza tufayli inson Vatan, uning kelajagi, o'zining kelgusidagi istiqboli, maqsad va vazifalari bilan yashash fikrini, malakasini tarkib toptiradiL

Umumta'lim maktablaridagi o'qituvchi-tarbiyachilarning samimiy xatti-harakati, maqsad va vazifalari, tarbiyachilik burchlari xuddi shu masalaga yo'naltirilishi lozim. Zero, ular birinchi galda o'quvchilar qalbida e`tiqod tuyg'usini tarkib toitirishlari zarur. Zotan, iymon va e`tiqod mevasi milliy g'urur hisoblanadi. Milliy g'urur esa maktab tarbiyalanuvchi o'quvchilarning burch va istiqbolli kelajagini belgilab beradi. Shu o'rinda yana bir narsani unutmaslik kerakki, o'quvchilar odatda taklidchi bo'ladilar. Ular yangi o'tqazilgan nihol kabi istagan tomonga egilib, ergashib ketish-lari mumkin. Bunday holatda tarbiyachi-o'qituvchilar jamoaga ijobiy ma`noda o'rnak bo'lishlari zarur.

Shuning uchun va yuqoridagi pedagogik vosita hamda tadbirlarni to'laqonli va samarali amalga oshirish jarayonida maktab rahbariyati, o'qituvchi-pedagoglar bilan bir qatorda, davlat va nodavlat tashkilotlar, otaliq tashkilot, muassasa va korxonalar, ekskursiya bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar, muzeylar xodimlari, matbuot organlari, ommaviy axborot vositalari, fan va ilmiy muassasalar, shuningdek, maktablarda faoliyat ko'rsatayotgan barcha to'garaklar, jismoniy tarbiya va sport o'qituvchilari ishtirok etishlari maqsadga muvofiqdir. Yuqorida aytilgan pedagogik omillarning hamkorlikdagi faoliyatlari maktablardagi

o’quvchilarning milliy g’ururini tarbiyalashda muhim rol  o’ynaydi. Ularning milliy g’urur tarbiyasi ishtiroki, vazifalari, tarbiyaviy hamkorliklari tahlili quyidagi pedagogik tizimni yaratishga imkon berdi.

*3- jadval*

Kollej o’quvchilarida  milliy g’ururini takomillashtirish omillari tizimi




O’quvchilarning milliy g’ururini o’stirish badiiy, moddiy va ma`naviy, axloqiy ma`no kasb etadi. Bunda milliy qadriyatlar, milliy urf-odatlar ma`naviy asos bo’lib xizmat qiladi. Uning moddiy asosini nashriyotlar, kinoteatrlar, kutubxonalar, kontsert zallari, teleko’rsatuvlar, radio va boshqalar tashkil etadi. Milliy g’ururning badiiy mazmuni, uning milliyligi va umuminsoniyligi, badiiy boyliklarning hammabopligi, badiiy san`at asarlarining insonparvarligi, istiqbolliligi, g’oyaviy pishiqligi, hayotiy mushtarakligi bilan baholanadi.

Har bir tarbiya dargohlarida tarbiyalanuvchi o’quvchi insonparvarlik va vatanparvarlik qoidalariga rioya qilgan holda, bu faoliyat insonni har tomonlama himoya qilishga, uni ulug’lashga, milliy g’ururlanishga qaratilishi lozim.  Asl vatanparvar unvonini olish uchun insonga juda katta mas`uliyatli ma`naviy-axloqiy vazifalar yuklanadi. Nima va qanday hodisa bo’lishidan qat`i nazar, tug’ilib o’sgan qishlog’ini, shaharini, boshqacha aytganda, kindik qoni tomgan zamin — Vatanini tark etmaydi. Bunday insonlar asl vatanparvarlar deyiladi.

Zero, faxrlanish haqiqatdan ham yaxshi hulklar va oliy fe`llarda oldin ketish, ilmu hikmatni egallash va imkoniyat boricha mavjud nopokliklardan tozalanishdir. Kimda shunday sifatlar topilsa, hukm uning foydasiga va kimda bular yetishmasa, hukm uning zarariga bo'ladi[1]. Zotan, Vatanni sevish, xalqni hurmat qilish faxrlanish yoxud ulardan g'ururlanish belgisi bo'lib, bu yaxshi xulq va yaxshi fazilatdir. Kimki millatning madaniyati tarixidan, ajdodlari qoldirgan barcha meroslardan, hamma sohadagi an`analaridan faxrlana bilsa, o'tmishda vatani va xalqi boshiga tushgan dahshatli va ayanchli fojiaviy taqdirdan achinsa, u vatan va xalqi kelajagi uchun, nurli istiqlol yo'lida fidoyi bo'lish orzusida yashaydi, mehnat qiladi, o'z kas-bining ustasi bo'lishga intiladi, tashabbuskorlikni qo'lga kiritish armonlari bilan nafas oladi.
Insonparvarlik va vatanparvarlik o'quvchi uchun, birinchidan, kundalik ma`naviy fazilat bo'lib qolishi, ikkinchidan, o'quvchi ongi va faoliyati demokratik jamiyat yaratishga qaratilgan bo'lishi, uchinchidan, huquqiy dav-lat yaratishga o'z hissasini qo'shishga tayyor bo'lishini taqozo etadi. Har bir o'quvchining faoliyatida oshkoralik tamoyili ustuvor bo'lishi zarur.
Oila baxt-saodati haqida qayg'urish, farzandlarni kasb-hunarli qilib tarbiyalash, vatanga, xalqqa sadoqatli kishilar qilib yetishtirish ham vatanparvarlikning namunasidir.Bunday xususiyatlarni o'z xulq-atvorida mujassam eta oladigan o'quvchi uning faoliyatida og'ir vaziyatda vujudga keladigan muammolarni muzokara, munozara, musohaba yo'li bilan hal qilishga intiladi va shu yo'llar bilan g'ururiga putur yetkazmaslikka harakat qiladi.
Mustaqilligimizning tantana qilishida milliy qadriyatlar va e`tiqodlar ham muhim ahamiyatga ega bo'lganini aslo unutmasligimiz kerak. Asrlar davomida sinovdan o'tgan, milliy istiqlol g'oyalaridan tarbiya jarayonida foydalanish o'quvchiga o'zligini anglashda va milliy g'urur-li bo'lishida yordam beradi. Islom dini qonun-qoidalarida, mazmunida ezgulik ta`limoti bilan bir qatorda, har bir muslim va muslima amal qilishi zarur bo'lgan axloqiy-ma`naviy qadriyatlar, sharqona urf-odatlar, udumlar, an`analar, tarbiya qoidalari targ'ib etiladi. Ularning mohiyati

ma`naviy-axloqiy jihatdan taxdil qilingachgina va o'quvchi ongida milliy g'urur shakllantirilgan taqdirdagina e`tirof etiladi
Demak, maktab o'quvchilarning milliy g'ururini shakllantirishdagi, uning aqliy, axloqiy, estetik, badiiy, siyosiy, diniy va boshqa qirralari bir-biri bilan o'zaro aloqador holda ta`sir ko'rsatadi. Bu ta`sirning samaradorligi esa ta`lim-tarbiya jarayonida o'quvchining ma`naviy qiziqishi uning talab va ehtiyojini hisobga olish, bu xususiyatlarning jamiyat ma`naviy taraqqiyoti talablari bilan mosligi, ma`naviy va milliy manbalardan o'quvchi yosh va ruhiy xususiyatlariga mos ravishda samarali foydalanish, ta`-lim-tarbiya jarayonida zarur usul va vositalar asosida tashkil etish, ta`lim-tarbiya mazmunidagi milliy, umuminsoniy qadriyatlar, urf-odatlar, an`analar kabi muhim pedagogik talablarga rioya etishga bog'liq.
Ajdodlar or-nomusini himoya qilish, ularning vatanparvarlik g'oyalariga, milliy qadriyatlariga sodiq bo'lish mustaqillikning asosiy printsipi bo'lmog'i lozim. Birodarlik, hamkorlik umumiy ishning kalitidir. Bu musulmon xalqlarining, chunonchi, o'zbek xalqining doi-miy tarixiy shioridir. Muqaddas Qur`oni Karim ham, Hadis ilmi ham va boshqa qomusiy o'zbek olimlari asarlari ham shu muborak fikr va g'oyaga amal qilishga da`vat etadi.
Muayyan jamiyatdagi har bir millatning ongi, ma`naviy qiyofasi o'sha jamiyatning tabiiy, ijti-moiy, tarixiy sharoitlariga qarab o'zgarib boradi. Millatning ruhiy, ma`naviy qiyofasi mavjud ijtimoiy ong shakllarida o'z ifodasini topadi. Ijtimoiy ongning an`anaviy shakllari har bir millat kishilarining ruhiy, ma`naviy qiyofasi asta-sekinlik bilan o'zgarib borishiga olib keladi. Mana shu o'zgarish jarayonlari tarixiy taraqqiyot bosqichida ham progressiv, ham regressiv bo'lishi mumkin. Buiday tarzda ijtimoiy ong shakllarining o'zgarish-lari o'z navbatida ko'p millatli davlatlar negizida turgan xalqlarning milliy o'zligini anglash jarayoniga ham ijobiy, ham salbiy ta`sir ko'rsatishi muqarrardir.
Milliy ong ijtimoiy ong shakllari singari ma`lum davrlarda o'zining nisbiy mustaqilligi tufayli jamiyat asosini tashkil etuvchi bazis va ustqurmaning mohiyatini tubdan o'zgartirib borishga faol ta`sir ko'rsatishi mumkin. Bunga misol tariqasida hozirgi kunlarda sobiq Ittifoqdagi respublikalar hududida ro'y

berayotgan keskin o'zgarishlar ja-rayonini ko'rsatib o'tishimiz mumkin. Ularning hayotida shiddat bilan ro'y berayotgan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va huquqiy o'zgarishlar qanchalik inqirozli tus olmasin, xalq ommasi ongining, ayniqsa, milliy ongning yangicha shakllanishi anchagina ijobiy tus olmoqda.

Milliy ong va uning shakllanishi, eng avvalo, milliy uyg'onish zamirida boshlanishi tabiiydir. Hozirgi uyg'onish davr taqozosiga ko'ra, taraqqiyotning ob`ektiv ijtimoiy voqeligiga aylanmoqda.

Chunki kishilarning dunyoqarashi, hayotiy xulosalari, bir-birlariga munosabatlar, iroda va xohishlar, milliy turmush tarzlari, milliy rasm-rusmlar, odam va an`analar tufayli shakllanadi va rivojlanadi. Shunday ekan, milliy turmush tarzi va madaniyat ijtimoiy voqelikning tabiiy ifodalanish shaklidir. Milliylikni tan olish — millatga mansub kishilarning ijtimoiy-etnik barqarorligini tan olish demakdir. Milliylikda insoniy va umuminsoniy qadriyatlar muayyan qiyofa va shakl kasb etgan bo'ladi. Milliylikda milliy mansublik ruhi mavjud. Milliy ruhimizdagi milliy tuyg'ularimiz majmui milliy tasavvurlarimiz, kayfiyatlarimizda sodda ong sifatida ifodalanadi. Agar milliy mansublik va uning barcha tomonlari kishilar tasavvurida ilmiy asoslangan bo'lsa, uni biz milliy o'z-o'zini anglash deb tushunamiz. Milliy o'zligini anglash ilmiy-siyosiy tus olsa va ijtimoiy harakat uchun qo'llanma darajasiga ko'tarilsa, biz uni milliy mafkura deb ataymiz.

Milliy onglilikning mohiyati to'g'ri tushunilmasligi oqibatida, ba`zi hollarda bunday munosabatlar millatchilik illatlariga mubtalo etmoqda. Millatchilik g'ayriinsoniy illat bo'lib, avvalo o'zga millatlarga, qolaversa o'z millatiga ham xudbinlarcha qarash fojiasidir. Bu o'z millatini va uning manfaatlarini xudbinlik zaminida mutlaqlashtirish yo'lida boshqa millatlarning manfaatlari bilan hisoblashmaydigai, ularni kamsitib, tazyiq etib, ij-timoiy adolatsizlikla.r tug'diradigan illatdir.

Demak, milliy g'ururni millatchilik bilan ayniylashtirib bo'lmaydi. Milliy g'urur har bir millatga hos bo'lgan xususiyatlarni himoya qilib, ularning kelajak hayotini yuksaltirishga qaratilgan tabiiy inti-lishdir. Millatchilik esa bittagina millatning muddaosini himoya etib, boshqa millatlarning ehtiyojlarini pisand qilmasdan

ularning huquq va erkinliklarini chegaralab qo'yishga qaratilgan harakatdir. «Millpy tuyg'u inson uchun tabiiydir, chunki u ota-onalardan meros qilib olingan va bola ota-onasiga butun dunyoga aytgan birinchy so'zida ifodalanadi».

Ma`lumki, milliy tuyg'u tabiiy tuyg'ulardandir. Lpni paytda milliy ma`naviy hayotning juda ham nozik elementlaridir. Milliy tuyg'ular esa milliy iftixor, milliy xarakterning, demakki, milliy psixologiyaning belgilaridan biri, uning ajralmas qismidir.

Milliy his-tuyg'u, milliy iftixor manfaatlari va xalqparvarlik bilan bog'liqdir. U o'z millatining tarixini, hozirgi ahvoli, milliy psixologiyasi va xarakterini ruhiy tushunish, emotsional shaklda idrok etishdir. Biroq his-tuyg'ular, emotsiyalar millatlarning tub manfaatlarini bevosita ifoda qilmaydi. Shuning uchun ham milliy tuyg'u milliy ongdan farqlanadi.

Milliy tuyg'ular va kayfiyat millatning jipslashuvi va irodasi namoyon bo'lishida katta rol o'ynaydi. Millatning birikishida, ularning milliy qiziqishlari umumiyligi, tarixiy hodisalar, o'tmish madaniyatiga muhabbat, milliy iftixor tuyg'ulari sifatida namoyon bo'ladi.

O'z xalqining ko'p asrlik boy tarixi, ajoyib ma`naviy merosi bilan haqli ravishda faxrlanish tuyg'usi, o'tmishni qo'msash emas, balki qadimiy tarixni, xalq yaratgan moddiy va ma`naviy boyliklarni kengroq o'rganish va ochib berish, ularni yangi avlodlar tomonidan ajdodlar merosi sifatida o'zlashtirishni ta`minlashdan iboratdir.

Milliy tuyg'ularning qanchalik qarama-qarshi bo'lib qolishiga qarab «milliy qadr-qimmatga bo'lgan e`tiborsizlik shunchalik xavfli tus olib boradi.

Buvdan xulosa chiqarib aytish mumkinki, milliy his-tuyg'ularni ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va axloqiy omillarga suyanib milliy mafkura asosida rivoj-lantirish maqsadga muvofiqdir. Ma`lumki, milliy qadr-qimmat millatlararo munosabatlarning eng muhim tomonlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham mutafakkirlar millatning qadr-qimmatini oddiy so'z bilan kamsitish hech mumkin emasligini qayta-qayta ta`kidlagan edilar. O'zini ko'rsatib turadigan milliy manmanlik, milliy mahdudlik, milliy maqtanchoqlik boshqa millat his-tuyg'ularini kamsitishiga olib kelishi mumkin. Bir millatni boshqa millatga

maqtash, uning tarixi, madaniyatini ideallashtirish, til va urf-odatlarini haddan tashqari targ'ib etish, albatta, ikkinchi millatning tuyg'ulariga muanyan og'ir botadi. Bu esa milliy tuyg'ularning millatchilik tuyg'ulariga aylanib ketishiga olib kelishi mumkin. Shovinistik qarashlarning asosi ham mana shu milliy tuyg'ularning kamsitilishidan yuzaga keladi. Shovinistik kayfiyatning shakllanishi asosan milliy tubanlik, o'z millati manfaatlarini adolatsiz ravishda ortiqcha o'ringa qo'yishdan, boshqa millatlar va jumhuriyatlarning manfaatlarshsh hisobga olmaslik, o'z millatini ko'klarga ko'tarish va boshqalarda namoyon bo'ladi. Milliy psixologiyadagi shovinistik hislar oddiy insonlar ongini milliy mahdudlik, milliy xudbinlik kabi salbiy tushunchalar bilan zaharlashga, ularning behuda bezovta bo'lishiga ham sabab bo'ladi.

Milliy iftixor ham milliy o'z-o'zini anglashning ko'rinishidir. Milliy o'z-o'zini anglashning rivojlanishi bilan milliy iftixor, milliy-his-tuyg'ular namoyon bo'ladi. Milliy his-tuyg'ularga nojo'ya yondashish, uni nazar-pisand qilmaslik oqibatida ularning millatchilik tuyg'ulariga aylanib ketishiga sabab bo'lish mumkin. Shuning uchun ham hozir milliy tuyg'u masalalarigz ko'proq e`tibor berilayotganligi tasodifiy emas. Insoniy his-tuyg'ular hayotning ijtimoiy sharoitlari bilan o'zgaradi. Boshqacha aytganda, u ijtimoiy sharoit bilai bog'liq holda namoyon bo'ladi. Milliy tuyg'ularga asir bo'lib qolish qanchalik xavfli bo'lsa, ayni zamonda, ularni e`tibordan chetda qoldirish ham juda katta xatodir. Ijtimoiy, itstisodiy, siyosiy va axloqiy omillarga suyanib umuminsoniy tarbiyaviy ishlar keng ko'lamda amalga oshirilayotgan hozirgi sharoitda milliy his-tuyg'ular o'zaro hamfikrlikka, xalqlar va xalqlarning ayrim namoyandalari o'rtasida do'stlikning mustahkamlanishiga yordam beradi.

Istiqlol yo'li, demokratiya va oshkoralik ilgari keng xalq ommasining ijtimoiy, siyosiy faoliyati rivojlanishiga salbiy ta`sir ko'rsatib kelgan barcha g'oyalarni birin-ketin bartaraf etib, uning ijtimoiy snyosiy, madaniy, ma`naviy hayotning hamma sohalarida faol ishtirok etishi, o'zini ko'rsatishi uchun keng imkoniyatlar ochib bermoqda. Hozirgi paytda  ommaning ijtimoiy-siyosiy ongi faoliyati o'sib borayapti. Yozuzchilar, olimlar, ishchi va dehqonlar, yoshlar, xotin-qizlar,

dindorlar, faxriylar, xullas, jamiyatni sog'lomlashtirish uchun kurashayotgan kuchlarning harakatga kelganligi mustaqillik davriga, demokratiya va oshkoralik davriga xos bo'lgan eng noyob hodisadir. Milliy o'zligini anglashning keng tus olayotganligi, respublikamiz.ning siyosiy, iqtisodiy va ma`naviy mustaqilligini amalda ta`minlash uchun astoydil kurash olib borayotganligi va bu sohada erishgan ilk muvaffaqiyatlar milliy uyg'onishdan dalolatdir. Hozir bizda qaror topayotgan ijtimoiy sharoitlar har bir millat va elat uchun ona tabiat va tarix (muyassar etgan miqyoslarda o'z kuch-qudratini namoyish etish imkoniyatini yarat-moqda.

Milliy ong va o'zligini anglash u yoki bu millatga mansublikni his qilish, uning tarixi, madaniyati, urf-odat va an`analarini har taraflama chuqur bilish bilangina chegaralanmaydi.

Milliy o'z-o'zini anglash millatning hozirgi ahvoli, uning oldida yechimini kutib turgan muammolarini bilish va ularni hal qilishda faol harakat etishni talab qiladi. Buning uchun yuksak madaniyat, uzoqni ko'ra bilish va donolik, g'oyaviy-ma`naviy yetuklik va poklik, yangicha fikrlash imkoniyatlaridan, jamiyat taraqqiyotini jadallashtirib, aholining farovon hayot kechiri-shiuchun zamin yaratish yo'lida foydalana bilish kerak.

Shuningdek, milliy o'z-o'zini anglash millatning kelajak istiqbolini ham ko'ra bilishni talab qiladi. Bu ham kishilarning milliy ongi o'sishi, tafakkurlash madaniyati darajasi bilan uzviy bog'liqdir. Ma`rifatli, yuksak madaniyatli inson bugungi kun ehtiyojlarini qondirish uchungina yashamaydi, u albatta ertangi kunni ham o'ylab yashaydi. Qelajakni ko'ra bi-lish, fahmlash — milliy o'z-o'zini anglashning zaruriy qismini tashkil etadi.

Milliy ongning o'sishi mustaqillik tufayli jumhuriyatimizda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni, islohotlarni, Prezidentimiz tomonidan olib- borilayotgan ichki va tashqi siyosatni yakdillik bilan qo'llab-quvvatlashda, mustaqil respublikamizga bo'lgan mehr-muhabbatning kundan-kunga oshib borayotganida yatstsol namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston fuqarolari uchun mustaqillikning muqaddas ramzlari — Davlat Gerbi, Davlat Bayrog'i, Davlat Madhiyasi azizdir. Biz ular bilan faxrlanamiz, ularni

e`zozlaymiz. Ular ma`naviyatning eng muhim timsollari sifatida ona-Vatan — O'zbekiston Respublikasiga iftixor va cheksiz hurmat tuyg'ularini tarbiyalaydi. Prezidentimiz aytganidek, Vatan tuyg'usi vatan tushunchasi biz uchun sajdagohday muqaddas, sajdagohday pok va ulug' bo'lmog'i kerak. «Biz ona Uzbekiston istiqlolini, uning sha`nu-shavkatini qanday himoya etishni ota-bobolarimizdan meros qilib olamiz va uning himoyasiga hamisha tayyor turmog'imiz darkor. Ulug' ajdodlarimizdan muqaddas meros bo'lib kelayotgan vatanga muhabbat tuyg'usi, farzandlarimiz, bugungi va kelajak avlodlarimiz uchun chinakam e`tiqodga, chinakam aqidag.a aylansin.

Milliy g'urur, milliy iftixori baland millatnn yengib bo'lmaydi»[1].

Sobiq SSSR davrida SSSR va O'zbekiston SSR Konstitutsiyalarida O'zbekiston suveren respublika deb yozib qo'yilgan bo'lsa-da, Markaziy Osiyoda O'zbekistondek kelajagi buyuk, ko'hna tarixi, boy tabiiy, iqti-sodiy, madaniy va ilmiy (merosga ega qudratli davlat bor ekanligini jahon mamlakatlarining aksariyati bilmas edi, chunki Uzbekiston shu paytlarda mustaqil siyosat va faoliyat yurgizib, chet elga chiqish huquqidan mahrum etib qo'yilgan edi. Endilikda istiqlol uiapofati bilan bizning dovrug'imiz olamga yoyildi. Hozirning o'zida O'zbekistonni dunyodagi 160 tadan ortiq davlat tan oldi. Ulardan ]20 tasi bilan diplomatiya munosabatlari o'rnatildi. O'zbekiston poytaxtida 35 dan ortiq mamlakatning, shu jumladan, buyukligi e`tirof etilgan AQSh, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Frantsiya va Xitoy kabi davlatlarning elchi-xonalari ishlab turibdi. O'z navbatida duyoning 20 dan ortiq davlatida (AQSh, Germaniya, Frantsiya, Turkiya, Hindiston, Rossiya va boshqalarda) respublikamizning diplomatiya elchixonalari ish boshladi»[2].

O'zbekistok bayrog'i Birlashgan Millatlar Tashkilotida hilpirab turibdi. Prezidentimiz Islom Kari-mov Birlashgan Millatlar Tashkilotining 48-, 50-sessiyalarida buyuk minbardan turib jahon xalqlariga o'zbeklarning kim ekanligini namoyon etdi. Axir bu xalqimiz hayotida katta tarixiy voqea-ku! Bundan faxrlanmaslik aslo mumkin emas!

Milliy ongimizning rivojlanib borishining yana bir ko'rinishi shundan iboratki, jamiyatimizning zahmatkash fuqarolari eski andozalar va soxtalashgan g'oyalardan voz kechib, bozor munosabatlariga mos yangicha fikrlashga, tafakkurlashga qodir bo'lmoqdalar. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribalarini ijodiy o'rganib, o'z imkoniyatlarimizdan samarali foydalangan holda yangi ilg'or texnologiya, fan va texnika yutuqlariga suyanib, zamonaviy iqtisodiy, moliyaviy bank va kredit sistemasini, boshqaruv usullarini hayotga tatbiq etib, kelajagi buyuk davlatimiz poydevorini mustahkamlash uchun astoydil mehnat qilib kelmoqda. Respublikamiz mehnatkashlari yuksak madaniyatga, ma`naviyatga ega iste`dodli ishbilarmon, zahmatkash kishilar ekanini xorijdan kelgan mutaxassislarning o'zi tan olmoqdalar.

Xorijiy mamlakatlar bilan yangicha tashqi iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, ma`naviy munosabatlarni shakllantirish va rivojlantirishda ham o'zbek xalqi o'zining yuksak madaniyati va ma`naviyatini namoyish etmoqda. Bunga respublikamizda muntazam ravishda yuksak darajada o'tkazilayotgan dolzarb mavzular va muammolarga bag'ishlangan ilmiy va amaliy anjuman-lar, seminarlar, kongresslar va boshqa tadbirlar mi-sol bo'la oladi.Milliy g'urur — har bir millatning o'z-o'zini anglashi natijasida sodir bo'ladigan ichki ruhiy kayfiyati. Bu tuyg'u o'z ona zamini, avlod-ajdodlari tomonidan qoldirilgan moddiy, ma`naviy merosdan, o'z millatining jahon tsivilizatsiyasiga qo'shgan hissalaridan, o'zga millatlar oldidagi qadr-qimmati, obro'-e`tiboridan faxrlanish hissiyotidir. Milliy g'urur o'z millatining chinakam fidoyisi bo'lgan har bir insonga xos ichki ruhiy tuyg'udir. O'z millatini sevadigan har bir inson, uning yutuqlari, obro'-e`tibori bilan faxrlanadi, zavqlanadi. uning muammolariga befarq qarab tura olmaydi. Milliy g'ururi yuksak inson, o'z eliga, millatiga jonkuyar bo'ladi, uning muvaffaqiyatlaridan ich-ichidan faxrlanadi, quvonadi. Milliy g'urur har bir kishida o'z millatining moddiy, ma`naviy meroslarini o'zlashtirish, urf-odatlari, an`analari, qadriyatlarini va tarixini mukammal bilish hamda uni o'zga millatlarniki bilan qiyoslash natijasida shakllanadi. Buning natijasida unda o'z millatiga mehr-muhabbati oshib boradi.

Milliy g’ururi mustaxkam bo’lgan millat vakillarining birligi ham mustahkam bo’ladi, bunday millatni qurol kuchi bilan yengish mumkin emas, uni ma`naviy-ruhiy jihatdan ham yengib bo’lmaydi. Uning ichki ruhiy qudrati millat qadrini ko’tarishning yengilmas salohiyati sifatida saqlanib qoladi va millatni rivojlantirishning mustahkam zamini bo’ladi. Bunga jahonda millatlar rivojlanishi tarixidan ko’plab yorqin misollarni keltirish mumkin.
O’zini o’zbek millatining vakiliman deb hisoblaydigan har bir inson avlod-ajdodlarimizdan qolgan takrorlanmas boy moddiy va ma`naviy merosdan, jahon tsivilizatsiyasiga qo’shgan buyuk hissalaridan, ularning chinakam vatanparvarlik, xalqparvarlik, insonparvarlik, Vatan ozodligi yo’lida ko’rsatgan jasorat va mardliklaridan faxrlanadi hamda ularning an`analarini davom ettirish ruhiyatiga ega bo’ladi. Bugungi kunda Vatanimizning o’z mustaqilligini qo’lga kiritishi har bir o’zbek millati vakilining milliy g’ururini oshirdi, uning qaddini ko’tardi va unda o’z xalqi, ona zamini, avlod-ajdodlar oldida millat manfaatlarini himoya qilishdagi mas`uliyatini his qilish ruhiyatini shakllantirmoqda. O’zbek millatining o’z Vatani mustaqilligidan faxrlanish tuyg’usining o’sib borishi yangi jamiyat qurish jarayonida vhjudga kelgan muammolarni vazminlik bi-lan hal etish va O’zbekistonning jahonda obro’-e`tiborini mustahkamlashning muhim omili bo’lib xizmat qiladi. Chun-ki millmy g’urur faqat faxrlanish ruhiyati bo’lib qolmay, millat taqtsiri, kelajagi yo’lidagi mas`ulligini xis eta bilish salohiyati hamdir.
Milliy g’urur masalasi istibdod davrida barcha millatlarda, shu jumladan, o’zbek millatida, eng kamsitilgan va ongli ravishda huqmron mafkura tomonidan zaiflashtirilgan milliy his edi. Chunki, milliy g’ururning o’sishi, mustahkamlanishi istibdod tuzumining millatlarni jadallik bilan yaqinlashtirish va qo’shib yuborish siyosatiga zid edi. Holbuki, millatning kuchi, salohiyati, bunyodkor-lik faoliyati ko’p jihatdan milliy g’ururga bog’liq. O’z millatini tanigan, unga mansub ekanligidan mag’rur kishigina bu mag’rurlik hissini saqlashga, mustahkamlashga va o’z millatining pastlashib, qoloqlik girdobida qolib ketmasligi uchun kurashdek olijanob ishga o’zini doim safarbar etadi.

Afsuski, chorakam bir asr davom etgan istibdodlik tizimining targ'iboti va tashviqoti kishilarga salbiy ta`sir etmasdan iloji yo'q edi. Shuning oqibatida milliy g'urur bo'shashdi, kishilardagi milliy g'urur tushunchasi ko'p jihat-dan o'z sifatlari va qirralarini yo'qotdi. Milliy g'ururni mustahkamlash va boyitish uchun, birinchidan, o'z tariximizni, xalqimizning insoniyat oldidagi xizmatlarini yaxshi bshgashimiz; ikkinchidan, hozirgi hayotimizda yuksak milliy g'ururga ega bo'lishga haqli ekanimizni kundalik sifatli mehnat, jahon andozalari va mezonlariga javob bera oladigan xilma-xil mahsulot ishlab chiqarishimiz, mazmunli ma`naviy hayotimiz bilan tasdiqlab borishimiz zarur. Milliy g'urur o'z millatini boshqa millatlarga qarshi qo'yishni inkor etadi. Boshqa millatlarning barcha yutuq va ilg'or tomonlarini qabul qilib olib, milliy asosda o'zlashtirish milliy g'ururning tarkibiy qismidir.

Milliy g'urur masalalari, istibdod tuzumining ta`si-rida, «qaltis» mavzular qatoridan joy olgan edi. Vaholanki, milliy g'ururi yo'q kishi o'z millatining va boshqa millatlarning hayotiga, o'tmishiga, ularning insoniyat oldidagi xizmatlariga qiziqmaydi va shu sababli yo o'z millatini, yo boshqa millatlarni hurmat qilmaydi.Mustaqil O'zbekistonda qarolarimizning milliy g'u-rurini ko'tarish, boyitish va mustahkamlash — eng dolzarb, murakkab va bajarilishi zarur vazifalardan biridir.

## 2.3. O'quvchilarda Vatan ravnaqi g'oyasini shakkllantirish tamoyillari va mazmuni

Ulug' ajdodlarimizdan meros bo'lib kelayotgan an`analarni davom ettirish, boy tarixiy meroslarimizni o'rganish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biridir. O'quvchilarni vatanga muhabbat, harbiy xizmatga moyil ruhda tayyorlash bilan milliy istiqbolimizning ravnaqiga hissa qo'shuvchi yoshlarni tarbiyalash asosiy masaladir. Jamiyatimiz yangilanish jarayonida yangicha dunyoqarash madaniyatini shakllantirish, shaxsning mustaqil fikrlashga o'rganishi yurtimiz shonu-shavkatini himoya qilishda buyuk sarkarda Amir Temurning harbiy sirlarini o'rganish, vatanga muhabbat tuyg'usini o'quvchilar ongiga singdira borish, o'quvchilarni jismoniy tayyorgarligiga katta e`tibor berish, harbiy kasblarga yo'naltirish, vatanni himoya qilishdek muqaddas burchdir.

Vatan, bu xalqning o'tmishi, buguni va kelajagidir. Vatan ravnaqi g'oyasi bizga avlod-ajdodlarimizdan o'tgan merosiy tuyg'u. Abdulla Qodiriy ham: "Moziyga qaytib ish ko'rish xayrlik deydilar",-deb bejiz aytmagan. U har bir kishida o'z uyiga, tug'ilib o'sgan yurtiga bo'lgan munosabatda aks etadi.

XVI asrda yashab ijod etgan buyuk ajdodimiz Zahiriddin Muhammad Bobur o'z yurtidan uzoqda turib, ona yurtiga bo'lgan mehr-muhabbatini tasvirlab hamda Vatanini qo'msab shunday yozgan:

Tole` yo'qqi jonimg'a bololig' bo'ldi,
Har ishniki ayladim xatolig' bo'ldi.
O'z erni qo'yib Hind sori yuzlandim,
Yorab netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi.

Vatanni sevish vatanparvar bo'lish demakdir. Ulug' ma`rifatparvar adib Abdulla Avloniy vatanparvarlik tuyg'usiga "Turkiy guliston yoxud ahloq" asarida ta`rif berib-"Biz turkistonliklar o'z vatanimizni jonimizdan ortiq suydig'imiz kabi, arablar arabistonlarini-qumlik, issiq cho'llarini, eskimolar shimol taraflarini-eng sovuq qor va muzlik erlarini boshqa erlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson erlarga o'z vatanlarini tashlab xijrat qilur edi",-deydi.

Bizning zaminimiz ham dunyo taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan Abu Ali Ibn Sino, Abu Nasr Farobiy, Al Xorazmiy, Abu Rayxon Beruniy, Alisher Navoiy kabi buyuk allomalarni etishtirib berganki, ularga ham Vatan onadek mo'`tabar, ardoqli bo'lgan. Ona zamin tuprog'i bizga mana shunday buyuk ajdodlarimiz ruhini saqlab kelayotgani uchun ham azizdir.

Buyuk mutafakkirlarimiz bizga meros qoldirgan milliy va madaniyat qadriyatlarda vatanparvarlik tuyg'usi chuqur o'rin egallaydi. Bu esa Vatanni sevishga, ardoqlashga, o'z yurtiga, ona eriga sodiq bo'lishga, Vatan taraqqiyotiga hissa qo'shishga, fidoyilik bilan mehnat qilishga da`vat etadi.

O'zbekiston istiqlolini mustahkamlashda va uni taraqqiy ettirishda ma`naviy sog'lom avlodni kamol toptirishda buyuklarimiz merosiga suyanamiz. Buning uchun har bir insonda yoshligidanoq quyidagilarni mujassamlashtirish maqsadga muvofiqdir:

- Mustaqilligimizni his etish;
- O'zbek milliy va madaniy qadriyatlaridan faxrlanish;
- Yangi jamiyat qurish, unda yashash va mehnat qilishni bilish;
- Mustaqil O'zbekistonning madhiyasi, bayrog'i, gerbini qalbiga jo qilish va avaylab-asrash;
- Yoshlarimiz qalbiga milliy g'ururni chuqur singdirish
- Yoshlarimiz ongida Vatan va Vatan ravnaqiga hissa qo'shish oliy burchligi haqida tushunchalar bilan boyitib borish

Demak, yoshlarga biz vatanparvarlik, Vatan ravnaqi tushunchalarini chuqur singdira olsakgina, kelajagi buyuk davlat qurishdek ko'zlagan maqsadimizga erishamiz.

Bitiruv malakaviy ishining mazkur bobida "Men nechun sevaman O'zbekistonni", "O'zbekiston-jannatmakon diyor", "Vatanga sodiqlik-muqaddas burch", "SHu aziz Vatan-barchamizniki", "Millat ruxidagi bunyodkorlik", "Milliy g'oya", "g'oyaga qarshi g'oya, fikrga qarshi fikr" kabi mavzularga oid mashg'ulotlar mazmuni yaratilgan va ularning o'quvchilar bilimi, dunyoqarashini shakllantirishda hamda Vatan ravnaqi g'oyasining asl moxiyatini ochib berishdagi

axamiyati ko'rsatilgan. Ushbu mashg'ulotlar orqali O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning ozod va obod Vatan, ona zaminga bo'lgan muhabbat, uni sevish,e'zozlash, ardoqlash va Vatan ravnaqi haqidagi g'oyalarini o'rganish; ona-yurt tarixini bilish va u bilan faxrlanish; xalqimizning ma'naviy merosini o'rganish va mustaxkamlashda faol ishtirok etishga jalb etish; adolatli, huquqiy, demokratik fuqarolik jamiyatini qaror toptirishda xar bir shaxsning faolligiga erishish; tinchlik, barqarorlik va osoyishtalikni saqlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni bilish xamda xurmat qilish; O'zbekistonning jaxondagi o'rni yuksak darajada va kelajagi buyuk davlat ekanligi bilan bog'liq bilim, ko'nikma va malakalar shakllantirilishi nazarda tutilgan; o'quvchilarning erkin fikrlay olish qobilyatlarini to'g'ri yo'naltirishga oid tavsiyalar berilgan; vatan ravnao'i g'oyasini shakllantirishning tizimi, shakllari, vositalari va mazmuni ishlab chiqilgan.

Shuningdek, bitiruv malakaviy ishningning mazkur qismida yurtimizda keng nishonlanayotgan "Mustaqillik bayrami", "Konistituttsiya kuni", "Ustoz va murabbiylar kuni", "Navro'z", "Xotira va qadrlash kuni " kabi bayram va turli milliy marosimlar, shuningdek, ulkan bunyodkorlik ishlari Vatan ravnaqi g'oyasi bilan, xususan, uning "Milliy o'zlikni anglash", "Milliy g'urur", "Milliy ong", "Mustaqil fikrlash", "Qadriyatlar", "Adolatparvar bo'lish", "Ilm egallash", "Vatan yagonadir, Vatan bittadir", "Elim deb, yurtim deb, yonib yashaylik" kabi tamoyillari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, talaba yoshlarda vatanparvarlik xas tuyg'usini oshirishga xizmat qilishi ko'rsatilgan.

Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir

Yurtboshimiz I. A. Karimov : "… yuksak maqsadlarga erishishning hal qiluvchi omillaridan biri bu – hech shubhasiz, mamlakatimiz aholisining ongu tafakkuri va dunyoqarashida yuz berayotgan o'zgarishlar, uning hayotga, mehnatga bo'lgan munosabati, tobora o'sib borayotgan siyosiy va huquqiy madaniyati, desam, aslo mubolag'a bo'lmaydi" – deb ta'kidlaydi.

"Eski mustabid o'tmishning og'ir yuki va merosi hayotimizda barham topmoqda, odamlarimiz bugungi kunda shiddat bilan o'zgarib borayotgan dunyoda ro'y berayotgan voqealarning mohiyatini yaxshi tushunib yetmoqda, ularning milliy manfaatlarimizga naqadar javob berayotgani yoki bermayotganini o'ziga aniq tasavvur etmoqda. Nega deganda, shuni hech qachon unutmasligimizni istardim, biz ko'pni ko'rgan, kurashlarda toblangan, or-nomusimiz, qadr-qimmatimizni, muqaddas dinimiz va qadriyatlarimizni yuksak baholaydigan xalqmiz", – deb o'zbek xalqiga ishonch bildiradi Prezidentimiz I. A. Karimov. Yurtboshimiz I. A. Karimov yoshlarga ishonch bildirib: "… bizning eng katta tayanch va suyanchimiz, hal qiluvchi kuchimiz yosh avlodimizdir. Bu – O'zbekistonda tashkil etilgan, dunyo miqyosida katta qiziqish va havas uyg'otayotgan mutlaqo yangi o'quv tizimida yuksak ta'lim-tarbiya olayotgan, eski asoratlardan, qarashlardan uzoq bo'lgan, zamonaviy kasb-hunarlarni o'zlashtirgan, mustaqil fikrlaydigan, ertangi kunga intilayotgan bizning farzandlarimizdir", - deydi.

"Har yili mamlakatimizda 600 mingdan ziyod butunlay yangicha shart-sharoit va muhitda kamol topgan yosh avlod vakillari katta hayotga yo'llanma olmoqda.

Ayni vaqtda o'quvchi qizlarni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish va rag'batlantirish maqsadida 190 mingta sport kiyimlari to'plami ularga sovg'a tariqasida berilgani, 50 ming nafar bola bepul, 270 ming nafar bola esa imtiyozli asosda yozgi oromgohlarda dam oldirilganini ta'kidlash lozim. Shuningdek, yurtimiz bo'yicha mingdan ortiq ijtimoiy yordamga muhtoj bo'lgan yosh oilaning

nikoh to‘ylari homiylar mablag‘lari hisobidan o‘tkazib berildi”, - deydi yurtboshimiz I. A. Karimov

“Yetuk va barkamol avlodni tarbiyalashda oilaning o‘rnini kuchaytirish, oila institutining ta’lim va tarbiya muassasalari bilan amaliy hamkorligini mustahkamlash bo‘yicha ham salmoqli ishlar bajarildi. Bu haqda gapirganda, oila, mahalla va ta’lim muassasasi o‘rtasidagi hamkorlikni, uning samarasini kuchaytirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilib, amalga oshirilayotganini qayd etish o‘rinlidir”, - deya ta’lim-tarbiyada hamkorlikning ahamiyatinin yuksak baholaydi Prezidentimiz I. A. Karimov.

Mamlakatimizda yosh avlodni har tomonlama rivojlanishini ta’minlash borasidagi ishlarga to’xtalib, I. A. Karimov shunday deydi: ”... yurtimizdagi 4,5 milliondan ziyod o‘quvchining 76 foizi maktablar va “Barkamol avlod” bolalar markazlarida tashkil etilgan fan, musiqa va san’at to‘garaklarida, sport mashg‘ulotlarida faol ishtirok etmoqda. Yil davomida mingga yaqin umumta’lim maktabi zamonaviy kompyuter xonalari, 1 ming 150 tadan ziyod kasb-hunar kollejidagi o‘quv ustaxonalari amaliy mashg‘ulotlar uchun zarur bo‘lgan jihozlar, xomashyo mahsulotlari bilan ta’minlandi. “Elektron ta’lim” loyihasi doirasida oliy o‘quv yurtlarining kutubxona fondlarini elektron shaklga o‘tkazish borasidagi dasturiyishlarboshlandi”. ”Birgina joriy yilning o‘zida 168 ta bolalar sporti ob’ekti foydalanishga topshirildi va bugungi kunda 6 yoshdan 15 yoshgacha bo‘lgan 1 million 600 mingdan ziyod bolalarimiz sport bilan muntazam shug‘ullanish imkoniga ega bo‘ldi”, - deydi yurtboshimiz I. A. Karimov.

”...hayotimizni yanada sog‘lom va obod qilish, avvalo ayol zotining jamiyatimizdagi o‘rni va nufuzini, ijtimoiy faolligini yanada oshirish, xotin-qizlarning turli jabha va yo‘nalishlarda qilayotgan ishlarini munosib baholash, har qaysi xonadonda uy bekasi bo‘lmish opa-singillarimizning og‘irini yengil qilish asnosida turmushimizni farovon etish bilan uzviy va chambarchas bog‘liqdir. Ana shu haqiqatni amalda qaror toptirish uchun bizning hali qiladigan ko‘p ishlarimiz borligini unutmasligimizni istardim”, - - deydi yurtboshimiz I. A. Karimov.

Prezident Islom Karimov O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi va senatining qo’shma majlisida ma`ruza qildi.

Bu o’z navbatida jamiyatimizning o’tgan davr mobaynida demokratik o’zgarishlar, har qaysi fuqaroning tanlash erkinligini ta`minlash va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo’lida tom ma`noda qanday ulkan qadamlar qo’yganini yana bir bor tasdiqladi.

Bo’lib o’tgan saylovlar aholimizning yuksak ijtimoiy-siyosiy madaniyatini, uning siyosiy va fuqarolik ong darajasi tobora o’sib borayotganini saylovchilar mamlakatni isloh etish va modernizatsiya qilish jarayonlarini chuqurlashtirish yo’lidan izchil ilgarilab borayotganimizni keng qo’llab-quvvatlayotganini namoyish etdi.

“Iqtisodiy, siyosiy gumanitar sohalarda jadal rivojlanayotgan islohatlarni amalga oshirish uchun xayotiy zarur bo’lgan qonunlarni kiritish tashabbusi bilan chiqishda va ularni qabul qilishni tezlashtirishda deputatlar korpusining sustkashligi, bu borada etarlicha faollik ko’rsatmayotganligi jiddiy kamchilik hisoblanadi”[20]-deb tanqidiy fikr bildirdi Respublika Prezidenti I. Karimov.

Keyingi besh yil mobaynida Qonunchilik palatasiga taqdim etilgan 297 ta qonun loyihasidan atiga 44 tasi deputatlar tashabbusi bilan kiritilgan.

Bugungi kunda davlat va jamiyat qurilish sohasida mamlakatimiz oldida o’zining miqyosi va qamroviga ko’ra ulkan vazifalar turibdi.

Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi xali beri davom etayotgan og’ir bir sharoitda iqtisodiyotimizning yanada barqaror rivojlanishini ta`minlash, uni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni texnik qayta jihozlash borasidagi ishlarni izchil davom ettirishimiz zarur.

Ayni paytda, shuni ham o’zimizga yaqqol tasavvur qilishimiz kerakki, iqtisodiy o’sishni ta`minlash, odamlarimizning xayot darajasini yanada yuksaltirish, sotsial iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy sohalardagi boshqa ko’plab

---

[20] Karimov.I.A Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish- ustivor maqsadimiz. “Xalq so’zi” 28 yanvar’. 2010 yil №04.

vazifalarga ijobiy echim topish eng muhim bir vazifani muvaffaqiyatli hal etishni talab qiladi.

Bu vazifa, avvalambor, demokratik islohatlarni erkinlashtirish, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lidan jadal va samarali ilgarilab borishdan iboratdir.

“Barkamol avlod yili” davlat dasturi mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishi, mamlakatimiz yigit-qizlari XXI asr talablariga to'liq javob beradigan har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga etkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratish bo'yicha keng ko'lamli aniq yo'naltirilgan chora tadbirlarni amalga oshirish mavzusida qabul qilindi.

“Yosh avlodni jismonan barkamol etib tarbiyalash, bolalar sportini rivojlantirish sohasida, yoshlarni ayniqsa qishloq qizlarini sport bilan muntazam shug'ullanishiga jalb etish, yuqori malakali ustoz va murabbiylar bilan mustahkamlash ishlarini kuchaytirish, ilm-fanni yanada rivojlantirish, iqtidorli va qobiliyatli yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ularning o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun imkoniyatlar yaratiladi”-deb ko'rsatiladi “Barkamol avlod yili”-davlat dasturida.[21]

Yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ularni ichkilikbozlik va giyoxvandlik illatlaridan boshqa turli xalokatli tahdidlar hamda biz uchun yot bo'lgan diniy va ekstremistik ta`sirlardan tuban “ommaviy madaniyat” xurushlaridan himoya qilishga doir chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Bu muqaddas zaminda g'ursiz, iftixorsiz yashab bo'lmaydi. Shaxsan men o'zbek bolasi qaerda bo'lmasin, doimo o'z yurtiga sajda qilib uning tuprog'ini ko'ziga to'tiyo etib yashashini istardim. Har qanday sharoitda ham or-nomus degan tushunchani baland tutib, shunday buyuk yurtga tmunosib farzand bo'lib yashash kerak. “Or-nomus” degan so'zning boshqa tillarda o'xshashi, tarjimasi yo'qligining o'za ham Yaratganimiz bizning xalqimizga qanday ulug', qanday beqiyos fazilatlar ato etganini anglatmaydimi?

[21] “Barkamol avlod yili” dasturi. “Xalq so'zi” №04. Toshkent. 2010 yil.

Men Prezident-davlat rahbari sifatida mamlakatimizni rivojlantirish, turmushimizni obod qilish, xalqimiz, avvalambor, yoshlarimizning erkin va farovon hayot kechirishi uchun nimaiki kerak bo'lsabarcha-barchasini tashkil qilib berishga, ana shu ezgu maqsad yo'lida hayotimni bag'ishlashga hamisha tayyorman[22].

Yurtboshimiz bejizga "Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma`rifat", degan aqidani ilgari surganlari yo'q. Darhaqiqat, ma`naviy tahdid manbalari haqida o'ylab qarasak, mafkura quroining g'ayriinsoniy va g'ayrimilliy jihatdan milliy ma`naviyatimizga yot ekanligini ko'ramiz va kurrai zaminni ostin-ustin qilib yuborishi mumkinligiga amin bo'lamiz. SHunday ekan, dunyoni manfaatlar boshqarayotgan hozirgi murakkab sharoitda har birimiz jamiyatning faol a`zosi sifatida yurtimizga, demakki, bizga bo'ladigan turli ko'rinishlardagi xurujlarga xushyor va ogoh turishimiz lozim. Zero, jonajon Vatanimiz mustaqil diyorimiz xavfsizligimizdir. Buning uchun yuz berayotgan voqea-xodisalarga teran ko'z, xolis nigoh bilan baho bera olish, zamon bilan hamnafas qadam tashlash uchun xalqaro miqyosda sodir bo'layotgan voqea-hodisalardan doimo xabardor bo'lib borishimiz zarur.

## Ikkinchi bobga xulosalar

Zero, biz o'z erkimizni qo'lga kiritganimizdan so'ng oldimizga qo'ygan ezgu orzu-umidlarimiz, xayrli maqsad-murodlarimiz ro'yobiga erishish, ayni paytda, jonajon Vatanimizning xalqaro maydondagi obro'-e`tiborini yuksaltirish yo'lidagi yana bir muhim mezon borki, u-milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'usidir. Binobarin, bu muqaddas zaminda asrlar mobaynida ko'plab millat va elat vakillari qo'lni qo'lga berib, bir yoqadan bosh chiqarib, elkama-elka, ahil-inoq tarzda yashab kelmoqda. Mamlakatimizdagi millatlaro totuvlik, dinlararo bag'rikenglik muhiti istiqlol tufayli yanada mustahkamlandi. Shu bois ham, bugungi kunda yurtimizda 130 dan oshiq millat va elat vakillari O'zbekistonni umumiy uy sifatida

---

[22] Karimov.I.A. Mamlakatimizning taraqqiyoti, el-yurtimiz farovonligi, vatanimizning obro'-e`tiborini yanada oshirish yo'lida mehnat qilish-muqaddas burchimiz. Xalq so'zi. 2013 y. 3 aprel

bilib, bir oila farzandlaridek bahamjihat yashab, yagona maqsad-yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi yo'lida halol mehnat qilib kelmoqda.

Ha, Vatanimizning ravnaqi, yurtimizning osoyishtaligi-yu, istiqbolimizning nurafshon bo'lishi har birimizga bog'liq. Faqat atrofimizda sodir bo'layotgan voqealarga befarq bo'lmay, har bir shubhali xolatga sinchkovlik bilan munosabatda bo'lib yashash bizning fuqarolik burchimizdir. O'z uyimiz, mahallamiz yoki qishlog'imiz, umuman, butun diyorimizning tinchligi o'z qo'limizda.

# III BOB O'quvchilarda milliy g'ururni shakillantirish orqali vatanparvarlikni tarbiyalashga oid tajriba – sinov ishlarining umumiy mohiyat

## 3.1. Tajriba – sinov ishlari metodikasining mazmuni va mexanizmi

***I bosqich***

**Vatanparvarlik**

*YUqori daraja*

Turkiston, O’zbekiston haqida tasavurlari keng. YOlg’iz Vatani O’zbekiston ekanini e’tiqodga aylantirgan; O’zbekistonning kelajagi buyukligiga so’zsiz ishonadi; istikdol tarixi, mamlakatimizda sodir bo’layotgan mu-him boqealarni, islohotlar yutuqlarini yaxshi biladi; O’zbekiston va uning buyuk farzandlari bilan faxrlanadi; O’zbekiston vatanparvarligi mohiyatiga ega bo’lgan tadbirlarda faol ishtirok etadi; o’lka tabiatini e’zoz-laydi, bu ishga boshqalarni ham chorlaydi; o’zini O’zbekiston himoyasiga tayyorlay boradi; fidoyi; O’zbekiston tarixi, kelajagiga befarqlik, yot g’oyalar namunalarini uchratsa, murosasizligini namoyon qiladi.

*O’rta daraja*

O’zbekiston tarixi, hozirgi hayoti haqida tasavur-larga ega; O’zbekistonning kelajagi buyukligiga isho-nadi; respublikamizda sodir bo’lgan muhim boqealar, tarixiy siymolar xizmatlari, millat shoniga shon qo’shgan kishilar haqida bilimlarga ega; o’lka tabiati-ni avaylaydi; harbiy-vatanparvarlik malakalariga ega; faol; O’zbekistonga befarqlik, vatanga befarqlik hol-larini qoralaydi; o’z kelajagini O’zbekiston kelajagi bilan birligini tushunadi.

*Past daraja*

O’zbekistonning tarixi, hoziri va kelajagi haqida mustaqil fikrga ega emas; Respublika hayotiga oid mu-him boqealarni bilmaydi; tabiatni e’zozlaydi; ij-timoiy faoliyatda sust; Vatanga befarqlik hollarini anglamaydi.

*Qoniqarsiz daraja*

O’zbekistonning hayoti, taqdiri bilan qiziqmaydi, bu haqda o’ylamaydi; tabiatni, atrof-muhitni bema-lol ifloslashtiraberadi; o’zini Vatan himoyasiga

tayyor-lashdan olib qochadi; vatanparvarlikning namoyon bo’li-shi namunalarini qabul qilmaydi yoki istehzo bilan munosavat bildiradi.

## Milliy g’urur

*YUqori daraja*

O’zining etti pushtini, milliy farzandlik burchla-rini chuqur anglaydi; o’zbek xalqiga uning san’ati, an’analari, tili, madaniyatiga hurmatini doimo va hamma erda namoyon qiladi; millat tarixi, allomala-ri haqida chuqur bilim va minnatdorlikni namoyon qiladi; manqurtlik, milliy majhullik, millat tarixi va taqdiriga befarqlikni ko’rganida millatdoshla-rini qaytarishga faol harakat qiladi; «o’zbekchili-k»ning barcha ilg’or qirralarini taraqqiyparvarlik bilan uyg’unlashtirishni dasturilamalga aylantira boradi.

O’rta *daraja*

O’zining o’zbek xalqi oldida farzandlik burchi bor-ligini anglaydi; o’zbek xalqini, tilini, madaniyatini, san’atini hurmat qiladi; xalq tarixi, allomalar me-roslarini biladi, hurmat qiladi; manqurtlik, milliy majhullik, millat tarixi va taqdiriga befarqlikni qoralaydi; o’zining milliy mas’uliyatini anglaydi.

*Past daraja*

O’z xalqi oldidagi har qanday burch, mas’uliyatni his qilmaydi; o’zbek san’ati, tarixi, madaniyati, tiliga, allomalari merosiga e’tiborsiz; manqurtlik, milliy majhullik, ona xalqi tarixi va taqdiriga befarq; «o’z-bekchilik»ning eng ilg’or qirralaridan bexavar va qiziqmaydi.

*Qoniqarsiz daraja*

O’zbek xalqi oldidagi har qanday burch, mas’uliyatni inkor qiladi; o’zbek xalqi tarixi, san’ati, tili, allo-malari merosiga bepisand munosavatda bo’ladi; milliy majhul, ona xalqi tarixi va taqdiriga befarqlikni, boshqa millat milliyligini o’z milliy qadriyatlari-dan ustun qo’yadi; «ommabiy madaniyat»ning salbiy na-munalariga ko’r-ko’rona taqlid qiladi.

## Vijdoniylik

*YUqori daraja*

Doimo va hamma joyda daxldorlikni, rostgo'ylikni namoyon etadi va targ'ib qiladi; aytgan so'zi va qilgan ishi doimo, hamma joyda bir xil; a'lo o'qish kerakligini biladi va a'lo o'qiydi; burch, mas'uliyatini doimo, hamma joyda sifatli vajaradi; bijdoni sof, pok; sinf, maktab, jamoa hayotidagi tadbirlarda ko'ngilli, faol ishtirok etadi; nohaqlik, adolatsizlikka doimo va hamma joyda murosasiz; noinsoflik, bijdonsizlik-ni ko'rganida so'z yoki yomon ko'rish bilan unga qarshiligini namoyon qiladi.

*O'rta daraja*

Rostgo'y, so'zini amalda namoyon qilishga harakat qiladi; a'lo o'qish kerakligini biladi va yaxshi o'qiydi; burch, mas'uliyatini yaxshi vajaradi; bijdonli, sinf, maktab, jamoa hayoti va tadbirlarida ishtirok etadi; nohaqlik va adolatsizlikni yomon ko'radi; noinsoflik, bijdonsizlikni yoqtirmasligini namoyon qiladi.

*Past daraja*

Rost va yolg'onni aralash gapirib turadi; so'zi va amali orasida farq mabjud; a'lo o'qish kerakligini biladi, biroq o'rtacha o'qiydi(a'lo o'qishga harakat qilmaydi), burch, mas'uliyatni his qilmaydi; sinf, maktab, jamoa hayotidagi tadbirlarda faqat talab qilingandagina ish-tirok etadi; nohaqlik va adolatsizlikning mohiyatini tushunmaydi; noinsoflik, bijdonsizlikni ko'rganida loqaydligini namoyon qiladi.

*Qoniqarsiz daraja*

YOlg'onchi; huda-behuda qasam ichaberadi; loqayd; so'zi va amali bir-biriga zid; a'lo o'qish kerakligini biladi va yomon o'qiydi; burch, mas'uliyatini tan olmaydi; faol qatnashishi kerakligini bila turib, sinf, jamoa hayoti-da tadbirlardan qochib yuradi; nohaqlik va adolatsiz-likning mohiyatini bila turib, o'zida namoyon qiladi; noinsoflik, bijdonsizlikni rag'vatlantiradi, targ'i-bot qiladi.

## Millatlararo muloqot madaniyati

*YUkrri daraja*

Vatanining gullab-yashnashining sharti — barcha millatlar do’stligi va totuvligiga bog’liqligini chuqur anglab etgan; jahonning har bir millati o’zbek millatidek go’zal an’ana, madaniyat sohibi ekaniga, millatlar o’zaro farqli va tengligini e’tiqodga aylantirish; millatlararo munosavatlarini takomillashtirishga qaratilgan tadbirlarda faollik, tashabbuskorlik ko’r-satadi; O’zbekistonga sadoqatli barcha xalqlarga hur-mat tuyg’usini bildiradi; O’zbekiston xalqlarining har bir vakiliga hurmat bildiradi; millatlararo muloqot, munosavatlarni yomonlashtirubchi fikr bildirgudek bo’lsa, unga dadil, asosli qarshi turadi.

*O’rta daraja*

Barcha millatlar huquqlarining tengligini yaxshi anglaydi; boshqa millatlar vakillari bilan muloqotga kirisha oladi; millatlararo munosavatlarini takomil-lashtirishga qaratilgan tadbirlarda qatnashadi; O’zbekiston xalqlariga hurmat hissi bor; millatlararo munosavatlarni yomonlashtirubchi fikr bildirilganda bunday fikrga qo’shilmaydi.

*Past daraja*

Faqat o’z milliy an’analarini qadrlaydi; avaylab asraydi; boshqa xalkdar milliy an’analariga e’tibor-siz; boshqa millatlar vakillari bilan muloqotdan o’zini tortadi; millatlararo munosavatlarni takomillashti-rishga qaratilgan tadbirlarda talab qilinsa, qatnasha-di; millatlararo munosavatlarni yomonlashtirubchi fikr bildirilganida uning zararli ekanini anglamaydi.

*Qoniqarsiz daraja*

Boshqa millatlar madaniyati, urf-odatlarini kamsi-tadi; boshqa millat vakillari bilan yomon munosavatda bo’ladi; o’z xalqini boshqa xalqlardan ustun qo’yadi; mil-latlararo munosavatlarni yomonlashtirubchi fikrlar bildiradi va shunga mos xatti-harakatlar qiladi.

## MILLIY ODOB-AXLOQ

*YUqori daraja*

Ota-onaga samimiy, yaqin, mehrini doimo va hamma joyda bildirib turadi; o'zbekona axloq me'yorlariga insoniylikni saqlab qolish kafolati sifatida ongli, e'tiqod bilan amal qiladi; ajdodlarga, yoshi ulug'larga hurmat-ehtiromni doimo va hamma joyda namoyon qiladi; mehmondo'stlikni so'z va amalda namoyon qiladi; o'zidan katta, yoshu qarini samimiy hurmat qiladi; jahli chiqqanida o'zini odob me'yorida idora qila oladi; shodlik va motam madaniyatining sohibi (to'y, motam marosimlarida o'z o'rnini, xizmatini biladi va faol amalga oshiradi); milliy odobga zid xatti- harakatlarni doimo va hamma joyda faol qoralaydi.

*O'rta daraja*

Ota-onasini hurmatlaydi; o'zbekona axloq me'yorla-rining rioya qilinishiga xayrixoh; yoshi ulug'larni hur-mat qiladi; mehmondo'st; jahli chiqsa o'zini idora qila oladi; marosimlarda o'zini tuta oladi; milliy odobga zid xatti-harakatlarni yoqtirmaydi.

*Past daraja* ,

Ota-onasining hurmat, izzatini joyiga qo'ya olmay-di; o'zbekona axloq me'yorlariga befarq munosavatda bo'ladi: manfaatli bo'lsa, biror kishi ko'rib, kuzatib turganini, vaholashini sezsa, yoshi ulug'larni hurmat qiladi; mehmondo'stlik madaniyatini tushunmaydi; teng-qurlarini «sen»laydi; qizishsa, o'zini idora qila ol-maydi; marosimlarda o'zini tuta olmaydi; milliy odobga zid xatti-harakatlarni befarq, bemalol kuzatadi.

*Qoniqarsiz daraja*

Ota-onasini xo'rlaydi; qaqshatadi; dilozorlik qila-di; o'zbekona axloq me'yorlariga eskilik sarqitlari, «madaniyatsizlik» deya munosavatda bo'ladi; yoshu qari-larni hurmat qilmaydi; so'kinadi, barchani sensirashga moyil; johil; marosimlarda buzg'unchilik qiladi; mil-liy odob me'yorlarini surunkali buzib yuradi.

## Mafkuraviy onglilik darajasi

*YUqori daraja*

Jonajon Vatan — O'zbekistonning jahon va Markaziy Osiyoda tutgan mabqeini, bir va butunligini chuqur, asosli anglaydi; O'zbekiston hukumati va Prezidenti ichki va tashqi siyosati haqida yoshiga mos darajada xavar-dor; milliy Davlat manfaatlarining guruhiy, firqabiy, mahalliy, qon-qarindoshchilik manfaatlaridan ustunli-gini teran anglaydi, dalillar bilan asoslaydi; O'zbe-kiston xalqining mafkurabiy birligiga zid tashqi (boshqa davlatlardan) va ichki (millatchilik, mahalliychilik guruhbozchilik va boshqa) bo'linishlarga qarshi tura oladi.

*O'rta daraja*

O'zbekistonning mustaqilligi, taraqqiyot yo'li, ichki va tashqi siyosatidan xavardor; milliy davlat manfa-atlarining guruhiy, firqabiy, diniy, mahalliy, qon-qarindoshchilik manfaatlaridan ustunligini tushunadi; milliy istiqlol mafkurasiga zid tashqi yoki ichki harakatlarning zararini anglaydi.

*Past daraja*

O'zbekistonda sodir bo'lgan va bo'layotgan islohotlar haqida tushunchalari sayoz, yuzaki; milliy davlat man- faatlarining ustun turishi shartligini anglamaydi; milliy istiqlol mafkurasining mohiyatini tushun- maydi.

*Qoniqarsiz daraja*

O'zbekistonning jahon va Markaziy Osiyodagi o'rni, mabqei bilan qiziqmaydi; shaxsiy, guruhiy, diniy, ma-halliychilik manfaatlarini milliy davlat manfaat-laridan ustun qo'yadi; milliy istiqlol mafkurasiga zid xatti-harakatlarni yoqlaydi.

**Milliy tarbiya uslublari**

Milliy tarbiyamiz o'zining boy uslubiy xazinasiga ega. Masalan, «kechirmoq» — tarbiyalanubchiga tarbiyabiy ta'sir o'tkazish maqsadida u yo'l qo'ygan xato, gunohni afb etmoq usuli; «o'ynamoq» atamasi — bu bola bilan unda ijobiy sifatlarni ribojlantirish, salbiy sifatlarni kamaytirish maqsadiga yo'naltirilgan, ma'lum qoida va usullar bilan ijro etiladigan o'yin-lar bilan o'ynash usuli va h.k. Bular o'zbek xalqining o'z farzandlarida ijobiy fazilatlarni ribojlanti-rish, salbiy xulq-atborlarni vartaraf qilish maqsa-dida qo'llagan va qo'llayotgan yo'l-yo'riqlar, harakat tar-tiblari, tarzlari tizimidir.

### 3.2. Tajriba – sinov ishlarining yakuni va samaradorlik ko'rsatgichlar

Dastlab, o'qubchilar buni o'zlariga xos sho'xlik bilan engil qabul qildilar. Biroq, keyinchalik ularning mu-nosavatlari o'zgarib, jiddiylasha bordi. CHunki ushbu ko'nikma — salomlashish odobi ularga singdirilayotgan milliy tarbiyabiy ta'sir tizimining tarkibiy qismi edi. Issiq, samimiy va tavassum bilan salomlashish ular ilgari o'ylaganidek oddiy, e'tiborsiz narsa emas, valki kishiga go'zal va samimiy munosavatni va bu orqali boshqa kishilarda o'ziga salom berubchiga go'zal va samimiy munosavatni hosil qilishi, bu esa o'qubchi-lar uchun, ya'ni bo'lajak shifokor, fermer, tijoratchi, menejerlar uchun qanchalik muhimligini tushuntirish ularda qiziqish, ma'nabiy va moddiy manfaatdorlik hislarini qo'zg'atdi. Bu choralar omuxtalashib, piro-vard natijada o'qubchilarda milliy odob turkumini tarbiyalashning muvaffaqiyatini ta'minladi.

Vatan ravnaqi g'oyasini shakllantirish tizimini amalga oshirish omillari ko'rsatilib, uning mezonlari belgilangan. Mezonlarni belgilashda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning mustaqillik yillaridagi Vatan ravnaqi g'ayalari, milliy istiqlol g'oyasi,"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlari va uning ma'naviy yo'nalishlari, o'quvchilarning aqliy imkoniyatlari, ularga qo'yiladigan ta'lim- tarbiyaviy o'quvchilar hisobga olindi. "Davlat va jamiyat istiqboli uchun kurashga tayyor bo'lish", "Komil insonni voyaga etkazish", "Ma'naviy merosga xurmat bilan munosabatda bo'lish", "Vatan tarixini o'rganishga muhabbat", "Vatanga sadoqat", "Vatanning ijtimoiy va madaniy yutuqlari bilan g'ururlanish", "Jamiyat quvonchi va tashvishlarini his etish", "O'z turar joyiga(qishloq, shaxar, viloyat, respublika) muxabbat", "Yurt tinchligi va farovonligi uchun mexnat qilish", "Millatlararo totuvlikni mustaxkamlashga hissa qo'shish", "Ijtimoiy-siyosiy faoliyatda faol ishtirok eish" kabi mezonlar asosida o'quvchilarda Vatan ravnaqi g'oyasini shakllantirish yuzasidan o'quvchilarning bilim darajalari aniqlandi.

Vatan ravnaqi, Vatan, vatanparvarlik, mustaqillik, istiqlol mavzulariga bag'ishlangan ma'ruzalar, suxbatlar uyushtirish xamda "Men Vatan uchun nima

qildim ?", "Vatan", "Vatan ostonadan boshlanadi" kabi mavzularda tarbiyaviy tadbirlar metodikasi ishlab chiqildi va ular amaliyotga joriy etildi. Ishlab chiqilgan mezonlar mezonlar asosida o'quvchilarda Vatan ravnaqiga oid ijtimoiy voqea-xodisalarni bilishga bo'lgan etiyoj xar qanday vaziyatda Vatanni ximoya qilishga tayyor bo'lish, Vatan va jamiyat taraqqiyoti uchun kurashish; kuch g'ayratini Vatan ravnaqini uchun safarbar etish, Vatanni anglashga xarakat qilish va uning natijalari bilan qiziqish; Vatanning gullab yashnashi uchun chin vijdon, yuksak burj va mas'uliyat kabi xis-tuyg'ularni shakllantirish kabi xususiyatlar kamol topgan.

O'tkazilgan tajribalar taxlili shuni ko'rsatadiki, o'rta maxsus kasb-xunar ta`limimuassasalari o'quvchilarida Vatan ravnaqi g'oyasini shakllantirish natijasida ularning adolatli, insonparvar, huquqiy demokratik davlatning moxiyatini chuqur tushunib etishlari isbotlangan. O'quvchilarda bilim olishga bo'lgan ishtiyoq kuchayib, mustaqil ishlarga intilish ortgan. O'quvchilarda Vatan ravnaqi g'ayasini shakllantirishda milliy tariximiz, xalq an'analari va urf-odatlardan keng foydalanish orqali ularning tadbirlarda faol ishtirok etishiga erishildi.

Vatan ravnaqi g'oyasi mazmun-moxiyati targ'iboti bo'yicha tashkil qilingan maxsus kurslarda buyuk allomalarning Vatan ravnaqi bilan bog'liq asarlari mazmunida ilgari surilgan g'oyalar asosida "Kamolot" YO.I.H bilan tadbirlar amalga oshirilib, "Balli, yigitlar" ko'rik tanlovi, she'riyat mulkining sultoni Alisher Navoiyning 566 yilligiga bag'ishlangan navoiyxonlik kechasi, "Universiada-2007" sport musobaqalari, "Sanamlar sarvari", "Navro'z –umumxalq bayrami" tadbirlari o'tkazilgan; o'quvchilarda Vatan ravnaqi g'oyasining shakllanganlik darajasi aniqlangan va ilg'or ish tajribalari ommalashtirilgan; Vatan ravnaqi g'oyasini shakllantirish tajribasini takomillashtirishning nazariy, uslubiy, amaliy yo'nalishlari tavsiya qilingan; o'quvchilarda Vatan ravnaqi g'oyasini shakllantirishning tasnifi ishlab chiqilgan; olingan natijalar yuqori, o'rta, quyi darajalarga bo'linib, Styudent-Fisher kriteriyasi bo'yicha taxlil etilgan.(1-jadval)

Tajriba boshida va yakunida talabalarda Vatan ravnaqi g’oyasining shakllanganlik darajasi

1-jadval.

| № | Mezonlar | Tajriba boshida | | | | | | Tajriba yakunida | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Yuqori | | O’rta | | Quyi | | Yuqori | | O’rta | | Quyi |
| | | O’quvchilar soni | | O’quvchilar soni | | O’quvchilar soni | | O’quvchilar soni | | O’quvchilar soni | | O’qu… soni |
| | | Tajriba | Nazorat | Tajriba | Nazorat | Tajriba | Nazorat | Tajriba | Nazorat | Tajriba | Nazorat | Tajriba |
| 1 | Davlat va jamiyat istiqboli uchun kurashishga tayyor bo’lish | 87 | 93 | 188 | 202 | 185 | 178 | 172 | 81 | 236 | 208 | 52 |
| 2 | Vatan tarixini o’rganishga muxabbat | 88 | 94 | 191 | 177 | 181 | 202 | 184 | 75 | 228 | 190 | 48 |
| 3 | Vatanga sadoqat | 93 | 100 | 183 | 209 | 184 | 164 | 146 | 82 | 263 | 221 | 51 |
| 4 | Vatanning ijtimoiy va madaniy yutuqlari bilan g’urulanish | 90 | 95 | 193 | 185 | 177 | 193 | 159 | 74 | 257 | 200 | 44 |
| 5 | Jamiyat quvonchi va tashvishlarini xis etish | 95 | 94 | 185 | 211 | 180 | 168 | 195 | 70 | 218 | 229 | 47 |
| 6 | Ma`naviy merosga xurmat bilan munosabatda bo’lish | 90 | 97 | 179 | 207 | 191 | 169 | 185 | 78 | 217 | 220 | 58 |
| 7 | O’z turar joyiga (qishloq, shaxar, viloyat, respublika) muhubbat | 87 | 93 | 192 | 201 | 181 | 179 | 172 | 78 | 240 | 210 | 48 |
| 8 | Yurt tinchligi va xalq farovonligi uchun mehnat qilish | 92 | 95 | 194 | 175 | 174 | 203 | 176 | 85 | 243 | 179 | 41 |
| 9 | Millatlararo totuvlikni | 93 | 93 | 174 | 158 | 193 | 222 | 175 | 86 | 225 | 160 | 60 |

| | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | mustvhkamlashga hissa qo'shish | | | | | | | | | | | |
| 10 | Komil insonni voyaga tekazish | 91 | 99 | 185 | 178 | 184 | 196 | 195 | 82 | 214 | 189 | 51 |
| 11 | Ijtimoiy-siyosiy faoliyatda faol ishtirok etish | 84 | 92 | 193 | 187 | 183 | 194 | 166 | 73 | 244 | 200 | 50 |
| | JAMI | 990 | 1045 | 2057 | 2090 | 2013 | 2068 | 1925 | 864 | 2585 | 2206 | 55 |

Yuqoridagi jadvaldan kelib chiqib, o'rta maxsus kasb-xunar ta`limimuassasalari o'quvchilarida Vatan ravnaqi g'oyasini shakllantirish yuzasidan olib borilgan tajriba-sinov ishlari natijalariga asoslangan xolda matematik-statistika metodi qo'llanildi. 11ta mezon bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarida tajriba guruxida 460 ta, nazorat guruxida 473 ta, jami 933 ta talaba ishtirok etadi. Tajriba-sinov ishlari natijasi quyidagi jadvalda o'z aksini topgan.

O'quvchilarda Vatan ravnaqi g'oyasining shakllanganlik darajalari bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichlari

2-jadval

| № | Guruhlar | O'quvchilar soni | Javoblar soni | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | Yuqori | O'rta | Quyi |
| Tajriba boshida | Tajriba | 460 | 90 | 187 | 183 |
| | Nazorat | 473 | 95 | 190 | 188 |
| Tajriba yakunida | Tajriba | 460 | 175 | 235 | 50 |
| | Nazorat | 473 | 79 | 200 | 194 |

Bu natijalar asosida tajriba boshidagi va tajriba yakunidagi ko'rsatkichlar diagrammalari quyidagicha bo'ladi:







Tajriba yakunidagi ko’rsatkichlarni foizlarda xisoblash uchun quyidagi fo’rmuladan foydalanamiz. Har bir talabaning o’zlashtirish koeffitsienti foizlarda

Bu erda J-o’tkazilgan tajribada savollarga berilgan to’g’ri javoblar soni. Q-o’quvchilarning umumiy soni.

3-jadval

| № | Guruhlar / Baho | Tajriba | Nazorat |
|---|---|---|---|
| 1 | Yuqori | $K_1 = \frac{175}{460} \bullet 100\% = 38\%$ | $K_2 = \frac{79}{473} \bullet 100\% = 16,6\%$ |
| 2 | O’rta | $K_1 = \frac{235}{460} \bullet 100\% = 51,1\%$ | $K_2 = \frac{200}{473} \bullet 100\% = 42,4\%$ |
| 3 | Quyi | $K_1 = \frac{50}{460} \bullet 100\% = 10,9\%$ | $K_2 = \frac{194}{473} \bullet 100\% = 41\%$ |

Olingan qiymatlar asosida St’yudent-Fisher kriteriyasi qo’llanib matematik-statistik taxlil qilindi.

Taxlil natijasida matematik qutilish, tanlanma dispersiya, o’rtacha kvadratik chetlanishlar va oraliq intervallar topildi

Natijalardan tajribadan oldingi va keyingi ko’rsatkichlar uchun ishonchli intervallar topildi:

Bundan xq0,05 qiymatdorlik darajasi bilan aytish mumkinki, tajriba guruxlarida o’rtacha baxo nazorat guruxlaridagi o’rtacha baxodan yuqori va oraliq intervallari ustma-ust tushmayapti. Demak, matematik-statistik taxlilga asosan, ijobiy natijaga erishilgani ma’lum bo’ldi. Yuqoridagi natijalarga asoslanib, tajriba-sinov ishlarining sifat ko’rsatkichlarini hisoblaymiz.

**Uchunchi bobga xulosa**

Olingan natijalardan o’qitish samaradorligining baholash mezoni birdan, bilish darajasini baxolash mezoni noldan kattaligini ko’rish mumkin. Bu esa tajriba guruxlarining sifat ko’rsatkichlari nazorat guruxlarining sifat ko’rsatkichlaridan yuqori ekanligini anglatadi. Demak, o’quvchilarda Vatan ravnaqi g’oyasining shakllanganlik darajasi bo’yicha yaxshi natijaga erishilgani tajriba-sinov natijalaridan ma’lum bo’lib turibdi.

# Xulosa

Magistrlik dissertatsiyaning muammosini nazariy va amaliy jixatdan o'rganish natijalariga tayangan xolda quyidagi xulosalarga kelindi:

1. O'quvchilarda Vatan ravnaqi g'oyasini shakllantirish muxim muammo ekanligi nazariy jixattan asoslandi. Shu munosabat bilan Vatan ravnaqi g'oyasini moxiyati tushunchasi,mazmuni va uning asosiy negizlari nazariy jixattan ishlab chiqilgan. Yurtboshimiz I.A.Karimov asarlarida ushbu g'oyaning ifoda etilishi,uning O'zbekiston taraqqiyotidagi axamiyati ko'rsatilib, ushbu muammoga oid adabiyotlar nazariy jixattan taxlil etildi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuniy va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "Yoshlar yili" davlat dasturi, o'rta maxsus kasb-xunar ta`limi Davlat ta'lim standartlarida Vatan ravnaqi g'oyasining ifodalanishi ilmiy-nazariy, amaliy jixatdan o'rganildi. Tadqiqod ishida o'rta maxsus kasb-xunar ta`limimuassasalari o'quvchilarida Vatan ravnaqi g'oyasini shakllantirishning takomillashtirish yollari ko'rsatildi. Vatan ravnaqi g'oyasining ma'naviy, tarixiy, siyosiy, tarbiyaviy soxadagi yo'nalishlari. Vazifalari va o'ziga xos xususiyatlari aniqlandi

2. Talaballarda Vatan ravnaqi g'oyasini shakllantirish tamoyillari, mavzulari va ularni mazmuni ishlab chiqildi. O'quvchilarda Vatan ravnaqi g'oyasini shakllantirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning ozod va obod Vatan, uni sevish, e'zozlash va ardoqlash xaqidagi g'oyalari; O'zvekistonda adolatli, xuquqiy, demokratik fuqorolik jamiyati qaror topayotganligi va bunda xar bir shaxsning faolliyligiga erishish: xalqimizning merosini o'rganish va mustaxkamlashda faol ishtirok etishga jalb etish; ona-yurt tarixini bilish va u bilan faxrlanish O'zbekistonning o'z istiqloli yo'lini chuqur shrganish; milliy va umuminsoniy qadriyatlarni bilish va xurmat qilish; Tinchlik, barqarorlik va osoyishtalikni saqlashga intilish; O'zbekistonning jaxondagi o'rni yuksak darajada ekanligini ma'suliyat bilan his etish; O'zbekiston-kelajagi byuk davlat ekanligiga to'la ishonch bilan munosabatda bo'lishga doir bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishlari muxim axamiyat kasb etishi ilmiy-nazariy jixatdan dalillandi.

3. O’quvchilarda Vatan ravnaqi g’oyasini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari ishlab chiqilib, amalga oshirish yo’llari va natijalari ko’rsatildi. O’rta maxsus kasb-xunar ta`limimuassasalari o’quvchilari uchun tuzilgan so’rovnoma javoblari nazariy jixatdan tahlil etildi. SHuningdek, o’quvchilarda Vatan ravnaqi g’oyasini shakllantirishda “Vatan ravnaqi g’oyasi-millat taraqqiyoti” dasturi ishlab chiqildi. Bitiruv malakaviy ishning ishida tushuntirish, mustaqil o’qish, ishantirish, mashq qildirish, o’z-o’zini tarbiyalash kabi tarbiya metodlari asosida o’quvchilarda vatanparvarlik tarbiyasi, fuqarolik ma’suliyati, milliy o’zlikni anglash va mustaqil tafakkurini shakllantirish, xuquqiy, ekologik, milliy g’urur, milliy urf-odatlarimizga hurmat kabi xususiyatlar shakllantirildi. Mustaqil O’bekistonni rivojlantirishning ma’naviy-ahloqiy negizlariga asoslangan xolda, ushbu muammo yuzasidan ilmiy-uslubiy tavsiyalar yaratilib, amaliyotga tadbiq etildi

4. Mustaqillik yillarida Vatan ravnaqi g’oyasi barcha ijtimoiy-tumanitar fanlarning etakchi mavzusiga aylandi. SHu munosabat bilan bitiruv malakaviy ishning ishida “O’zbekiston tarixi”, “Ma’naviyat asoslari” fanlari misolida mustaqillik yillarida ma’naviy hayot; ma’naviy qadriyatlarning tiklanishi; Amir Temur, Mirzo Ulug’bek va boshqa buyuk siymolarning tarixdagi roliga xolisona baxo berish, ularning nomlarini abadiylashtirish; diniy qadriyatlar va islom ma’naviyatining tiklanishi; xalqimizning urf-odat, an’ana va udumlarining xayotga qaytarilishi; ozod va obod Vatan, farovon turmush yaratish, demokratik jamiyat qurish, mamlakatimizning xalqaro nufuzini ko’tarish xamda vatanparvarlik, insonparvarlik, mexr oqibat, birodarlik,kelajakka ishonch va adolat tuyg’ularini shakllantirishdagi axamiyati; ma’naviy barkamol inson tushunchasi, uning moxiyati; komil inson va uning sharqona fazilatlari; milliy o’zlikni anglash, huquqiy savodxonlik masalalari Vatan ravnaqi g’oyasining negizini tashkil etishi dalillandi.

5. O’rta maxsus kasb-xunar ta`limifaoliyatida o’quvchilarda Vatan ravnaqi g’oyasini shakllantirishning amaliyotdagi xolati umumlashtirildi. O’quvchilarda Vatan ravnaqi g’oyasini shakllantirishning pedagogik asoslari ishlab

chiqildi.Tajriba-sinov ishlari jarayonida o'quvchilarda Vatan ravnaqi g'oyasining shakllanganlik darajalari aniqlandi.O'quvchilarda Vatan ravnaqi g'oyasini shakllantirishning tasnifi ishlab chiqildi. Yuqori, o'rta, quyi darajalarga bo'linib, Styudant-Fisher kriteriyasi bo'yicha taxlil etildi. Tajriba va nazorat guruxlari o'quvchilarda Vatan ravnaqi g'oyasining shakllanganlik ko'rsatkichlari son va koeffitsient xisobida ifodalandi.

## Tavsiyalar

O'quvchilarda Vatan ravnaqi g'oyasini shakllantirish jarayonini samarali kechishini ta'minlash maqsadida quyidagilarga amal qilish lozim:

O'quvchilarni Vatan ravnaqi g'oyasi ruxida tarbiyalash metodikasiga doir uslubiy va o'quv qo'llanmalari yaratish;

- o'rta maxsus kasb-xunar ta`limi muassasalarida Vatan ravnaqi g'oyasini shakllantirish texnologichsini amaliyotga tatbiq qilish;
- pedagogika, psixologiya, ma'naviyat asoslari, milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar, dinshunoslik, ijtimoiy falsafa va sotsiologik adabiyotlar mazmuniga Vatan ravnaqi g'oyasini shakllantirish mavzularini kiritish;
- respublika o'rta maxsus kasb-xunar ta`limi muassasalarida olib borilayotgan Vatan ravnaqi g'oyasini shakllantirishga doir ilg'or tajribalarni umumlashtirish va ommalashtirish;
- uzluksiz ta'lim jarayonida o'quvchi yoshlarda Vatan ravnaqi g'oyasini shakllantirish tizimini yaratish.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

### I. Siyosiy adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida T. "O'zbekiston" 2011.
2. Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi
3. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Vazirlar Mahkamasining 2010 yilda respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yil iqtisodiy dasturining eng muhim ustuvor vazifalariga bag'ishlangan majlisidagi ma'ruzasi "Xalq so'zi" . 22 yanvar 2011 yil
4. Karimov I.A., Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi va uni O'zbekiston sharoitida bartaraf etish yo'llari va choralari, T. 2009.
5. Karimov I.A., Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch, T. 2008.
6. Karimov I.A., Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori, T. 1997.
7. «Barkamol avlod yili" davlat dasturi T. 2010
8. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi" Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi T. 1997 yil 29 avgust
9. Barkamol ablod orzusi. T.2000

### II. Maxsus adabiyotlar

1. Aripova M.Mustaqillik va vatanparvarlik Xalq ta'limi.-Toshkent, 2003.-№5.-B.32-33.
2. Aripova M.Ta'lim jarayonida vatanparvarlik tarbiyasi. Kasb-xunar ta'limi.-Toshkent, 2004.-№6.-B. 28-29.
3. Aripova M.Turkistonliklar savodsizmidi? Tafakkur.-Toshkent, 2004.-№2.-B.92-93.

4. Aripova M. O’quvchilarda Vatan tuyg’usini shakllantirishda Vatan tarixining axamiyati. Ilmiy metodik to’plam. -Toshkent: O’zPFITI, 2004.-B.12-16.
5. Aripova M. O’qituvchi kasb maxoratini oshirish. Respublika ilmiy seminar materiallari.-Toshkent: O’zPFITI, 2004.-B.140-142.
6. Aripova M. Pedagogik texnologiyalar-o’quv jarayonining samarasi G`G` Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari.-Toshkent: TDPU,2004.-B.93-95.
7. Aripova M.Hadislar-komillikka etaklovchi vosita. Ilmiy amaliy anjuman materiallari.-Toshkent: O’zDJTU, 2004.-B.217-221.
8. Aripova M.Inson kamolotining bosh omili. Boshlang’ich ta’lim.-Toshkent, 2005.-№1.-B.26-27.
9. Aripova M. O’quvchilarda Vatan ravnaqi g’oyasini shakllantirish. Uslubiy qo’llanma.-T.:Fan, 2007. -44b.
10. Aripova M.O’quvchilarda Vatan ravnaqi g’ochsini shakllantirish tamoyillari. Boshlang’ich ta’lim.-Toshkent,2007.-№4.-B.2-3.
11. Aripova M.O’quvchilarda Vatan ravnaqi g’oyasini shakllantirish. Ilmiy – metodik to’plam.-Toshkent: O’ZPFITI, 2007.-11 qism.-B. 15-17.
12. Aripova M. O’quvchilarda Vatan ravnaqi g’oyasini shakllantirish mezonlari. Xalq ta’limi .-Toshkent, 2009.-№2.-B. 50-54.

**III. “Internet” saytlari**

1. www.bilimdon.uz
2. www.de.uz
3. www.tatu.uz
4. www.referat.uz
5. www.google.ru
6. www.talaba.uz
7. WWW.ZiyoNet.uz

-

**ILOVA**

***Muxammadjon Quronovning"*** **BOLANGIZNING MILLIY TARBIYALANGANLIK" asaridan na'muna**

***Bunda quyidagi 44 usulni qo'llang:***

1. *Ayblamoq* — bolani qilgan gunohi, xatosi uchun ado-latli rabishda aybdor deb topmoq, ayb qo'ymoq va bola-ning buni anglashiga erishmoq.

2. *Arazlamok,* — qilgan salbiy qilig'i uchun bolani aybsitib, undan o'pka qilib yurmoq yoki tarbiyabiy maq-sadda vaqtincha yuz o'girmoq.

3. *Baholamoq* — bola xulqiga uning ahamiyati, qadr-qimmati haqida ijobiy yoki salbiy fikr bildirmoq,

4. *Bahslashmoq* — o'qubchi bilan (maktabda), o'g'il-qiz (farzand) bilan maktabda, uyda ilmiy, adabiy, axlo-qiy, milliy-mafkurabiy mazmunda munozara qilmoq.

5. *Begona qilmoq* — bolaning yolg'on gapirgani aniqla-nib, qo'polligi muhokama qilingach, undagi bijdonni junbushga keltirish, qilgan ishiga pushaymon qilishi uchun o'qitubchi, ota-ona yoki ona uni o'zidan vaqtincha uzoq tutib yurishi.

6. *Biriktirmok,* — odob-axloqda, biror hunarda ko'pchilikka namuna bo'lgan ustoz tarbiyasiga bermoq. O'tmishda qo'shni ko'rgan ota-onalar farzandlarining hayotini, odamlar, begonalar bilan muomala qilishni o'rgansinlar, deb o'g'illarini choyxonachiga xizmatkor-likka berishgan ekan.

7. *Bitim* — bolaning hayotiga, o'qishiga, kelajagiga oid jiddiy masalani uning o'zi bilan muhokama qilib, o'zaro ijobiy kelishub, to'xtam, qarorga kelmoq.

8. *Buyurmoq* — vaziyatning taqozosi bilan tarbiyabiy maqsaddan kelib chiqqan holda bolaning o'zi uchun, ja-moa, millat, Vatan manfaatlarini ko'zlab buyruq ber-moq.

9. *Va'da olmok,* — bolaning o'z so'ziga sodiqligini, so'zi va ishi birligini sinash maqsadida undan biror ishning, majburiyatning vajarilishi haqida so'z olmoq. ; 10.

*Girgitton bo'lmost* — mehribonlik bilan, «ayla-nay», «o'rgilay» so'zlarini ishlatib, ismiga «jon», «xon» qo'shib bolani erkalash.

11. *YOrilmoq* — bolaning noo'rin xafaligini bilgach, tanho qoldirib, asl maqsad — uning muvaffaqiyati eka-nini aytish. Xayrixohlik, samimiylik bu usulga muvaffaqiyat keltiradi.

12. *Inoqlashmoq* — bola bilan yaqin, do'stona munosa-vat bog'lamoq, ahillashib ketmoq.

13. *Kafil bo'lmoq* — bola bilmay, adashib xatoga yo'l qo'ygan choqda uning yaxshiligi haqida boshqalar (o'qitu-bi, o'qubchilar)ni ishontirib, bola uchun mas'uliyatni o'z ustiga olmoq.

14. *Kengashmoq* — bola sinf jamoasi oldida turgan muammoni birgalikda muhokama qilmoq.

15. *Koyimok,* — jazo berishning engil turi. Bolaga tanbexdobchi so'z aytmoq, tanbeh bermoq, urishib qo'ymoq.

16. *Kuzatmoq* — sinf ahlining, har bir bolaning xulq-atborini zimdan qarab, tekshirib turmoq, ko'zdan kechirmoq, qayd qilmoq.

17. *Ko'rsatmoq* — bolaga, bolalarga o'rnak yoki ibrat olishlari yoki ularda yangi tushuncha, bilim hosil qilish maqsadida biror narsaga diqqat-e'tiborlarini jalb qilish.

18. *Maqtamoq* — bolani uning o'ziga yoki boshqalar oldida yaxshi tomonlarini ko'rsatib gapirmoq, yaxshi qilib ko'rsatmoq.

19. *Nasihat* — sokin, xayrixohlik vaziyatda bolani yaxshi yo'lga solish, ta'lim berish maqsadida aytilgan gap, maslahat, pand, o'git.

20. *Obutmoq* — bolaning, uning oilasining boshiga biror kulfat tushganda unga tasalli berib yupatmoq, obuntirmoq, yig'lashdan to'xtatmoq.

21. *Odatlantirmok,* — odob me'yorlarini mashq qil-dirish. Masalan, salomlashish, murojaat qilish, meh-ribonlik ko'rsatish va hokazolarga odat paydo qilmoq, o'rgatmoq.

22. Ohlsshoh — shunday vaziyatlar bo'ladiki, bola yil bo'yi ajoyib xulq-atbor, o'git namunalarini ko'rsatib keladi-yu, bilib-bilmay bir xatoga yo'l qo'yadi. Masalan, birob bilan urishib qoladi; hasharga kelmay qoladi va h.k. SHunday holda o'qitubchi — sinf tarbiyachisi uni (oldingi namunali xulqi hurmati) oqlamog'i kerak.

23. *So'ramok,* — bolaning ilmiy va axloqiy bilimlari haqida ma'lumot olmoq, tekshirmoq, norasmiy imtihon qilmoq.

24. *Talab qilmoq* — tarbiyalash maqsadida boladan biror narsani qat'iyat bilan so'rab turish.

25. *Tasalli bermoq* — muvaffaqiyatsizlikka uchragan bolani yupatish, ko'ngil ko'tarish uchun gapirmoq, ish-harakat qilmoq. m 26. *Ta'birlamoq* — bolada, sinf, jamoat ahlida uchrab turubchi xatti-harakatlarni sifatlamoq.

27. *Ta'kidlamoq* — bolalar bilan o'tkazilgan har bir vaziyatda, ularga malol kelmaydigan axloqiy mazmunni uqtirib, tayinlab bermoq.

28. *Taqdirlamok,* — o'qubchini, farzandni qadrlamoq, munosib vaholamoq, bolaga uning qadri bor ekanini sezdirmoq.

29. *Tak,i.kglam.ok,* — tarbiyabiy maqsadda bolaga, o'qub-chiga biron narsani man etmoq.

30. *Tahsinlamoq* — o'qubchini, farzandni «valli», «ofarin» kabi so'zlar bilan qarshi olmoq, yuksak va-holamoq.

31. *Tenglashmoq* — bola, o'qubchi biror tahsinga sazo-bor ish qilganda uning xatti-harakatini eng hurmat-li, aziz kishilar xulqiga qiyoslash, yomon ish qilganida esa o'z qishlog'i, mahallasi hududidagi «yomon» deb nom qozongan shaxs xulqiga o'xshatmoq, taqqoslamoq.

32. *Tergamok,* — vaqti-vaqti bilan bolaga etarli dab-rajada qattiqqo'llikni namoyon qilib, tekshirib, nojo'ya xatti-harakatlari uchun koyib «yo'li»dan qaytarib tu-rish.

33. *Uyalpshrmok,* — noma’qul qilig’i uchun bolaga o’ta noqulaylik tug’dirish, xijolat, andisha, nomus qildirmoq.

34. *SHabqlantirmoq* — bolaning xulqi, o’qishidagi muvaffaqiyatlari. Kelajagiga g’oyat mamnunlik hissi bilan berilmoq, ruhiy ko’tarinkilik bilan qiziqmoq, zabqlanmoq va zabqlantirmoq, qanoatlantirmoq.

35. *Erkalatmoq* — o’g’il bolani qo’zichog’im, sherim, toychog’im, qiz bolani esa oppog’im, onajonim deya si-lab-siypalamoq, suymok.

36. *YAlinmoq* — agarda boshqa xil usul kor qilmasli-giga ko’z etsa, bola qalbida mehrni yangilash, uyg’otish maqsadida uni biror narsaga ko’ndirish uchun iltimos qilmoq; o’tinib so’ramoq.

37. *YArashtirish* — oilada, sinfda va’zan uchraydi-gan o’zaro urush-janjalni to’xtatish, urushmaslikka ahd qiddirmoq, munosavatni yaxshilamoq, totublashtirmoq.

38. *O’ynamoq* — bola bilan unda ijobiy sifatlarni ribojlantirish, salbiy sifatlarni yo’qotish maqsa-diga yo’naltirilgan ma’lum qoida va usullar bilan ijro etiladigan o’yinlarni birga o’ynash usuli.

39. *O’rttmoq* — bolaga biror ish-harakat (masalan, choy damlashni, turli joy, vaziyatlarda o’zini tutishni, gapirishni va h.k.) vajarish usulini, yo’l-yo’rig’ini tu-shuntirmoq, bildirmoq va shu ishni mustaqil vajara oladigan qilmoq.

40. *O’qitmok,* — yozilgan narsani yoki matnni undagi belgilar, harflar bositasida aynan aytib, eshittir-moq.

41. *Qaytarmoq* — bola, o’qubchi jahli chiqib, qizishib biror kor-hol, yomonlik qilishga qaror qilsa yoki va-johati shuni ko’rsatsa, uni bunday nomaqbul, nojo’ya ish-dan, xatti-harakatdan o’zini tutishga undamoq, tiymoq.

42. *Qiziqchilik qilmoq* — o’qubchi, bola bilan munosa-vatda rasmiyatchilikni, psixologik tanglikni vartaraf qilish maqsadida mabzuni burib yuborish, ermak, hazil qilish, bolani kuldirish.

43. *Sobg'a berish* — bolaga vayram, hayitlar muno-savati bilan imkon darajasida tuhfalar qilib, uning mehrini yangilab, oshirib turish.

44. *Homiylik qilish* — bolaga biror sohaga qiziqib, berilib shug'ullansa, bu ishda unga yordam, madad be-rish, muhofaza etish.

***Mana bu 12 usulni esa ko'llam.ang:***

SHu bilan birgalikda o'qubchi, bolaga tarbiyabiy ta'-sir o'tkazishning salbiy usullari mabjudligi va ularga varham berish uchun ulardan namunalar keltirildi:

1. *Aldamoq* — yolg'on-yashiq gaplar bilan, va'dalar bi-lan abramoq, laqillatmoq.

2. *Vachkanalashmoq* — o'qitubchi, ota-onaning kattalarga, ulug'larga nomunosib qilikdar, xatti-harakatlar qilmoq.

3. *Vaysamoq* — bolalarni, o'qubchilarni tomonlarga bo'lib, bir-biriga qarshi oyoqlantirib, tezlab, ular orasidagi ziddiyatni kuchaytirmoq; nizoni abj oldir-moq, olqishlamoq.

4. *Gina qilmoq* — o'qubchiga, bolaga nisvatan dilda xafalik, kek saqlamoq.

5. *YOmonlamoq* — bolaning oldida yoki orqasidan uni yomonlab, yomonga chiqarib, qoralab gapirmoq.

6. *Zarda qilmok,* — bolaga, o'qubchiga hadeb zarda, jahl qilaberish.

7. *Zorlanmoq* — bolalar qoshida biror narsadan, va-ziyatdan nolimoq, shikoyat qilmoq, hasad qilmoq, no-chorlikni namoyon qilmoq.

8. *Majbur qilmoq* — hech bir asossiz o'qubchining, sinfning munosavati bilan hisoblashmay, amr, zo'rlik bilan yoki biror narsa taqozosi bilan bir ishni qi-lishni buyurish, ko'r-ko'rona talab.

9. *Nizo* — o'qitubchi va o'qubchi, bola va ota-ona orasi-da o'zaro kelishmobchilik yoki qarama-qarshilik, dushman-lik, adovatli munosavat, ixtilof, nifoq hosil qilish.

10. *So'kmoq* — bolani yomon, uyat so'zlar bilan urish-moq, haqorat qilmoq (odatda, bu usul so'kilubchining so'kubchiga bemehrligiga olib boradi).

11. *Xo'mraymoq* — farzandga, o'qubchiga, qobog'ini so-lib tikilmoq, yomon ko'z bilan qaramoq.

12. *Qarg'amoq* — farzandga yomonlik, vaxtsizlik yoki o'lim tilab koyimoq; yomon niyat tilamoq.